

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

F.E.XO'JAEV, I.S.XOTAMOV, S.AYTIYEVA

BOJXONA HAMKORLIGI

(O'QUV QO'LLANMA)

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy
o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini
muvofiglashtiruvchi kengashi tomonidan oliy o'quv yurtlarining
iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etilgan**

Toshkent – Iqtisodiyot - 2011

Xo'jaev F.E., Xotamov I.S., Aytiyeva S. © “Bojxona hamkorligi” (O'quv qo'llanma), - T.: TDIU, 2011, - 174 bet.

O'quv qo'llanmasida bir-biriga bog'langan holda bojxona ishini asosiy taShkil etuvchilari: bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvadan o'tkazish, qonunchilikda belgilangan bojxona to'lovlarini undirish, bojxona qonunbuzarliklariga qarshi kuraSh, bojxona hamkorligi masalalri yoritilgan.

Ushbu o'qub qo'llanma Oliy o'quv yurtlarining huquq va iqtisod fakultetlari talabalari, bojxona organlari xodimlari va tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari uchun mo'ljallangan.

Хужаев Ф.Э., Хотамов И.С., Айтиева С. © «Таможенное сотрудничество» (Учебное пособие). – Т.: ТГЭУ, 2011, – 174 с.

В учебном пособии в системной основе изложено сущность основных составляющих таможенного дела: осуществление таможенного контроля и оформление товаров и транспортных средств перемещаемых через таможенную границу, взимание таможенных платежей, борьба с таможенными правонарушениями, таможенное сотрудничество.

Данное учебное пособие предназначен для студентов правовых и экономических факультетов вузов, таможенных работников и участников внешнеэкономической деятельности.

Xujaev F.E. Xotamov I.S., Aytiyeva S. © “Cooperation in customs affair” – T.: pub. TSEU, 2011, 174 p.

The main contents of customs those are connected in the study guide followed as: customs control and legalizing goods and a transportation which are incoming and outgoing the border, charging the custom taxes, the struggle with a law, and a custom cooperation.

It is the student's approach of the Economic and law faculties of high education institutes, customs employees and partici paints of the foreign economic activity.

Taqrizchilar: i.f.d., dotsent A.S.Kucharov
i.f.n., dotsent A.A.Aliyev

© Toshkent – “Iqtisodiyot” – 2011

M U N D A R I J A

	Kirish.....	5
I-bob.	“Bojxona hamkorligi” fani uning mohiyati va maqsadi	8
1.1.	Bojxona hamkorligi tushunchasi va uning vazifasi.....	8
1.2.	Bojxona hamkorligi tashkilotlarining tashkil etilish tarixi.....	15
II-bob.	Evropa Ittifoqi va uning tashkil etilishining asosiy sabablari.....	23
2.1.	Evropa Ittifoqi – iqtisodiy integratsiyaning bir ko’rinishi sifatida.....	23
2.2.	Mastrixt Shartnomasining mohiyati va maqsadi.....	24
2.3.	Mastrixt Shartnomasining jahon iqtisodiy maydonidagi o’rni va asosiy vazifasi.....	26
III-bob.	O’zbekiston Respublikasining jahon xo’jaligiga integratsiyalashishi.....	30
3.1.	Iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va maqsadi.....	30
3.2.	Jahon iqtisodiy hamkorlik birlashmalari va ularning mamlakatlar iqtisodiyotidagi ta’siri.....	32
3.3.	Respublikamizning jahon xo’jaligiga integratsion bosqichlari ...	35
3.4.	O’zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvining ahamiyati.....	42
IV-bob.	Jahon global iqtisodiy inkirozi Sharoitida O’zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati.....	57
4.1.	Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mohiyati, kelib chiqish sabablari va salbiy oqibatlari	57
V-bob.	Chet el investitsiyalarini keng jalb qilish, xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish.....	68
5.1.	Iqtisodiyotda tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirishda xorijiy investitsiyalarning o’rni.....	68
5.2.	O’zbekiston Respublikasining eksportga mo’ljallangan ishlab chiqarishi.....	81
5.3.	O’zbekiston Respublikasining investitsion hamkorligi.....	86
VI-bob.	Markaziy Osiyo davlatlarida bojxona munosabatlarning rivojlanish tarixi	97
6.1.	Bojxona ishining Markaziy Osiyoda vujudga kelish tarixi.....	97
6.2.	Markaziy Osiyo Respublikalarida bojxona hamkorligining hozirgi xolati.....	101
VII-bob.	Mustaqil davlatlar hamdo’stligi respublikalari bojxona hamkorligi.....	110
7.1.	Mustaqil Davlatlar hamdo’stligi Respublikalari bojxona Ittifoqining asosiy vazifasi.....	110

7.2.	Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Ukraina Respublikasi va Qozog'iston Respublikalari yagona iqtisodiy Ittifoqi.....	113
7.3.	O'zbekiston Respublikasining Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi bojxona Ittifoqining azoligining afzalliklari.....	117
VIII-bob	O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona Qo'mitasi faoliyatini butunjahon bojxona tashkiloti tamoyillari asosida takomillashtirish.....	124
8.1.	Butunjahon bojxona tashkilotini asosiy vazifasi va tamoyillari...	124
8.2.	O'zbekiston Respublikasi Bojxona Qo'mitasi bilan Butunjahon bojxona tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik.....	126
IX-bob.	Butunjahon savdo tashkilot va uning asosiy funktsiyalari.....	132
9.1.	Butunjahon savdo tashkilotini tashkil etilishi va rivojlanish tarixi.....	132
9.2.	O'zbekiston Respublikasini Butunjahon savdo tashkilotida a'zo bo'lish yo'lida amalga oshirilayotgan chora tadbirlari.....	135
9.3.	O'zbekiston Respublikasini Butunjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishini afzalliklari.....	138
X-bob.	Ochiq iqtisodiy xududlar va ularda bojxona xizmatini tashkil etish.....	146
10.1.	Ochiq iqtisodiy xududlarni siniflanishi.....	146
10.2.	Ochiq iqtisodiy xududlarda bojxona xizmatini tashkil etishni o'ziga xos xususiyatlari.....	150
10.3.	Hamdo'stlik davlatlarida Ochiq iqtisodiy xududlarni tashkil etilishi.....	153
10.4.	"Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi va unda tovarlarni rasmiylashtirish bo'yich beriladigan imtiyozlar.....	155
	Xulosa.....	167
	Glossariy.....	171

***Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston
Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligi
va Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining
80 yilligiga bag'ishlanadi.***

KIRISH

Dunyo davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tajribasidan yaxshi ma'lumki, har qanday mamlakatning iqtisodiyoti uni rivojlantirishning ob'ektiv qonuniyatlari, mavjud iqtisodiy salohiyat va imkoniyatlar, shu mamlakatda yashayotgan xalqning o'ziga xos turmush tarzi, tafakkuri, milliy qadriyat va an'analari, ma'naviy boyliklari to'la hisobga olingan, puxta iqtisodiy siyosat ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilgan sharoitdagina barqaror va mutanosib rivojlana oladi. Aynan mana shunday omillarni o'z mazmun-mohiyatiga singdirgan, bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan haqli ravishda to'liq e'tirof etilayotgan taraqqiyotning "o'zbek modeli" mamlakatimizning tadrijiy ravishda jadal ravnaq topishi, xalqimiz moddiy va ma'naviy hayotining izchillik bilan yuksalib borishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda¹.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy hayotning turli jabhalaridagi keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, tub tarkibiy o'zgarishlar jarayoni naqadar salmoqli natijalar berayotgani 2010 yildagi rivojlanish yakunlari misolida yana bir bor o'z isbotini topdi. Bu borada erishilgan aniq yutuq va muvaffaqiyatlarning keng va atroflicha tahlili, shu asosdagi muhim amaliy xulosalar, kelgusida e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan dolzarb masalalar Prezidentimiz Islom Karimovning shu yil 21 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yilning asosiy yakunlari va 2011 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida so'zlagan ma'ruzasida o'zining har tomonlama teran va haqqoniy ifodasini topdi. Unda mamlakatimizni rivojlantirishning o'ziga xos modeli, uning asosiy tamoyillari asosida ishlab chiqilgan, har tomonlama puxta o'ylangan mamlakatni isloh etish va modernizatsiya

¹ И. А. Каримов. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” маърузаси// Халқ сўзи газетаси, 12.11.2010.

qilishning tadrijiy dasturi izchil amalga oshirilishi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyoti, uning moliya va bank tizimiga salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytirish imkonini bergani qayd etildi.

Ayni vaqtda ma'ruzada 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning quyidagi eng muhim ustuvor vazifa va yo'nalishlari belgilab berildi:

birinchidan, O'zbekistonning jahon bozoridagi raqobatdoshligini oshirish va mavqeini mustahkamlashga yo'naltirilgan, tarkibiy o'zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish siyosatini davom ettirish;

ikkinchidan, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini jadal yangilash;

uchinchidan, chet el investitsiyalarini keng jalb qilish, xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish;

to'rtinchidan, infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini kompleks va jadal ravishda rivojlantirish;

beshinchidan, ijtimoiy rivojlanish, birinchi navbatda, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularni jihozlash;

oltinchidan, "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturini hayotga tatbiq etish;

ettinchidan, aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil qilish muammosini hal etish².

Prezidentimizning ushbu ma'ruzasida belgilab berilgan O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash, bank-moliya tizimining barqarorligini mustahkamlash, strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borish, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada yuksaltirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali hal etish eng avvalo jamiyatimiz a'zolari tomonidan ularning mazmun-mohiyatini teran va chuqur anglab etilishini taqozo etadi. Ayniqsa, 2011 yilning yurtimizda "Kichik biznes va

² И. Каримов. "Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади" – 2010 йилнинг асосий якунлари ва 2011 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

xususiy tadbirkorlik yili" deb nomlanishi hamda bu boradagi maxsus Davlat dasto'rining ishlab chiqilishi barchamizdan aniq maqsadga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarni talab etadi

Shunga ko'ra, Prezidentimiz Islom Karimovning **"Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi"** mavzusidagi ma'ruzasini talabalar tomonidan chuqur o'rganilishi, unda ko'rsatib o'tilgan dolzarb masalalarning tub mohiyatining anglanilishi, 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari va ularni amalga oshirish borasidagi kuch, imkoniyatlar, mexanizmlarni talaba yoshlar ongiga chuqur singdirish orqali ularning yurtimizdagi ulkan o'zgarishlar haqidagi bilim va tushunchalarini kengaytirish, ana shu o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish maqsadida maxsus o'quv kursini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu kursni o'rganish bo'yicha tuzilgan mazkur o'quv qo'llanmada Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yil 7 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi **"Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish - taraqqiyotimizning muhim omilidir"** nomli ma'ruzasida bayon etilgan "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi doirasida erishilgan natijalar, 2011 yilga mamlakatimizda "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb nom berilishi va shu munosabat bilan qabul qilingan dasturda ko'zda tutilgan chora-tadbirlar haqidagi materiallar tegishli mavzu va o'rinlarda o'z ifodasini topgan. Bu esa talabalarga 2010 yilning asosiy yakunlari va 2011 yilda Uzbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotiga oid bildirilgan muhim dasturiy fikr va g'oyalar, amaliy xulosalar bilan uzviy bog'liq holda o'rganish imkonini beradi.

I-bob. “Bojxona hamkorligi” fani uning mohiyati va maqsadi

1.1. Bojxona hamkorligi tushunchasi va uning vazifasi

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining bojxona xizmatini tashkil etish va boshqarishni huquqiy bazasini bojxona ishi sohasidagi xalqaro konventsiyalar va boshqa xalqaro me'yorlarga yaqinlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi 1992 yil 28 iyulda Bojxona hamkorligi Kengashi ta'sis etgan konventsiyaga qo'shildi va hozirgi paytda u bojxona xizmatiga doir 15 xalqaro konventsiyaga a'zodir. 1995 yil iyun oyida mamlakatimiz Shu tashkilotni siyosiy komissiyasi tarkibiga saylandi. Bu organning 24 a'zosidan biri bo'lgach O'zbekiston mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar qanday amalga oshirilayotganini jahon darajasida yoritish, bojxona ishi sohasida respublika manfaatlarini himoya qilish, bojxona xizmatini yanada takomillashtirib, jahon standartlari darajasiga ko'tarish maqsadida JBT a'zo bo'lgan mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ldi. 2001 yilda O'zbekiston Respublikasi shu tashkilotni moliya qo'mitasi tarkibiga kirdi.

Evropa iqtisodiy hamkorlik qo'mitasiga kiradigan 13 davlat 1947 yilda Tariflar va savdo bo'yicha bosh bitim (GATT) printsiplariga asoslangan bitta yoki bir necha Evropa davlatlararo bojxona ittifoqini tuzish to'g'risidagi masalani o'rganadigan ishchi guruhini tuzishga kelishib oldi. Natijada bir yildan keyin ikkita qo'mita – iqtisodiy va bojxona qo'mitalari tashkil etildi. So'ngisi esa Bojxona hamkorligi Kengashi (BHK) tuzilishiga zamin bo'ldi. Uni ta'sis etish to'g'risidagi konventsiya 1950 yil 15 dekabrda Bryusselda imzolandi. Vaqt o'tishi bilan BHKga, Evropa mamlakatlaridan tashqari, jahondagi boshqa mamlakatlar ham qo'shila boshladi. 1952 yil 26 yanvarda Kengashning birinchi inauguratsion sessiyasi bo'lganligini unutmash uchun 1983 yildagi navbatdagi sessiyada 26 yanvar Jahon bojxona xodimlari kuni deb belgilandi. Hozirgi vaqtda 161 davlat Kengashning a'zosidir. 1994 yil iyun oyida bo'lib o'tgan sessiya ishtirokchilarining taklifi bilan Kengashning ishchi nomi – Jahon bojxona tashkiloti (JBT) keng taomilga kirdi.

Tarkibiga 24 mamlakat 2 yil muddatga saylanadigan siyosiy komissiya JBTning etakchi organidir. U tashkilotning o'zini, uning tarkibini rivojlantirish masalalari, jahon darajasida bojxona ishining siyosati va strategiyasini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Siyosiy komissiya tomonidan sessiyada qabul qilingan qarorlar JBT Kengashiga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

Moliyaviy va byudjet masalalari bilan Moliya qo'mitasi Shug'ullanadi. Darvoqe, ayni uning sessiyalarida JBT a'zosi bo'lgan mamlakatlar har yili byudjetga to'laydigan badallar miqdori belgilandi.

JBT ishini tashkil etish huquqini muhofaza qilish masalalari, boj qiymati, tovarlarning kelib chiqish qoidalari, uyg'un tizim (UT) qo'mitalari va UTni takomillashtirish bo'yicha kichik qo'mita, doimiy texnika qo'mitasi, kichik ilmiy qo'mita, ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash kichik qo'mitasi kabi ko'p sonli qo'mitalar, shuningdek turli ishchi guruhlar orqali amalga oshiriladi.

JBT hukumatlararo mustaqil tashkilot bo'lib, uning vazifasi savdo jarayonini tartibga soluvchi qoidalarga amal qilinishi ustidan nazorat sohasida bojxona ma'muriyatining samaradorlikni oshirishidan, jamiyatni himoya qilish va bojxona to'lovlarini to'la-to'kis undirish masalalaridan iborat. U milliy bojxonalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashadi, bojxona tizimiga daxldor bo'lgan texnik jihatlar va iqtisodiy omillarni o'rganadi, turli konventsionalarning loyihalarini ishlab chiqadi, bojxona ishlari va taomillarini tartibga solishga daxldor axborotlarni jo'natish bilan shug'ullanadi. JBT tashkil topgandan buyon 17 ta xalqaro konventsiya va 50 dan ortiq tavsiyanomalarni ishlab chiqdi va joriy etdi, ular jahon bojxona amaliyotining asosini tashkil etadi.

JBT kotibiyati Belgiyaning poytaxti Bryusselda joylashgan. Uning xodimlari 140 kishidan iborat, ularning orasida JBTga a'zo mamlakatlar bojxona ma'muriyatlarining 68 vakili bor.

Yangi ming yillik boshlanishida Kengash JBTning 2004 yilgacha mo'ljallangan strategik rejasini tasdiqladi. Bu rejada tashkilot faoliyatining ikki asosiy yo'nalishi alohida ko'rsatilgan.

Birinchisi – xalqaro bojxona va savdo dastaklari qo'llanilishi va xizmat ko'rsatilishini yanada takomillashtirish, avvalo tovarlarning kelib chiqishini aniqlashning uyg'un qoidalarini ishlab chiqish; tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'un tizimini yangilash hamda uni qo'llashni kengaytirishga ko'maklashish; JBTning qiymat bo'yicha bitimini bajarish; bunda ushbu Bitimning yangi ahdlashuvchi tomonlarining ehtiyojlariga alohida e'tibor berish.

Ikkinchisi esa – savdo jarayonini rivojlantirishda, huquqni muhofaza qilish sohasida maqbul natijalarga erishishda JBT a'zolariga har tomonlama yordam ko'rsatish. Shu maqsadni ko'zlab, bojxona taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirishga doir xalqaro konventsiyani (Kioto konventsiyasini) qayta ko'rib chiqish, uni amaliyotga joriy etishga doir qo'llanmani tayyorlash; iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash sohasida JBT

a'zolariga yordam berishga doir keng qamrovli dasturni amalga oshirish; bojxona xizmatlarini zamonaviylashtirishga doir islohotlar va loyihalarni amalga oshirishda maslahat bilan yordam berish va ko'maklashish rejalashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasini JBT doirasidagi hamkorligi respublikamiz bojxona xizmati faoliyatini huquqiy bazasini bojxona ishi sohasidagi xalqaro konventsiyalar va boshqa xalqaro me'yorlarga yaqinlashtirish imkoniyatini berdi. Xususan, Kioto konventsiyasini standartlari va tavsiyalarini amaliyotda qo'llanilishi O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo faoliyatini engillashtirish, bojxona muammolarini echish va milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirish kabi masalalarni echishga erishgan holda, BSTning talablariga javob berishni ta'minlaydi. Xalqaro savdo jarayonlarini engillashtirish quyidagi choralar bilan amalga oshirishilishini: notarif to'siqlarni bartaraf etish; xalqaro savdo operatsiyalarini yengillashtirish bilan birga tashqi savdo samaradorligini oshirilishini; moddiy harajatlar va vaqt sarfini kamayishini; tashqi iqtisodiy faoliyatning bojxona boshqaruviga ketadigan harajatlarni pasayishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining loyihasini tayyorlash chog'ida BBT tomonidan tayyorlangan ko'pgina me'yoriy tavsiyalar va huquqiy hujjatlar e'tiborga olindi.

O'zbekiston Respublikasining jahon jamoatchiligi, shuningdek, taraqqiy etgan mamalakatlar o'rtasida siyosiy va iqtisodiy mavqeining kundan kunga oshishi, respublikamizning tashqi iqtisodiy aloqalari yanada rivojlanib borayotganligi Davlat bojxona qo'mitasi, jumladan, Tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo investitsialar vazirligi zimmasiga yangidan-yangi vazifalar qo'ymoqda.

O'z oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, 2010 yil davomida Tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo investitsialar vazirligi Jahon bojxona tashkiloti, Evropa iqtisodiy komissiyasi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining giyohvand moddalar va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash dasturi, Avtomobil transporti xalqaro ittifoqi, Atom energetikasi bo'yicha xalqaro agentlik, xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Evropa taraqqiyot va tiklanish banki, Jahon banki, Koreya va Yaponiya xalqaro hamkorlik agentliklari, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va boshqa qator nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan muntazam ravishda yozishma, muloqot va uchrashuvlarni amalga oshirdi.

Jumladan, yil mobaynida 20 dan ziyod xorijiy va hamdo'stlik mamlakatlari, shuningdek, Koreya, Yaponiya, AQSH, Germaniya, Finlyandiya, Belgiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston bojxona

xizmatlari rahbarlari bilan O'zbekiston va mazkur davlatlar hududlarida uchrashuv va muloqotlar tashkil etildi. O'zaro hamkorlikka intilish ruhida o'tgan bunday uchrashuvlar davomida tomonlar manfaatlarini e'tiborga olgan holda, bojxona tizimi sohasida joriy etilayotgan islohotlar, hozirgi zamon talablariga javob beradigan bojxona qonunchiligini yaratish, soddalashtirilgan bojxona nazoratini tashkil etish, davlat jamg'armasiga tushadigan mablag'lar tushumini nazorat qilish, bojxona tizimini zamonaviy texnik uskuna va asboblardan jihozlar, chegaradosh bojxona maskanlarida paydo bo'layotgan muammolarni bartaraf etish, kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy mahoratlarini oshirish kabi boshqa qator ustuvor yo'nalishlar yuzasidan fikr almashinib, mazkur sohalarda ko'p va ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash va yanada rivojlantirish zarurligi haqida kelishib olishga erishildi.

Jumladan, 1995 yilga qadar Davlat bojxona qo'mitasining faqat Buyuk Britaniya bilan ikki tomonlama hamkorlik haqida idoralararo bitimi bo'lsa, hozirgi kunga kelib aynan shartnomalar 26 ta xorijiy davlat bojxona ma'muriyatlari bilan imzolandi, yaqin kelajakda esa yana 12 chet el bojxona tizimi xizmatlari bilan o'zaro hamkorlik haqida bitimlar loyihalari tayyorlanib, ularni imzolash rejalashtirilmoqda.

Shuni ham ta'kidlash joizki, Davlat bojxona qo'mitasi xodimlari o'zlarining xorijiy mamlakatlar bojxona xizmati va xalqaro bojxona ma'muriyatlari rahbarlari va xalqaro tashkilot vakillari bilan o'tkazgan uchrashuv va suhbatlari davomida, suhbatdoshlarga mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, bojxona tizimining faoliyati, jumladan korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik, giyohvand moddalar, qurol-yaroq hamda o'q dorilar bilan g'ayriqonuniy tijorat qilishga qarshi kurash, O'zbekiston bojxona tizimi oldida turgan asosiy vazifalar va ustuvor yo'nalishlar, Davlat bojxona qo'mitasining respublika bojxona siyosatini ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, bojxona ishlarini amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, respublika bojxona chegaralarida bojxona nazoratini ta'minlash masalalari borasida ma'lumot berib boradilar.

Mazkur faoliyat xorijiy davlatlar bojxona ma'muriyatlari, hamda xalqaro bojxona tashkilotlari mutasaddi vakillari tomonidan ijobiy baholanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va Butunjahon bojxona tashkiloti o'rtasidagi munosabatlar Tashqi aloqalar departamenti faoliyatida alohida o'rin tutadi. Ushbu nufuzli xalqaro tashkilot bilan hamkorlik, respublikamiz bojxona qonunchiligining xalqaro

Konventsional va boshqa huquqiy me'yorlar bilan mutanosibligini shakllantirishga imkon yaratmoqda. 160 dan ziyod mamlakatni o'z a'zolidagi jamlagan ushbu xalqaro tashkilotning aksariyat me'yoriy tavsiyalari va huquqiy hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksini ishlab chiqishda keng ko'lamda foydalanildi. Bugungi kunda, Davlat bojxona qo'mitasi Jahon bojxona tashkilotining siyosiy hay'ati, texnik qo'mitasi sessiyalari Kengashida faol ishtirok etib kelmoqda. qo'mitaning qator mas'ul xodimlari Jahon bojxona tashkiloti huzurida mahsulotlar kvalifikatsiyasi, bojxona qiymatini aniqlash, bojxona qoidalari buzilishiga qarshi kurash mavzulariga bag'ishlangan o'quv kurslarini tugatdilar va mazkur tashkilot yo'llanmasi bilan xorijiy davlatlarda amaliyot jarayonini o'tkazadilar.

Undan tashqari, Jahon bojxona tashkilotining yuqori malakali ekspertlari ishtirokida, Davlat bojxona qo'mitasi mutaxassislari uchun maxsus o'quv mashg'ulotlari uyushtirilib, unda 150 dan ziyod mutaxassislarning qatnashdilar. shuni ham ta'kidlash joizki, o'tgan yili Butunjahon bojxona tashkilotining Bryussel shahridagi shtab-kvartirasida Davlat bojxona qo'mitasi rahbariyati tomonidan Evropa Ittifoqi Komissiyasining «O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksini takomillashtirish» loyihasini amalga oshirishni ma'qullash haqidagi bayoni e'lon qilindi. Ayni vaqtda, Evropa Ittifoqi Komissiyasi va Davlat bojxona qo'mitasi o'rtasida mazkur loyihani amalga oshirish to'g'risida mushtarak Deklaratsiya ham imzolandi.

Davlat bojxona qo'mitasi AQSH va unga ittifoqchi mamlakatlar hukumatlari tomonidan Afg'oniston xalqiga ko'rsatilayotgan insonparvarlik yordami dasturi doirasida, respublikamiz bojxona tizimini davr talabiga javob beradigan yangi, zamonaviy texnologiya va jihozlar bilan ta'minlash ishlariga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu maqsadda, Tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo va investitsiyalar vazirligi o'tgan yillar davomida AQSH, Angliya, Germaniya, Frantsiya va Yaponiya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning Markaziy Osiyodagi elchixonalari, iqtisodiy va tijorat vakolatxonalari mas'ul xodimlari bilan yaqindan hamkorlik aloqalarini davom ettirmoqda.

Jumladan, AQSHning O'zbekistondagi elchixonasi mutasaddi xodimlari bilan bo'lib o'tgan qator uchrashuvlarda Amerika tomoni O'zbekiston Respublikasining afg'on xalqiga ko'rsatilayotgan insonparvarlik yordam tadbirlarini to'la - to'kis qo'llab - quvvatlayotganini inobatga olgan holda, mamlakatimiz bojxona tizimini takomillashtirishga oid texnikaviy hamkorlik loyihasi doirasida moliyaviy yordam berishga

tayyor ekanligini ma'lum qildi. Shu kunga qadar, ushbu loyiha doirasida, Davlat bojxona qo'mitasiga AQSH elchixonasi va BMT huzuridagi giyohvand moddalar va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy boshqarmasi orqali bojxona tizimi uchun nihoyatda kerakli zamonaviy texnik jihozlar, shu jumladan, ma'lumot uzatuvchi tizimlar taqdim etildi.

Keyingi vaqtlarda Davlat bojxona qo'mitasining Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorligi alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'tgan davr mobqynida Toshkentda Osiyo taraqqiyot banki homiyligida, mazkur xalqaro tashkilot huzurida tuzilgan bojxona hamkorligi qo'mitasining bir nechta uchrashuvlari bo'lib o'tdi.

Anjuman qatnashchilari, ish rejasiga binoan, anjuman o'tkazish davomida ishchi guruhlariga bo'linib, bojxona hujjat va rasmiyatchiliklarni muvofiqlashtirish va soddalashtirish, mintaqaviy chegaradan o'tish joylarida mushtarak tadbirlar o'tqazish, tranzit rivojlanishi, sharqiy va Markaziy Osiyo mintaqaviy hamkorligining strategik harakat va rejalari, bojxona xizmatida ma'lumot va kommunikatsion texnologiyalar, hamda milliy intellektual tizimlar mavzulariga oid Osiyo taraqqiyot banki tomonidan tayyorlangan hujjatlarni atroflicha muhokama etdilar. Ishtirokchi mamlakatlar delegatsiya a'zolari va ekspertlar yuqorida qayd etilgan muammolar yuzasidan, o'z mamlakatlaridagi bojxona tizimi ahvolidan kelib chiqqan holda, shaxsiy fikr va mulohazalarini bildirib, har bir muhokama etilgan masala bo'yicha qator amaliy takliflar kiritdilar. Shuningdek, 2-uchrashuv ishtirokchilari yangi tahrirdagi umumiy harakatlar dasturi, hamda yaqin kelajakda amalga oshirish uchun taklif etilgan ish rejalarni muhokama qildilar va ularni yakdillik bilan ma'qulladilar.

Bugungi kunda, Davlat bojxona qo'mitasi Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda chegara bojxona maskanlarini bojxona nazorati o'tkazilishiga oid zamonaviy texnik jihozlari bilan ta'minlash masalalari yuzasidan samarali muzokaralar olib bormoqda. Osiyo taraqqiyot banki esa, mazkur loyihani amalga oshirishda moliyaviy yordam ko'rsatish imkoniyatlarini o'rganmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining dasturiga muvofiq o'tgan yilning 9 noyabr kuni Termiz shahrida «Termiz-Hayraton» ko'prigi orqali harakat, hamda «Ayrinom» xalqaro o'tkazish punkti bojxona kompleksi yangi binosining rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy mamlakat elchixonalari elchi va yuqori diplomatik lavozimdagi xodimlari,

nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari, xorijiy va mahalliy ommaviy axborot vakillari, Afg'oniston savdo vaziri boshchiligidagi rasmiy delegatsiya a'zolari, hamda O'zbekiston Respublikasi vazirlik va idoralarining vakillari ishtirok etdilar.

Anjumanda, uning qatnashchilari tomonidan «Termiz-Hayraton» ko'prigi O'zbekiston Respublikasi va Afg'onistonni bir biri bilan bog'lab turuvchi asosiy transport arteriyasi hisoblanishi, toliblar rejimi ag'darilgandan so'ng Afg'onistonga jahon jamoatchiligi, jumladan g'arb va Evropa mamlakatlari tomonidan ko'rsatilayotgan xalqaro insonparvarlik yuklarini o'tkazishda mazkur ko'prikning xalqaro ahamiyati, uning giyohvand moddalar tarqalishiga qarshi umumiy kurashdagi o'rni, hamda ko'pri faoliyati bilan bog'liq boshqa jabhalar haqidagi batafsil fikrlar bildirildi. Undan tashqari, ko'pri faoliyatini qayta tiklashda faol ishtirok etgan xorijiy homiylar, jumladan AQSH, Germaniya, Angliya va boshqa qator davlatlarning O'zbekistondagi elchixonalarining yaqindan ko'rsatgan moddiy va ma'naviy yordamlari alohida ta'kidlandi.

AQSH, Angliya va Germaniya davlatlarining elchixonalari vakillari bilan bo'lgan suhbatda Angliyaning O'zbekistondagi muvaqqat ishlar vakili Richard Adam janoblari «Termiz-Hayraton» ko'prigining ochilishi Evropa davlatlarining ham manfaatiga mos deb ta'kidladi.

Respublikamiz bojxona xizmati taraqqiyoti yo'lida AQSHning Toshkentdagi elchixonasi bilan hamkorlik samarali rivojlanmoqda. AQSH elchixonasi bojxona tizimimizga o'quv tadbirlari o'tkazish, missiyalarni tashkil etish, turli bojxona jihozlarini beg'araz taqdim etish orqali yordam ko'rsatib kelmoqda. O'zaro imzolangan shartnomalar doirasida, AQSH tomoni kelajakda ham maxsus bojxona moslamalarini beg'araz etkazib berish tarzida texnik yordam ko'rsatish va Respublika bojxona xizmati xodimlari uchun o'quv tadbirlari o'tkazish ishlarini rejalashtirgan.

AQSH elchixonasining mutasaddi vakillari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda, ular EXVS dasturining 3-bosqichi doirasida, O'zbekiston tomoniga UAZ-3153 rusumli avtomobillar, texnik jihozlar va o'quv tadbirlari o'tkazish uchun tegishli mablag' ajratilishini ma'lum qildilar. Amerika Qo'shma Shtatlari elchixonasi hamda BMT huzuridagi giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy vakolatxonasi mutasaddi xodimlari Toshkent Shahrida yangi tashkil etilgan Oliy harbiy bojxona institutini zamonaviy o'quv jihozlari va adabiyotlari bilan ta'minlash masalasini o'rganish maqsadida ushbu oliy o'quv yurtiga bir necha bor tashrif buyurdilar.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik rishtalarini o'rnatish tashqi aloqalar departamenti faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois o'tgan yil davomida, Evropa hamjamiyati va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar homiyligida, «Markaziy Osiyoning chegara o'tish yo'llari» (Olma-ota), «Giyohvand moddalar g'ayriqonuniy tijoratining milliy va xalqaro asoratlari» (Toshkent) «Markaziy Osiyoda prekursorlar nazorati» (Olma-ota), «Kontrabandaga qarshi kurash» (Yaponiya), «Ikki maqsadda foydalaniladigan jihozlar identifikatsiyasi» (Toshkent), «Ommaviy qirg'in qurollari bo'yicha xalqaro surishtiruv ishlari» (Toshkent), «Kioto Konventsiyasi», Arush Deklaratsiyasi va boshqa bojxona ishiga oid xalqaro hujjatlar talablari» (Toshkent), «TASIS» dasturidan texnik yordam oluvchi mamlakatlar (Toshkent), Evropa Ittifoqining 2002-2006 yillariga mo'ljallangan strategik rejalari (Toshkent), KOIKA xalqaro tashkiloti tomonidan uyushtirilgan anjuman (Seul), «Terrorizmga qarshi kurashda o'zaro yordam» (AQSH), «Yadroviy qurollar bilan bog'liq mahsulotlar identifikatsiyasi» (Toshkent), «Biologik qurollar tarqalishining oldini olish» (Olma-ota) mavzularida yuqori malakali xorijiy ekspertlar ishtirokida 20 dan ziyod ilmiy, nazariy va amaliy o'quv Mashg'ulotlari va seminarlar o'tkazilib, unda Davlat bojxona qo'mitasining 200 ga yaqin xodimlari faol qatnashdilar.

Undan tashqari, Yaponiyada «Yangi mustaqil davlatlar uchun eksport nazorati» dasturi doirasida va Vengriya Respublikasining Budapesht shahridagi xalqaro huquq akademiyasida O'zbekiston bojxona tizimining qator mutaxassislari maxsus dastur asosida tahsil oldilar. Ularning o'qishlari bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar tadbir tashkilotchilari tomonidan qoplanadi.

1.2. Bojxona hamkorligi tashkilotlarining tashkil etilish tarixi

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatib kelayotgan xalqaro tashkilot va jamg'armalar bilan bojxona ishi sohasidagi aloqalarni yanada rivojlantirish maqsadida Davlat bojxona qo'mitasida 12 ta xalqaro tashkilot va O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan 7 ta xorijiy davlat elchixona va vakolatxonalari vakillari ishtirokida «Davra suhbatlari» o'tkazilib, unda xalqaro hamjamiyat bilan amalga oshirilayotgan hamkorlik ishlarini takomillashtirish va texnik yordam ko'rsatish masalalari yuzasidan fikr almashildi. Uchrashuv yakunlari haqidagi ma'lumotlar mahalliy ommaviy axborot vositalarida yoritib borildi.

«Evropeyd» loyihasi (Belgiya), SADAR dasturi, «kraun» va «HAZ-X» (AQSH) kompaniyalari, «XAYMAN» (Germaniya) Shirkati, «Ekspert nazorati va chegaralar xavfsizligi» dasturi (AQSH), Amerika qo'shma shtatlari xalqaro taraqqiyot agentligi, TRASEKA dasturi, BMTning Markaziy Osiyodagi giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurash vakolatxonasi, Osiyo taraqqiyot va rivojlantirish banki, YUNKTAD savdoni rivojlantirish xalqaro tashkiloti, Yadroviy qurollar nazorati bo'yicha Viskonsin loyihasi, Yadro xavfining oldini olish agentligi, Livermol milliy laboratoriyasi va boshqa qator xalqaro tashkilot va xorijiy davlatlar bojxona ma'muriyatlarining rahbar, vakil va ekspertlari bilan Davlat bojxona qo'mitasida olib borilgan muzokaralar davomida samarali bojxona idoralarini zamonaviylashtirish va rivojlantirish, giyohvand moddalarning g'ayriqonuniy tarqalishiga qarshi kurash, mazkur xalqaro tashkilotlar bilan olib borilayotgan o'zaro aloqalarning ahvoli va kelajakdagi hamkorlik rejalari, O'zbekiston bojxona tizimiga texnik yordam ko'rsatish, zamonaviy texnik jihozlar taqdim etish hamda bojxona ishiga oid boshqa qator dolzarb masalalar atroflicha muhokama etildi.

Turli davlat bojxona xizmatlari rahbarlarining o'zaro uchrashib turishlari ikki tomonlama aloqalarning yanada takomillashishiga alohida hissa qo'shadi. Xitoy Halq Respublikasi bosh bojxona ma'muriyati rahbarining har ikki davlat o'rtasida bojxona sohasidagi aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirish maqsadida o'tgan yili O'zbekistonga tashrif buyurishi hamda ikki tomonlama olib borilgan muzokaralar natijasida, kelajakdagi o'zaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini o'zida aks ettirgan uchrashuv Bayonnomasi imzolandi. Shuningdek, Toshkentda Koreya va O'zbekiston bojxona xizmati rahbarlarining navbatdagi 3-uchrashuvi ham bo'lib o'tdi, unda uchrashuv bayonnomasi imzolanib, kelgusida mavjud aloqalarni yanada kengaytirish haqida kelishib olindi.

Davlat bojxona qo'mitasi tashqi aloqalar departamenti faoliyatida Mustaqil davlatlar hamkorligiga a'zo mamlakatlar bojxona xizmatlari bilan ishchi aloqalarini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois mazkur davlatlar bojxona xizmatlari bilan muntazam ravishda yozishma, muloqot va uchrashuvlar amalga oshirilib kelmoqda. O'zaro kelishilgan reja asosida o'tkaziladigan Rossiya – O'zbekiston, O'zbekiston - Qozog'iston, O'zbekiston - Qirg'iston hukumatlararo komissiyalar majlislariga oid tegishli ma'lumot va hujjatlar o'z vaqtida tayyorlanib, mazkur anjumanlarda O'zbekiston bojxona xizmati delegatsiyalarining faol ishtirok etishlari ta'minlanmoqda.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasining Moskva shahrida bo'lib o'tgan Mustaqil davlatlar hamkorligi mamlakatlari bojxona xizmatlari rahbarlarining navbatdagi anjumanlarida Davlat bojxona qo'mitasi vakillari faol qatnashib, bojxona tizimini takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha o'zaro tajriba almashdilar. Shuningdek, O'zbekiston bojxona tizimining qator namoyandalari o'tgan yili Moskva shahrida Rossiya va MDH mamlakatlarida issiqlik va yadro energetikasi komplekslari faoliyatiga bag'ishlangan rahbar va mutaxassis xodimlar uchun mo'ljallangan maxsus ixtisoslashtirilgan o'quv Mashg'ulotlarida qatnashdilar. Undan tashqarii DBQ vakillari O'zbekiston hududlariga olib kelinayotgan engil avtomobillar kirib kelishining qonuniy asoslarini o'rganish maqsadida Rossiyaning Astraxan, Saratov va Samara hamda Rossiya Federatsiyasi Davlat bojxona qo'mitasining eksport va import kontraktlarini qayd qilish jarayonini nazorat etishda tajriba almashish uchun Moskva shaharlarida bo'ldilar.

O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi qo'shma hukumatlararo komissiyasi majlisi qaroriga muvofiq, Qozog'iston Respublikasining «Jibek Jolo'» va Toshkent viloyati bojxona boshqarmasiga qarashli «G'isht-Ko'pri» bojxona maskanida O'zbekiston va qozog'iston Respublikalarining chegara va bojxona xizmatlari vakillarining navbatdagi ishchi uchrashuvi o'tkazilib, unda chegaradosh bojxona maskanlaridagi muammolar, jumladan, O'zbekiston-Qozog'iston chegaralarida o'tkazish punktlarini aniqlash masalalari, hamda chegaralardan kontrabanda yo'li bilan mahsulot olib o'tilishiga qarshi kurash chora-tadbirlari atroflicha muhokama etildi.

Davlat Bojxona Qo'mitasi vakillari Qirg'iziston Respublikasining O'sh shahrida Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkilotining navbatdagi 2-Markaziy Osiyo iqtisodiy anjumanida ishtirok etdilar, bir guruh Davlat bojxona mutaxassislari esa Ukraina Respublikasi va Rossiya Federatsiyasining bojxona o'quv yurtlari faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida Moskva va Dnepropetrovsk shaharlarida bo'lib qaytdilar. Ular olib kelgan ma'lumotlar Toshkent Oliy harbiy bojxona institutining faoliyatini yo'lga qo'yishda qo'l kelmoqda.

Tashqi aloqalar departamentining asosiy e'tibori, O'zbekiston bojxonalarining chet ellar bojxona tajribalaridan ko'proq xabardor bo'lishlariga, egallagan tajribalarini amalda qo'llashlariga, o'zaro muntazam ravishda ma'lumot almashib turishlariga, bir so'z bilan aytganda, xorijiy mamlakatlar bojxona tizimlari va xalqaro tashkilotlar

bilan aloqalarni yanada mustahkamlashning samarali imkoniyatini yaratishga qaratilishi lozim.

Erkin savdo bojxona Ittifoqi bo'yicha kelishuv jahon hamjamiyati mamlakatlarida keng tarqaldi. Raqobatbardoshlikni kuchayishi sharoitida jahon iqtisodiy sistemasi iqtisodiy mavqeini mustahkamlash maqsadida boshqa chet-el mamlakatlar bilan shartnoma tuzadilar.

Mamlakatlar, ular o'rtasida tovarlar, erkin kapital va xizmatlarni erkin harakatlanishi uchun o'zaro kelishuvlar imzolaydilar. Bunday kelishuvlarning ko'pchiligi xalqaro va mamlakatlar o'rtasida xududiy xarakter kasb etadi. Bularga Evropa Ittifoqi (EI), Butun Jahon Savdo Tashkiloti (BJST), Butun Jahon Bojxona Ittifoqi (BJBT), Evropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasi (BJSA), Erkin Savdo bo'yicha Shimoliy Amerika Kelishuvi (ESBSHAK), Shimoli-Sharqiy Osiyo Mamlakatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN), Erkin Savdo bo'yicha Markaziy Evropa Mamlakatlari Assotsiatsiyasi, Shimoli-Sharqiy Afrika Mamlakatlari Umumiy Bozori (KOTESA) va MDX mamlakatlari bojxona hamkorligi tashkilotini olish mumkin.

Evropa va shimoliy Amerika kelishuvi doirasida jahon savdosini 40% foizi amalga oshiriladi. Evropa ulushiga jahondagi savdo operatsiyalarini yarmi to'g'ri keladi, Amerika zimmasiga jahon savdo operatsiyalarini 1/6 qismi to'g'ri keladi. Shunday qilib umumiy tashqi savdo operatsiyalarining 2-3 qismi savdo kelishuvlariga a'zo mamlakatlar tomonidan amalga oshirilgan.

O'zini rivojlanish yo'lida integratsiya bir necha miqdoriy va sifat bosqichlaridan o'tdi.

- 1.Ochiq savdo xududi (OSX)
- 2.Bojxonalar Ittifoqi (BI)
- 3.Umumiy bozor (UB)
- 4.Iqtisodiy va valyuta Ittifoqi (IVI)

Ochiq savdo xududi iqtisodiy birlashuvni eng sodda shakli bo'lib, unda qatnashuvchi tomonlar uzoro tovar savdosining iqtisodiy tutsiklarini olib tashlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradilar, lekin bir vaqtning uzida qatnashuvchi tomonlar o'zining uchinchi mamlakatlarga nisbatan iqtisodiy siyosatlarini olib bordi. Boshqacha qilib aytganda Ochiq savdo xududlarini o'ziga xosligi bo'lib:

- tovarlar savdosini bojxona va miqdoriy chegaralashlardan ozodligi;
- bosqichma - bosqich uzoro bojxona talablari va notarif usullarini bekor qilish;
- bir tomonlama notarif tutsiklari va bojxona bojlarini kiritmaslik.

Bu esa «erkin savdo» xududiga kirayotgan davlatlarni xalqaro tashqi iqtisodiy faoliyat savdo amaliyotida tez moslashishga olib keladi.

Ochiq savdo xududlarini faoliyatini boshqarish mahalliy davlat boshqaruvi aralashuvisiz amalga oshiriladi.

Barcha qabul qilinayotgan qarorlar ochiq savdo xududi kelishuviga a'zo mamlakatlarning oliy mansabdor shaxslari yoki iqtisodiy masalalar bo'yicha vazirlik va idoralar raxbarlari tomonidan siyosiy yullar bilan hal qilinadi. Bu qabul qilingan qarorlar ushbu bosqichda tashqi iqtisodiy faoliyat Ittifoqchilari tomonidan bajarilishi majbur bo'lgan qarorlar hisoblanadi.

Erkin savdo xududlari tashkil etish salbiy xarakter kasb etish mumkin. Bu esa ba'zi bir milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni ayrim chet-el tovar ishlab chiqaruvchilarining sifatli tovarlari oldida inkirozga uchrash xavfini tugdiradi va ayrim xollarda bu maqsadlariga xam etadilar.

Natijada importyorlar milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni uz bozoridan sikib chiqaradilar. Shuning uchun xam milliy tovar ishlab chiqaruvchilarga davlat yordami zarur bo'ladi.

Erkin savdo xududlarini xammasini qamrab olgan xudud bo'lib, 1994 1-yanvarda kuchga kirgan shimoliy Amerika erkin savdo bo'yicha kelishuvi hisoblanadi. Bu kelishuv AQSH, Meksika va Kanada mamlakatlari xukumatlari tomonidan imzolangan.

Bu Ochiq savdo xududi doirasida yagona tashqi savdo tarifi amal kiladi va yana bu kelishuvni yaxshi tomoni shimoliy Amerika erkin savdo kelishuviga a'zo mamlaktlar xududida savdo tarifi umuman yukligi bilan ajralib turadi.

Bu kelishuvning o'ziga xos tomoni yana shundaki bunda investitsiyalar xam "Savdo to'g'risidagi kelishuv" ning bir qismi hisoblanadi.

Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvining boshqa qoidalarini soddalashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni savdo-bojxona orqali tartibga solishda asosiy xalqaro tashkilot, bu tovarlarni harakatiga kelib chiqishni tasdiklovchi yagona jarayonini hisoblaydi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyani keyingi bosqichi bu-Bojxona Ittifoqi hisoblanadi.

Bojxona Ittifoqi uz navbatida Ittifoqka a'zo mamlakatlar orasida bojxona bojlarini bekor qilish, tashqi bojxona ta'rifini kiritish va Ittifoqka a'zo bulmagan uchinchi mamlakatlarga yagona tashqi savdo siyosatini olib borish bilan shugullanadi va buni amalga oshirish ustidan nazorat olib boradi.

Shunday qilib, “Bojxona Ittifoqi”ga a’zo mamlakatlar uchinchi mamlakatlarga nisbat savdo siyosatini olib borishni Ittifoq boshqaruvi organiga saylangan a’zolar belgilaydilar.

Masalan, 1967 yil shimoliy-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi bojxona Ittifoqi yoki erkin savdo xududi ko’rinishida tashkil etilgan.

Bu Ittifoq doirasida a’zo mamlakatlar yaqindagina iqtisodiy hamkorlikni rasmiy chuqurlashtirish va iqtisodiy integratsiya to’g’risida chuqur uylamokdalar.

1992 yil ASEAN ga a’zo mamlakatlar ochiq savdo xududi tashkil etish bo’yicha 15 yilga, 1995 yilga kelib esa bu ochiq savdo xududini muddati 10 yilga qisqartirildi.

ASEAN ga a’zo mamlakatlarda tarif tovar qayta ishlanganlik darajasi atrofida belgilangan bo’lib ular 15 ta tovar kategoriyalari uchun tarif stavkalarini kamaytirish mo’ljallangandi. Tovarlarni kelib chiqish qoidasiga asosan tovarlar ASEAN da ishlab chiqarilgan bo’lishi uchun tovarning kamida 40% qismi unga a’zo mamlakatlarda ishlab chiqarilgan bo’lishi kerak.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyani yuqori darajasi bo’lib yagona yoki umumiy bozor hisoblanadi, chunki bu sistemada kapital va mexnatning erkin harakati ta’minlanadi. Bojxona to’lovlarini qisqartirish, yagona tashqi savdo bojxona tarifni yaratish. Bojxona Ittifoqiga a’zo mamlakatlar uz faoliyatlari davrida yagona yoki umumiy bozor yaratish uchun shart-sharoit yaratadilar.

Buning uchun: yaratilgan mexanizm va instrumentlardan tashqari a’zo mamlakatlarni iqtisodiyotini ayrim tarmoqlarini rivojlantirish umumiy siyosatini ishlab chiqish, kapitallarni erkin harakatiga, ishchi kuchi erkin harakatiga, xizmatlar va axborotlarning erkin harakatiga tovarlarni xar qanday to’siqlarsiz harakatiga sharoit yaratish; sotsial va xududiy rivojlanishda umumiy fondlarni shakllantirish, bu xaridorlar va yashovchi axolini itegratsion protsessni ustunligini real xis etilishlariga olib keladi.

Asosiy o’rin raqobatni tartibga soluvchi qonunlarni buzulishiga yo’l qo’ymaslikka ajratiladi.

Qisqacha xulosa

O’zbekiston Respublikasini JBT doirasidagi hamkorligi respublikamiz bojxona xizmati faoliyatini huquqiy bazasini bojxona ishi sohasidagi xalqaro konventsiyalar va boshqa xalqaro me’yorlarga yaqinlashtirish imkoniyatini berdi. Xususan, Kioto konventsiyasini standartlari va tavsiyalarini amaliyotda qo’llanilishi O’zbekiston

Respublikasining tashqi savdo faoliyatini engillashtirish, bojxona muammolarini echish va milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirish kabi masalalarni echishga erishgan holda, BSTning talablariga javob berishni ta'minlaydi. Xalqaro savdo jarayonlarini engillashtirish quyidagi choralar bilan amalga oshirilishini: notarif to'siqlarni bartaraf etish; xalqaro savdo operatsiyalarini engillashtirish bilan birga tashqi savdo samaradorligini oshirilishini; moddiy harajatlar va vaqt sarfini kamayishini; tashqi iqtisodiy faoliyatning bojxona boshqaruviga ketadigan harajatlarni pasayishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining loyihasini tayyorlash chog'ida BBT tomonidan tayyorlangan ko'pgina me'yoriy tavsiyalar va huquqiy hujjatlar e'tiborga olindi.

Nazorat savollari:

1. Bojxona hamkorligi deganda nimani tushunasiz?
2. Iqtisodiy integratsiya nima?
3. Iqtisodiy integratsiyaning qanday bosqichlari mavjud?
4. Xalqaro iqtisodiy birlashmalar bilan xududiy iqtisodiy birlashmalar o'rtasida qanday fark mavjud?
5. Ochiq savdo xududi nima?
6. Bojxona Ittifoqim deganda nima tushinasiz?
7. Yagona yoki umumiy bozor deganda nimani tushunasiz?
8. Iqtisodiy yoki valyuta Ittifoqi nima?
9. Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi (ASEAN) nechanchi yilda imzolanib nechanchi yilda kuchga kirgan.
10. Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvini qaysi mamlakatlar imzolagan?

Asosiy adabiyotlar

1. Бобохўжаев Ғ. «Божхона органлари фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2010. –230 бет.
2. Кучаров А., Тиллахўжаев Б. «Божхона таомиллари». Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ. 2009. –211 бет.
3. Кучаров А., Тоиров Ш. «Божхона иши». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2009. –232 бет.
4. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.
5. Коник Н.В. Таможенное дело: Учеб. пособ. – М.: «Омега-Л», 2008. – 192 с. 2 экз

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Шомагдиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятида товар номенклатураси. Дарслик. Т:- ТДИУ. 2010. –196 бет.
2. Алиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятни давлат томонидан тартибга солиш. Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ, 2008. - 192 бет.
3. Драганов В.Г. Основы таможенного дела. Учебное пособие. – М.: 1998. 346-стр.
4. Шомагдиев А., Кучаров А., Неъматов И. Халқаро транспорт ташувлари.. Ўқув қўлланма. Т:- ТДИУ, 2010. –185бет
5. Свинухов В.Г. Таможенное дело. Учебник. М.: Экономист. 2008. – 298 стр.
6. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.
7. «Инкотермс»: Международные правила толкования торговых терминов. – М.: «Омега-Л», 2009. – 76 с.
8. Трошкина Т.Н. Таможенные платежи: Учебно–прак. пособ. М.: “Городец”», 2007. – 128 с. 2 экз
9. Удовенко С.П. Таможенный тариф современной России (1993-2005 гг.). – СПб.: ООО «Архей», 2006. – 402 с.

Internet saytlari

1. <http://www.asstra.ru/downloads/kvt.txt>
2. <http://www.abkhazeti.ru/pub/energyprojects>
3. <http://www.mcads.ru/default.asp>

II-bob: Evropa Ittifoqi va uning tashkil etilishining asosiy sabablari

2.1. Evropa Ittifoqi – iqtisodiy integratsiyaning bir ko'rinishi sifatida

Hozirgi kunda xalqaro sistemada iqtisodiy integratsiyaning uchta bosqichini o'ziga mujassam etgan faqatgina bitta sistema mavjud, u ham bo'lsa Evropa Ittifoqidir. Evropa Ittifoqini tashkil etilishining tarixi 1951-yilda Parij shartnomasining yani ko'mir va po'lat bo'yicha Evropa birlashmasi tashkil etish bilan boshlangan. Evropa birlashmasiga birinchi bo'lib 6 ta Evropa mamlakatlari kirgan, bular: GFR, Frantsiya, Italiya va Benelyuks mamlakatlari (Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg) kirgan. Evropa birlashmasi to'g'risidagi shartnoma 1953-yildan boshlab kuchga kirgan va o'z faoliyatini boshlagan.

1957 yilda oltita Evropa mamlakatlari tomonidan Rim shartnomasini imzolanishi bo'xona Ittifoqi va umumiy siyosatga asoslangan holda Evropa iqtisodiy hamjamiyatini tashkil etishini ma'lum qildi.

Keyingi 1973 yildan to 1995 yilgacha shartnoma imzolagan oltita Evropa mamlakatlariga yana to'qqizta Evropa mamlakatlari kelib qo'shildilar (1973 yilda – Daniya, Irlandiya va Buyukbritaniya mamlakatlari, 1981 yilda – Ispaniya va Portugaliya mamlakatlari, 1995 yilda – Avstriya, Finlandiya va Shvetsiya mamlakatlari).

Hozirgi vaqtda Evropa Ittifoqiga 28 ta mamlakat kirib ularning axolisini umumiy soni 500 million odam tashkil etadi.

Evropa Ittifoqini tashkil etish tashkilotchilarini fikri bo'yicha «To'rt erkinlik kengligini» tashkil etilishini: tovarlar harakati, kapital harakati, xizmatlar harakati va ishchi kuchilarini erkin va to'siqlarsiz harakati ma'lum qilardi. Evropa Ittifoqini tashkil etish natijasida milliy tashqi savdo to'siqlariga barham berildi (Bo'xona tarifi, kvotalar) va yagona tarif va kvota o'rnatish bo'yicha, tashqi savdoni tartibga solish qonun qoidalarini bir xillashtirish bo'yicha faol ish olib boradilar.

Togo mamlakatining Lomey shaxrida imzolangan Lomey konventsiyasi Evropa Ittifoqi va Afrikaning ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlari, Karib dengizi va Tinch okeani xavzasi mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy sistemani tashkil etdi. Bular Evropa Ittifoqi va 68 ta rivojlanayotgan mamlakatlar orasida tashqi savdo sohasida ularning birlashuvini nazarda to'tgan edi. Evropa Ittifoqining bu mamlakatlarga

nisbatan olib borayotgan iqtisodiy siyosati ikki tomon manfaatlarini ko'zlar edi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni savdo tarif orqali tartibga soluvchi asosiy xalqaro tashkilot bu mamlakatlarda agrar va tog' - kon sanoati sohalari iqtisodi va shunga o'xshash ayrim sanoat ishlab chiqarishni nopok sohalarini rivojlantirishga ko'maklashish hisoblanadi.

Bu konventsiyalar rivojlanayotgan mamlakatlarni Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar oldida chuqur ko'p qirrali bog'liqligini anglatadi, chunki Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar mineral xom-ashyoga juda ham muxtoj, shunday bo'lsa ham ularni rivojlanayotgan mamlakatlar oldida iqtisodiy va siyosiy jihatdan ustun ekanligini anglatadi.

1985 yilda qabul qilinib 1987 yilda kuchga kirgan Evropa akti kelgusida yagona ichki bozorni yakunlashi shart edi. Tovarlar harakati, kapitallar harakati, xizmatlar harakati va ishchi kuchi harakatlarini erkin va to'siqlarsiz harakatlanishini oldida turgan to'siqlarni olib tashlash rivojlantirilgan iqtisodiy va valyuta Ittifoqlarini tuzish bo'yicha harakatlar boshlangan edi.

1992 yil oxirlarida tuzilgan Evropa ichki bozori uzil kesil tovarlar, kapitallar, xizmatlar va ishchi kuchi harakatlarini erkin va to'siqlarsiz harakatlanishi va iqtisodiy to'siqlarni bekor qildi, ya'ni "to'rt erkinlik kengligini" milliy xo'jalik qonunini soddalashtirish uchun Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar agrar, valyuta, moliya va strukturaviy siyosatni ma'lum bosqichlarini bosib o'tgan mamlakatlarga yangi yo'l ochib berdi.

Evropa integratsion jarayonini rivojlantirishni yana bir muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib 1991 yil dekabrda imzolangan Maastrixt shartnomasi bo'ldi. Maastrixt shartnomasini imzolanishi bilan: yagona Evropa fuqaroligini (Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar fuqarolari Evropa Ittifoqi fuqaroligini oldilar); siyosiy Ittifoq (umumiy tashqi siyosat, Evropa parlamentini urnini ko'tarish, qonunchilik va ichki ishlar doirasida umumiy siyosat yurgizish); iqtisodiy va valyuta Ittifoqi tuzishga erishildi.

2.2. Maastrixt Shartnomasining mohiyati va maqsadi

1993 yil 1 noyabrdan Maastrixt shartnomasini kuchga kirishi bilan birlashmaning nomi "Evropa Ittifoqi" deb atala boshlandi. (shu davrgacha "Evropa hamjamiyati", 1967 yilda uchta Ittifoqni birlashishi natijasida, ya'ni ko'mir va po'lat bo'yicha Evropa birlashmasi, Evropa iqtisodiy hamjamiyati va atom energiyasi bo'yicha Evropa hamjamiyati)

Shunday qilib G'arbiy Evropada tashqi iqtisodiy faoliyatni kelishilgan bir xil printsiplar asosida amalga oshirish va Ittifoq xududi umumiy xo'jalik yurtuvchi yagona iqtisodiy xudud tashkil etildi.

Evropa Ittifoqida iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish va chuqurlashtirish, dastlabki ko'rinishidan (Ochiq savdo xududi, bojxona Ittifoqi, umumiy bozor), yuqori ko'rinishga o'tish (iqtisodiy va valyuta Ittifoqi) va unga a'zo mamlakatlar sonini oshirish bu ularning asosiy vazifasi hisoblanadi. 1957 yil Rim (imzolangan Evropa iqtisodiy hamjamiyatini tashkil etish) shartnomasida ko'zda tutilgan edi. Jahon xaritasidan Evropadagi sotsialistik mamlakatlar yo'qolganidan so'ng Evropa Ittifoqiga qo'shilishi mumkin bo'lgan mamlakatlar soni yana ko'paydi, ya'ni sobiq Ittifoqning boltiq bo'yi mamlakatlari va Evropaning boshqa sotsialistik respublikalari qo'shilishi mumkin bo'ldi. Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning 1997 yil dekabrda Lyuksemburgda bo'lib o'tgan oliy darajadagi uchrashuvda 1999 yildan Evropa Ittifoqi tarkibiga beshta mamlakatlarni qo'shish maqullandi. Bular Vengriya, Kipr (Gretsiya qismi), Polsha, Chexiya va Sloveniya. 1991-1992 yillarda sharqiy Evropa bilan Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar o'rtasida, sharqiy Evropa mamlakatlari qonunlarini Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar qonunlari bilan yaqinlashtirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish davlatlar o'rtasida 10 yil ichida bojxona bojlarini bekor qilish yo'li bilan ochiq savdo xududlari, ochiq sanoat ishlab chiqarish xududlari tashkil etish va tashqi savdodagi boshqa to'siqlarni bekor qilish bo'yicha kelishuv imzolandi. Ko'pkina sanoat mahsulotlariga Evropa Ittifoqi 1995 yil sharqiy Evropa mamlakatlari uchun bojxona bojlarini bekor qildi. 1990 yillarning ikkinchi yarmiga kelib Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlar sharqiy Evropa mamlakatlari ichki bozorlariga iqtisodiy siyosat choralarga tortilmasdan erkin kirib kela boshladi.

Mamlakatlar Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lishlari uchun bir qator shartlarni bajarishlariga to'g'ri keladi:

- demokratik institutlarni meyoriy ishlashini ta'minlash;
- xuquqiy tartib;
- inson xuquqlariga rioya qilish va milliy kamchilikni himoya qilish;
- bozor iqtisodiyoti jarayoni mavjudligi;
- a'zolik majburiyatlarini qabul qilish;
- siyosiy, iqtisodiy va valyuta Ittifoqi.

1973 yildan boshlab Evropa Ittifoqi uchinchi mamlakatlar bilan bevosita shartnoma imzolay boshladi. Hozirgi kunda Evropa Ittifoqi 30 dan ortiq ko'p tomonlama savdo, siyosiy sharinomalarda qatnashgan.

2.3. Mastrixt Shatrnomasining jahon iqtisodiy maydonidagi o'рни va asosiy vazifasi

Rossiya Federatsiyasi o'zining ichki bozorini himoya qilishda proteksionistik choralarni meyoriy ravishda qo'lladi. Bundan tashqari Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan dempingga qarshi choralar bir tomonlama qo'llanilmaydigan bo'ldi. Kapitallarning to'g'ri investitsiyalari ko'rinishida harakatlanishi to'g'risidagi tartibi kelishib olindi. Rossiya Federatsiyasi bilan Evropa Ittifoqi o'rtasidagi aloqalar o'sish xarakterini kasb etdi. Rossiya Federatsiyasining tashqi savdo aylanmasining 50% Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar zimmasiga to'g'ri keladi. 1994 yil 24 iyunda Gretsiyaning Korfu orolida Rossiya Federatsiyasi va Evropa Ittifoqi o'rtasida hamkorlik va sheriklik to'g'risidagi kelishuv imzolandi. Bu kelishuv esa Rossiya Federatsiyasi va Evropa Ittifoqi o'rtasidagi ilgari qabul qilingan SSSR va Evropa Ittifoqi o'rtasidagi (1988 yil), SSSR va atom energiyasi bo'yicha Evropa hamjamiyati o'rtasidagi (1990 yil), savdo - tijorat va iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi kelishuvlar (1989 yil) yana ham chuqurlashishiga sabab bo'ldi.

Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar Rossiya Federatsiyasi bilan iqtisodiyotni barcha sohalari bo'yicha hamkorlik qila boshladilar.

1998 yildan keyin Evropa Ittifoqi Rossiya Federatsiyasi bilan ittifoqdoshlar kompaniya va korporatsiyalari mamlakatlarda erkin harakatini qamrab olgan va transchegara bo'yi xizmatlar savdosi va kapital harakatini ko'zda tutuvchi erkin savdo hududi tashkil etishni rejalashtirilgan edi. Bu kelishuvlarning asosiy maqsadi bo'lib iqtisodiy va boshqa turdagi kelishuvlarda ikkala tomonning foydasini ko'zda tutuvchi va ikkala tomon bir-birlariga nisbatan javobgarlikni xis qiluvchi va bir-birlarini qo'llab - quvvatlash hisoblanar edi.

Kelishuvga asosan Rossiya Federatsiyasi iqtisodiy o'tish davridagi mamlakat hisoblanar edi. Shundan kelib chiqqan holda Rossiya Federatsiyasi davlat „savdo sistemasi“ deb nomlangan tushunchadan Evropa Ittifoqi voz kechdi, bu esa Rossiya Federatsiyasiga nisbatan Evropa Ittifoqi mamlakatlari qattiq tashqi savdo diskriminatsion choralar qo'llanilishini bildirardi, bu Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan tovarlarni Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakat ichki bozorlariga kirib borishini kamaytirar edi.

O'tish davrining muddati 5-yilga mo'ljallangan edi, lekin shartnoma kuchga kirishi bilan Rossiya Federatsiyasiga nisbatan Evropa Ittifoqiga

a'zo mamlakatlar diskriminatsion choralarni olib tashlovchi shartnomani qabul qildilar va u kuchga kirdi.

Kelishuv asosan GATT tamoyillriga asoslanganligi uchun Rossiya Federatsiyasini bu tashkilotga a'zo bo'lishini osonlashtirardi. Birinchi marta Rossiya Federatsiyasining xalqaro shartnoma amaliyotida Rossiya GATTga a'zo bo'lmasdan turib uning ayrim asosiy moddalariga o'zgartirish kiritishga erishdi. Shunday qilib Rossiya Federatsiyasi dastlabki maslaxatlar natijasida o'zining boj tarifi imkoniyatini saqlab qoldi. Bulardan tashqari Evropa Ittifoqi Rossiya Federatsiyasidan import qilinadigan barcha tovarlarga import kvotalarini bekor qildi. (Hozirgi vaqtgacha import kvotalari 600 ta tovar pozitsiyalariga mavjud edi). Tekstil va EOUS nomenklaturasidagi tovarlar (ko'mir, po'lat va boshqalar) alohida kelishuv asosida oshiriladi. Bir-biriga nisbatan taqdim etilayotgan eng qulaylik savdo rejimini berish rejasiga GATT tomonidan belgilangan eng qulaylik savdo rejimini berish rejasiga to'lik javob beradi.

Qisqacha xulosa

Tashqi iqtisodiy faoliyatni savdo tarif orqali tartibga soluvchi asosiy xalqaro tashkilot bu mamlakatlarda agrar va tog' - kon sanoati sohalari iqtisodi va shunga o'xshash ayrim sanoat ishlab chiqarishni nopok sohalarini rivojlantirishga ko'maklashish hisoblanadi.

Bu konventsional rivojlanayotgan mamlakatlarni Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar oldida chuqur ko'p qirrali bog'liqligini anglatadi, chunki Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar mineral xom-ashyoga juda ham muxtoj, shunday bo'lsa ham ularni rivojlanayotgan mamlakatlar oldida iqtisodiy va siyosiy jihatdan ustun ekanligini anglatadi.

1985 yilda qabul qilinib 1987 yilga kuchga kirgan Evropa akti kelgusida yagona ichki bozorni yakunlashi shart edi. Tovarlar harakati, kapitallar harakati, xizmatlar harakati va ishchi kuchi harakatlarini erkin va to'siqlarsiz harakatlanishini oldida turgan to'siqlarni olib tashlash rivojlantirilgan iqtisodiy va valyuta Ittifoqlarini tuzish bo'yicha harakatlar boshlangan edi.

Nazorat savollari:

1. Evropa Ittifoqini tashkil etish bo'yicha ilk shartnoma to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Ko'mir va po'lat ishlab chiqarish bo'yicha Evropa birlashmasi nechanchi yilda imzolangan va qaysi evropa mamlakatlari a'zo bo'lgan?

3. Ko'mir va po'lat ishlab chiqarish Bo'yicha Evropa birlashmasi to'g'risidagi Shartnoma nechanchi yilda kuchga kirgan?
4. Evropa iqtisodiy hamjamiyati nechanchi yilda tashkil etilgan va qaysi mamlakatlar a'zo bo'lgan.
5. Evropa iqtisodiy hamjamiyatiga 1973 – 1995 yillarda nechta va qaysi davlatlar a'zo bo'lgan?
6. Evropa Ittifoqini tashkil etishning asosiy sabablari nimada?
7. Evropa Ittifoqini tashkil etish bo'yicha Maastrixt shartnomasi nechanchi yilda imzolangan?
8. Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lish uchun mamlakatlar qanday shartlarni bajarishi zarur?
9. Evropa Ittifoqini uchinchi mamlakatlar bilan aloqasi qaysi tamoyillar asosida tashkil etilgan?
10. Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar bilan O'zbekiston Respublikasini o'zaro aloqasi?

Asosiy adabiyotlar

1. Бобохўжаев Ғ. «Божхона органлари фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2010. –230 бет.
2. Кучаров А., Тиллахўжаев Б. «Божхона таомиллари». Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ. 2009. –211 бет.
3. Кучаров А., Тоиров Ш. «Божхона иши». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2009. –232 бет.
6. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.
7. Коник Н.В. Таможенное дело: Учеб. пособ. – М.: «Омега-Л», 2008. – 192 с. 2 экз

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Шомагдиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятида товар номенклатураси. Дарслик. Т:- ТДИУ. 2010. –196 бет.
2. Алиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятни давлат томонидан тартибга солиш. Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ, 2008. - 192 бет.
3. Драганов В.Г. Основы таможенного дела. Учебное пособие. – М.: 1998. 346-стр.
4. Шомагдиев А., Кучаров А., Неъматов И. Халқаро транспорт ташувлари.. Ўқув қўлланма. Т:- ТДИУ, 2010. –185бет
5. Свинухов В.Г. Таможенное дело. Учебник. М.: Экономист. 2008. – 298 стр.

6. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.
7. «Инкотермс»: Международные правила толкования торговых терминов. – М.: «Омега-Л», 2009. – 76 с.
8. Трошкина Т.Н. Таможенные платежи: Учебно–практ. пособ. М.: “Городец”», 2007. – 128 с. 2 экз
9. Удовенко С.П. Таможенный тариф современной России (1993-2005 гг.). – СПб.: ООО «Архей», 2006. – 402 с.

Internet saytlari

1. <http://www.asstra.ru/downloads/kvt.txt>
2. <http://www.abkhazeti.ru/pub/energyprojects>
3. <http://www.mcads.ru/default.asp>

III-bob. O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi

3.1. Iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va maqsadi

Evropa hamjamiyati yuzaga kelgunga qadar iqtisodiyot fanida «iqtisodiy integratsiya» termini ma'lum emas edi. Biroq milliy davlatlar orasidagi «bozorlar integratsiyasi» va «siyosat integratsiyasi» kabi jarayonlar uzoq vaqtlardan beri mavjud. Yagona milliy bozorlar savdoning stixiyali rivojlanishi va mehnat taqsimoti natijasida shakllanib keldi. Bu jarayonlarning kulminatsion bosqichi sifatida birlashgan halq xo'jaligi komplekslarining yuzaga kelishi bo'ldi.

Evropa integratsiyalashuvining yo'li ham shu kabi bo'ldi: yagona ichki bozor yaratildi, Evropa hamjamiyati bo'ylab yagona iqtisodiy qonunchilik tizimi va yagona (yoki hech bo'lmaganda uyg'unlashgan) iqtisodiy siyosat olib borila boshlandi. Biroq alohida olingan milliy davlatlar ichidagi birlashtiruvchi jarayonlar bilan davlatlararo birlashtiruvchi jarayonlar orasida jiddiy sifat jihatidan farqlar mavjud edi.

Milliy bozorlarni birlashtirish yo'lida shaxslar va alohida hududlarning qiziqishlari orasidagi farqlar bor edi, bu farqlar yagona siyosiy xokimiyat tomonidan nisbatan osonlik bilan bostirilishi mumkin edi. Evropa integratsiyalashuvining maqsadi esa davlatlarni yagona davlat ko'rinishida birlashtirish kabi qudratli boshlang'ich omilsiz millatlar va milliy davlatlarning qarama-qarshi iqtisodiy qiziqishlari va iqtisodiy mustaqilligi kabi anchagina katta va jiddiy to'siqlarni engib o'tish edi. Shu sababli, eng boshidan evropa integratsiyasining iqtisodiy mazmuni Evropani milliy davlatlar doirasida «yuqoridan» birlashtirishga qaraganda juda murakkab va boy bo'lishi ma'lum edi.

Xuquqshunos va siyosatshunos olimlar evropa integratsiyalashuvining o'ziga xos taraflarini o'rganishga, atrof dunyoni esdan chiqargan holda, to'laligich; o'rganishga moyil bo'lsalar, iqtisodchilarga esa bundan farqli ravishda, dunyo bozorining universal filosofiyasi xosdir. Ular uchun integratsiya - umumiy butun jahon qonuniyatlari namoyon bo'lishining shakllaridan biri holosdir.

Integratsiya muammosiga boshlang'ich nazariy yondoshuvlar halqar (savdoning umumiy nazariyasi yo'nalishida) rivojlangan edi.

G'arb iqtisodiyot fani savdoni an'anaviy tarzda boylikla orttirishning so'zsiz manbai deb hisoblaydi. Shuning uchun, savdo hajminmi kengaytirishga olib keluvchi har bir narsa absolyut

farovonlikdir, va teskarisi uning rivojlanishiga halaqit qiluvchi har bir narsa jamiyat boyligidan chegirmadir degan fikrni bildiradilar. Ushbu paradigma doirasida nazariy jihatdan mumkin bo'lgan besh xil tipdagi hududiy iqtisodiy integratsiya o'rganiladi:

- Erkin savdo zonolari - o'zaro tovarlar savdosida har qanday to'siqlarni olib tashlagan bir guruh mamlakatlar.
- Bojxona ittifoqi - tashqi tariflari umumiy bo'lgan erkin savdo zonasi.
- Umumiy bozor — bojxona ittifoqi, kapital va ish kuchining erkin harakat rejimi.
- Iqtisodiy ittifoq - umumiy bozor va uni to'ldiruvchi: faktorlarnish erkin harakatini ta'minlash maqsadida iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni uyg'unlashtirish va tovar oqimlarining buzilishini oldini olish maqsadida makroiqtisodiyotni uyg'unlashtirish.
- Iqtisodiy va valyuta ittifoqi — umumiy valyuta siyosati bilan to'ldirilgan iqtisodiy ittifoq.

Bu tiplarning birortasi ham toza ko'rinishda real hayotda hech qachon mavjud bo'lmagan bo'lsada, bu kabi klassifikatsiya ilmiy jihatdan to'la asoslidir.

Zamonaviy integratsion tizimning shakllanishi, ma'lumki, bojxona ittifoqi yaratilishidan boshlandi. shu sababli, iqtisodiy integratsiyaning nazariy jihatdan tushunishning boshlang'ich o'rinishlari uning shu ideal tipidan boshlandi.

GATT qoidalari har qanday cheklovlarisiz erkin savdo hududiy zonolari va bojxona ittifoqlarini tashkil etishga ruxsat berardi (XXIV modda). Bunga sabab, bu xalqaro tashkilot xalqaro savdoni bo'g'uvchi milliy protektsionizmning xukmronligi davrida paydo bo'ldi. Shuning uchun har qanday, hattoki bojxona to'siqlarini olib tashlash yo'lidagi chegaralangan qadam shu davrda juda katta yutuq hisoblanar edi.

Faqatgina 50-yillarga kelibgina tadqiqotchilar jamoatchilik diqqat-e'tiborini erkin savdo zonalarini va bojxona ittifoqlarini tashkil etish shubhasiz dunyo miqyosida erkin savdo paradigmasidan chekinish ekanligiga qarata boshlashdi.

Integratsiya - integratsion guruh ichida erkin savdoning maksimal rivojini, lekin shu bilan birga ushbu guruh va tashqi olam orasidagi protektsionizmning kuchayishini anglatadi. Shu sababli, hududiy integratsiyaning ratsionalligi yoki irratsionalligi masalasi, pirovard natijada, ikki o'zaro qarama-qarshi effektlarning nisbatiga keltiriladi. Bir tomondan, agarda erkin savdo zonasini yoki bojxona

ittifoqini yaratilishi natijasida qimmat ichki ishlab chiqarishni arzonroq import bilan almashtirilsa, u holda «savdoni tashkil etish» (trade creation) ro'y beradi. Boshqa tarafdin, agarda integratsiya natijasida uchinchi davlatlardan olinadigan arzon import, erkin savdo zonasi yoki bojxona ittifoqi bo'yicha qo'shni-davlatdan olinadigan qimmat import bilan almashtirilsa, u holda «savdoni chalg'itish» (trade diversion) ro'y beradi. Birinchi bor bu kontsepsiya Dj.Viner va M.Bie lar tomonidan 1950 yilda , ya'ni «oltilik»ning bojxona ittifoqi tuzilgunga kadar, ilgari surilgan edi.

Agarda:

- Tovarlar va ishlab chiqarish faktorlari bozorlarida mukammal raqobat mavjud;
- Barcha resurslar to'la mashg'ul;
- Barcha kattaliklar biror bir xarajatsiz yangi sharoitlarga avtomatik tarzda moslashadi;
- Alohida olingan davlat ichida faktorlarning to'la mobilligi, hamda davlatlararo faktorlarda mobillikning absolyut yo'qligi;
- Xarajatlar va narxlarning aniq mosligi;

kabilar o'rinli deb qabul qilinsa, u holda N (bojxona ittifoqiga kirishni rejalashtirayotgan mamlakat), davlatlar orasidagi savdoning shakllanishi va chalg'itilishi orasidagi nisbat, R (N davlatning bojxona ittifoqi bo'yicha potentsial sherigi) va W (dunyoning barcha boshqa davlatlari) quyidagi diagramma ko'rinishida tasvirlanishi mumkin.

3.2. Jahon iqtisodiy hamkorlik birlashmalari va ularning mamlakatlar iqtisodiyotidagi ta'siri

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab etakchi industrial mamlakatlarning tez iqtisodiy rivojlanishi va xalqaro transport hamda kommunikatsiya vositalarining takomillashishi natijasida tovarlar hamda xizmatlar almashinuvining qizg'in rivojlanishi ro'y berdi. Ishlab chiqarish omillari (kapital, ish kuchi va texnologiyalar) xalqaro harakatining turli shakllari vujudga kela boshladi, buning natijasida xorijga faqat tayyor mahsulot emas, balki uni ishlab chiqarish omillari ham ko'chib o'ta boshladi. Tovarning narxiga qo'shilgan foyda endilikda faqat milliy chegaralar doirasidagina emas, balki xorijda ham yaratila boshlandi. Iqtisodiy integratsiya tovarlar va xizmatlar xalqaro savdosi hamda ishlab chiqarish omillari aylanishi rivojlanishining qonuniy natijasi bo'ldi.

Iqtisodiy integratsiya-mamlakatlar o'zaro iqtisodiy hamkorligining natijasi bo'lib, u xo'jalik mexanizmlarining yaqinlashuviga olib keladi va bu yaqinlashuv davlatlararo bitimlar shaklini oladi hamda tegishli davlatlararo organlar tomonidan tartibga solinadi.

Hozirgi vaqtda mutaxassislar orasida integratsiyalashuv jarayonlariga nisbatan yagona nuqtai nazar yo'q. Iqgisodchilarning bir guruhi integratsiya jarayonida mamlakatlar o'rtasida yangi tovar oqimlarini shakllantirish hisobiga "resurslarning cheklanganligi" omilini bartaraf etishni eng muhim hol deb biladilar va bu alohida olingan bir mamlakat ichida bir-biriga o'xshash qimmatroq tovarlar ishlab chiqarishni bartaraf etish yoki ilmiy-tadqiqot hamda tajriba-konstruktorlik ishlariga sarflanadigan vositalarni tejash imkonini beradigan texnologik o'zaro almashuvlarni kengaytirishga imkon tug'diradi deb hisoblaydilar.

Olimlarning boshqa guruhi ustunlik qiluvchi shart-sharoitlar sifatida tashqi iqtisodiy omillar, masalan, kollektiv mudofa qobiliyatini oshirishni ilgari suradilar. Uchinchi guruh. olimlar esa, integratsion guruhlar tuzilishi bu ularning a'zolariga ishlab chiqarishning birdek o'sishi, ijtimoiy barqarorlik va shakliy maqsadlarga oson hamda tezroq erishish imkonini beradi deb hisoblashadi. Integratsiyaga nisbatan bu va boshqa nazariy yondashuvlarini umumlashtirib, shuni ta'kidlash joizki, integratsiya-mintaqaviy miqyosda sifat jihatidan yangi iqtisodiy muhitni shakllantirish yo'li bilan milliy xo'jalik komplekslarining yaqinlashuvi va bir-biriga kirib borishini ifodalaydi.

Jahon iqtisodiyotida integratsiya jarayonlari har bir davlat uchun faqat "o'z ishlab chiqarishiga" ega bo'lish foyda bermaydigan bo'lib qoladigan vaziyatni keltirib chiqaradi.

Ba'zi milliy iqtisodiyotlar o'z iqtisodiy salohiyatlarini kuchaytirishga intilib, jahon xo'jaligiga tobora ko'proq qo'shilib bormoqda. Jahon xo'jaligi ish kuchining aylanishi, kadrlar tayyorlash, mutaxassislarni o'zaro ayriboshlash o'sib borgan sari baynalmilal tus olmoqda. Jahon xo'jalik aloqalari shakllanishi va rivojlanishining istiqbollari xalqaro jahon xo'jaligi rivojlanishining asosiy tendentsiyasi sayyoramiz miqyosida tovarlar, kapitallar va xizmatlarning yagona bozorini yaratishga, alohida mamlakatlarning iqtisodiy yaqinlashishi va yaxlit xalqaro xo'jalik kompleksiga birlashishiga intilishda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Bu esa xalqaro iqtisodiy munosabatlarning boshqacha, ancha yuqori bosqichi hisoblanadi

Integratsiyaviy tuzilmalarni ishlab chiqarishning integratsiyalashuvida erishilgan darajasiga qarab ajratish lozim. Bunda integratsiyalashuv ham

rasmiy, ham real xususiyatga ega bo'lishi mumkinligini hisobga olish kerak.

Rasmiy integratsiyalashuv ishlab chiqarishni shunday xalqaro umumlashtirishdan iboratki, uning asosida mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar xalqaro mehnat taqsimoti asosida o'rnatiladi. Real iqtisodiy integratsiya esa, ishlab chiqarishni shunday xalqaro umumlashtirishdan iboratki, bu umumlashtirish ishtirokchi davlatlar asosiy ijtimoiy-iqtisodiy o'lchamlarining ma'lum paritetini nazarda tutadi.

Iqtisodiy integratsiya, o'z navbatida, ishtirokchi mamlakatlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini ko'tarish uchun sharoit yaratadi. Iqtisodiy integratsiyaga olib keladigan jarayonlarni quyidagi o'zaro bog'langan zanjir ko'rinishida ifodalash mumkin: ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish va kapitalning integratsiyalashuvi. Ma'lumki, ko'plab milliy va xorijiy mamlakatlar iqtisodchilolari asarlarida shu xolatlar ma'lum bo'lmoqdaki, integratsion guruhda u yoki bu mamlakatning ishtirok etishining ijobiy yoki salbiy tomonlarini baholash murakkabligicha qolmokda. Biroq, shu narsa ma'lumki, integratsiyadan ichki bozori kichik, resurslarga boy bo'lmagan, jahon YAIM sida kam ulushga ega bulgan davlatlar ko'proq samara oladi. Bunga ko'ra iqtisodiy integratsiya bir qator ob'ektiv omillarga asoslangan bo'lib, ular orasida quyidagilar muhim o'rin tutadi:

1) Xo'jalik hayoti baynalmilallashuvining o'sib borishi.

2) Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi.

3) O'z xususiyatiga ko'ra umumjahon ilmiy-texnika inqilobi.

4) Milliy iqtisodiyotlar ochiqlik darajasining oshishi.

Integratsiyalashuv-mamlakatlar o'rtasidagi (avvalambor, xalqaro mehnat taqsimoti asosida) barqaror o'zaro aloqalar rivojlanishi jarayoni va qayta ishlab chiqarishning milliy xo'jalik doirasidan chetga chiqishidir. Baynalmilallashuvning o'sishiga ayniqsa, transmilliy korporatsiyalar (TMK) faol ta'sir ko'rsatadi. TMK chet ellarda o'z aktivlariga ega bo'lgan milliy monopoliyalardir. Ularning qayta ishlab chiqarish va savdo-sotiq faoliyati bir davlat doirasidan chiqib ketadi. Ishlab chiqarish va kapitalning baynalmilallashuvi "yirik kompaniyalarning chet elda korporatsiyalarni transmilliy korporatsiyalarga aylantirish yo'li bilan xo'jalik aloqalarini ekspansiya qilish" xususiyatiga ega bo'la boshlaydi. Kapitalni olib chiqish xalqaro korporatsiyalarni tuzish va rivojlantirishda muhim omilga aylana boshlaydi.

Xalqaro mehnat taqsimoti mamlakatlar o'rtasida mehnatni ijtimoiy-hududiy taqsimlashni rivojlantirishning ma'lum mahsulot ishlab chiqarishni alohida mamlakatlarda barqaror jamlashni nazarda tutuvchi yuqori bosqichidir.

3.3. Respublikamizning jahon xo'jaligiga integratsion bosqichlari

Shunisi ayonki, nisbatan mustaqil fazalar ajralib chiqar ekan, ishlab chiqarish jarayoni ishlab chiqarishning ma'lum hudud, alohida mamlakatlardagi alohida bosqichlar bo'yicha jamlanmay qolishi mumkin emas. Shuning uchun hududiy mehnat taqsimotining ikki turini ajratib ko'rsatishadi: mintaqalararo — bir mamlakatning turli mintaqalari o'rtasidagi mehnat taqsimoti; xalqaro — turli mamlakatlar o'rtasidagi mehnat taqsimoti.

Tarmoq ichidagi ixtisoslashuv keng tarqalib bormokda. Ilmiy-texnika inqilobining har xil mamlakatlarda turlicha yuz berayotganiga qaramay, uning hozirgi bosqichi ham bozorni, ham ishlab chiqarishni baynalmilallashtirishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmokda. ITI zamonaviy qayta ishlab chiqarishda tashqi iqtisodiy aloqalarning roli o'sishini keltirib chiqaruvchi mustaqil omil sifatida namoyon bo'lmokda. Boshqa davlatlardan ajralgan holda u yoki bu mamlakatda fan va texnikaning rivojlanishi muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin emas. Keyingi yillarda turli mamlakatlarning firmalari o'rtasida kooperatsiyalashuvning jadal rivojlanishi yirik xalqaro ishlab chiqarish-investitsiya komplekslarining paydo bo'lishiga olib keldi, ularni tuzish tashabbuslari ko'pincha TMKlar hisoblanadi. Ular uchun firma ichidagi mehnat taqsimoti milliy chegaralardan chiqib ulgurdi va aslini olganda mehnat taqsimotiga aylandi. Shu asosida milliy iqtisodiyotlarning ochiqligi darajasi oshib bormokda. Ochiq iqtisodiyot mamlakatning jahon xo'jalik aloqalariga yanada ko'proq qo'shilishi asosida shakllanmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda ochiq iqtisodiyotni shakllantirishda eksportga mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish, xorijiy firmalar bilan kooperatsiyalashuvga ko'maklashish va chet eldan kapitallar, texnologiyalar, malakali kadrlar kirib kelishiga ko'maklashuvchi huquqiy asoslarni yaratish bo'yicha davlat tashqi iqtisodiy strategiyasi muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiy integratsiya shakllanishi shart - sharoitlari va uning bosqichlari.

Iqtisodiy integratsiya shakllanishining shart-sharoitlarini tahlil qilamiz, ular quyidagilardir:

- Integratsiyalashayotgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi va bozor munosabatlaridagi etukligi darajasining yaqinligi. Kamdan-kam istesnolardan tashqari, qolgan barcha hollarda davlatdararo integratsiya yo industrial mamlakatlar yoki rivojlanayotgan mamlakatlar orasida rivojlanadi. hatto, sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar doirasida tahminan bir xil iqtisodiy rivojlanish darajasidagi davlatlar o'rtasida integratsion jarayonlar eng faol bo'ladi.

- Integratsiyalashayotgan mamlakatlarning jo'grofiy yaqinligi, ko'p hollarda umumiy chegara va tarixan shakllangan iqtisodiy aloqalarning mavjudligi. Dunyodagi integratsiyaviy birlashmalarning aksariyati jo'grofiy jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan, transport aloqalariga ega bo'lgan va ko'pincha bir tilda gaplashadigan bir necha qo'shni mamlakatlardan boshlangan edi.

- Rivojlanish, siyosiy hamkorlik va shakllar sohasida mamlakatlar oldida turgan iqtisodiy va boshqa muammolarning umumiyliigi. Iqtisodiy integratsiya, integratsiyalashayotgan mamlakatlar oldida mavjud bo'lgan anik muammolar to'plamini hal qilishga qaratiladi. Balki asosiy muammosi-bozor iqtisodiyotining asoslarini yaratish bo'lgan mamlakatlar bozorining rivojlanganligi, umumiy valyutani joriy qilishni talab etadigan davlatlar bilan integratsiyalashuv mumkin emasligi yaqqol ayonligi bunga sababdir.

Ustunlikni namoyish qilish samarasi. Integratsiyaviy birlashmalarni tuzgan davlatlarda odatda ijobiy iqtisodiy siljishlar (iqtisodiy o'sish sur'atlarining tezlashuvi, inflyatsiyaning pasayishi, ish bilan bandlikning o'sishi va shakllar) ro'y beradi va bu shubhasiz o'zgarishlarni kuzatib borayotgan boshqa mamlakatlarga ma'lum ruhiy ta'sir ko'rsatadi..

"Domino samarasi". U yoki bu mintaqadagi mamlakatlarning ko'pchiligi integratsiyaviy birlashmaga a'zo bo'lgach, bu birlashma doirasidan chetda qolgan mamlakatlar, Shubhasiz, ba'zi qiyinchiliklarga duch keladi. Bu qiyinchiliklar mazkur guruhga kiruvchi mamlakatlar iqtisodiy aloqalarining uzviyligi bilan bog'liqdir. Bu ko'pincha, hatto, integratsiya doirasidan tashqarida qolishdan qo'rqib, integratsiya

doirasidan chetda qolgan mamlakatlar bilan savdoni qisqartirishga ham olib keladi.

Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan va rivojlanayotgan ko'plab integratsion birlashmalar aslida o'z oldiga bir-biriga o'xshash vazifalarni qo'yadilar. Bular quyidagilardan iborat:

1. Keng ko'lamli iqtisodiyot ustunliklaridan foydalanish. Keng ko'lamli iqtisodiyot nazariyasi asosida bozorlar hajmini kengaytirish, transauksion xarajatlarni kamaytirish va boshqa bir qator afzalliklardan foydalanish. Bu, o'z navbatida, katta hajmdagi bozorlarga katta ishtiyoq bilan kirib keladigan to'gridan-to'gri chet el investitsiyalarini jalb qilishga bevosita imkon beradi.

2. qulay tashqi siyosiy muhitni yaratish. Ko'plab integratsion birlashmalarning muhim maqsadi ularda ishtirok etuvchi davlatlarning siyosiy, harbiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa noiqtisodiy sohalarda bir-birini tushunishi va hamkorligini mustahkamlashdir.

3. Savdo siyosatidagi vazifalarni hal qilish. Mintaqaviy integratsiya, ko'pincha, GAAT - BST doirasida ishtirok etayotgan mamlakatlarning muzokarasi nuqtai nazaridan olib qaraladi. Mamlakatlar bloki nomidan kelishilgan holdagi bayonot ancha jiddiy hisoblanadi va savdo siyosati sohasida kutilgan natijalarni beradi.

4. Iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishga ko'maklashish.

O'z qo'shinlarini integratsiya jarayonlariga qo'shar ekanlar rivojlangan davlatlar ham o'sha mamlakatlardagi to'laqonli va katta hajmli bozorlarni yaratish hamda ulardagi bozor islohotlarining ildiz otishidan manfaatdor bo'ladi. Evropa Ittifoqining u yoki bu shakliga qo'shila turib, ko'plab g'arbiy Evropa mamlakatlari shu maqsadlarni ko'zlagan edi.

Tarixan integratsion jarayonlar bir nechta asosiy bosqichlar asosida rivojlanib keldi. Ularning har biri uning rivojlanishining ma'lum darajaga etganligini ifoda etadi. Integratsion guruhlar tipologiyasining asoslari ishtirokchi mamlakatlar milliy iqtisodiyotining makro va mikro darajada o'zaro yaqinlashishi va bir-birini iqtisodiy jihatdan naqadar chuqur kirib borishini baholashda namoyon bo'ladi.

Jahon xo'jaligidagi integratsion jarayonlarni rivojlantirish bo'yicha to'plangan tajriba iqtisodiy integratsiyaning yuzaga kelishi va rivojlanishida besh bosqichdan o'tish zarurligidan dalolat beradi (1-jadval).

Birinchi bosqich - zamonaviy talqinda - pereferentsial savdo kelishuvlari. Erkin savdo hududlari iqtisodiy integratsiyaning

boshlang'ich bosqichi bo'lib hisoblanadi. Erkin savdo hududlari amalda ikki va undan ortiq davlatlarning o'zaro savdosida bojlar, litsenziyalar va kvotalarni muzlatish va asta sekinlik bilan bekor qilish to'g'risidagi bitimning imzolanishi natijasida yuzaga keladi.

Ikkinchi bosqich — ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida bojxona tariflari va boshqa cheklashlarni bekor qilib, erkin savdo hududlarini tashkil etish. Ishtirokchi mamlakatlar bu bosqichda o'zaro savdo to'siqlarini bekor qiladi, lekin uchinchi mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarda to'la erkinlikni saqlab qoladilar (masalan, bojxona poshlinalarini yoxud boshqa cheklashlarni bekor qilish yoki yangiliklarni kiritish va savdo-iqtisodiy shartnomalar, bitimlar tuzish huquqlari). Buning oqibatida mamlakatlar o'rtasida ularning chegaralarini kesib o'tayotgan tovarlarning kelib chiqishini nazorat qiladigan va tegishlicha uchinchi mamlakatlardan imtiyozli ravishda tovarlarni olib kirishga to'sqinlik qiladigan bojxona chegaralari hamda postlari saqlanib qoladi. Bunday erkin savdo hududlarga (zonalarga) 1960 yildan buyon mavjud bo'lgan Evropa erkin savdo uyushmasini misol qilib keltirish mumkin.

Erkin savdo hududlarining ijobiy tomonlariga ishtirokchi mamlakatlar savdo siyosatida barqarorlikni o'rnatilishini kiritish mumkin. Bunday hududlarga a'zo mamlakatlarni xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb etish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi, ular xalqaro mehnat taqsimotidan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Erkin savdo hududlarining salbiy tomonlariga keladigan bo'lsak, ular ichki bozor raqobatining kuchayishi bilan belgilanadi, chunki bu milliy ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta'sir etishi va bankrotlik xavfini kuchaytirishi mumkin. Bu bosqichda millatlararo tartibga soluvchi tashkilotlarni tashkil etish ko'zda tutilmaydi. Bu esa o'z navbatida birgalikda qarorlar qabul qilish jarayonlarini sekinlashtiradi.

Uchinchi bosqich — savdo va ishchi kuchi, kapital aylanishida yagona tariflarni o'rnatgan holda, bojxona ittifoqi tuzishdir. Integratsiyaning bu bosqichida davlatlar faqat o'zaro to'siqlarni bartaraf etibgina qolmay, balki tashqi savdo to'siqqarining yagona tizimini va uchinchi davlatlarga nisbatan bojxona poshlinalarining yagona tizimini tashkil qiladilar. Ya'ni xuquqiy nuqtai nazardan Bojxona Ittifoqi (BI) ikki va undan ortiq davlatlar o'rtasida o'zaro va uchinchi mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan soliq siyosatini o'tkazilishini aks ettiradi, bu yagona iqtisodiy makonni shakllantirish va ana shu makon doirasida har qanday bojxona chegaralarini bartaraf

etishni anglatadi. Bunda ishtirokchi mamlakatlar chegaralari bilan belgilangan yagona bojxona makoni vujudga keladi. Bunday tashkilotlar tuzilmalari qatoriga Evropa Ittifoqiga asos bo'lgan Evropa iqtisodiy hamjamiyatini misol qilib kiritish mumkin. Uchinchi bosqich - real iqtisodiy integratsiyaning boshlang'ich fazasi-Iqtisodiy ittifoqning tashkil topishidir. Bu bosqichda davlatlar o'z milliy chegaralari orqali faqat tovarlar emas, balki barcha ishlab chiqarish omillari kapital, ishchi kuchi, texnologiya va ma'lumotlarni erkin harakati haqida kelishadilar. Natijada umumiy bozor makoni, umumiy bozor shakllanadi. Bojxona ittifoqini umumiy bozorga aylantirish jarayoni faqatgina savdoni emas, balki iqtisodiy siyosatning boshqa sohalarini ham qamrab oluvchi qonuniy me'yorlarni uyg'unlashtirish masalalarini ham hal etish bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham ichki bojxona to'siqlari va boshqa cheklashlarni bartaraf etish orqali uchinchi mamlakatlar bilan savdoda ummuy tamoyillarni ishlab chiqish zarurki, buning natijasida milliy chegaralar orqali tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining har qanday to'siqlarsiz o'tishiga sharoit yaratiladi. Umumiy bozorni shakllantirishda jamoatchilik fondlarini yaratish zaruriyati tug'iladi. Bundan tashqari millatlararo muvofiqlashtiruvchi tashkilotlarning tuzilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Evropa Ittifoqi tajribasidan ma'lumki, bunday tashkilotlarni tashkil etmasdan turib milliy qonunchilik me'yorlarini soddalashtirish va integratsion birlashma ishtirokchilarining umumiy qarorlarini bajarilishini nazorat qilish tizimini joriy etish mumkin emas. bartaraf etishni anglatadi. Bunda ishtirokchi mamlakatlar chegaralari bilan belgilangan yagona bojxona makoni vujudga keladi. Bunday tashkilotlar tuzilmalari qatoriga Evropa Ittifoqiga asos bo'lgan Evropa iqtisodiy hamjamiyatini misol qilib kiritish mumkin.

Integratsiya jarayonlari shakllari va bosqichlari

	Integratsiya tiplari	Belgilari
1.	Pereferentsial savdo kelishuvlari	O'zaro savdoda tariflar va boshqa to'siqlar olib tashlanadi. Uchinchi mamlakatlarga nisbatan milliy tariflar saqlanadi. Davlatlararo boshqaruv organlari tuzilmaydi.
2.	Erkin savdo zonalari	Bitim shakli. Bunda qatnashchilar bir-birlariga nisbatan bojxona tariflari va kvotalarini olib tashlash to'grisida axdlashadilar. Uchinchi mamlakatlarga nisbatan har kimning o'z siyo'sati mavjud bo'ladi. Misol uchun: NAFTA, ANZSERTA. ilgarigi Evropa iqtisodiy hamjamiyati.
3	Bojxona ittifoqi	Uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona siyo'sati. Biroq bunda ham jiddiyrok ichki karama-qarshiliklar paydo bo'ladi. Evropa iqtisodiy hamjamiyati buning misoli bo'lishi mumkin.
4	Umumiy bozor	Ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida ishlab chiqarishning barcha harakati uchun to'siqlarni to'liq bartaraf etish. Iqtisodiy siyosatni to'lik kelishish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni tenglashtirish kabi masalalar kal etish jarayonida turadi.
5	To'liq iqtisodiy integratsiya	Yagona iqtisodiy siesat ia buning okibati sifatida qonunchilik bazasini birxillashtirish. SHartlari: umumiy soliq tizimi; yagona standartlarning mavjudligi; mehnat to'g'risidagi yagona qonunlar va boshqalar.
5.1.	Iqtisodiy Ittifoq	Yuqori iqtisodiy rivojlanish bosqichida paydo bo'ladi. Iqtisodiy siyosat (hatto yagona iqtisodiy siyosat) kelishiladi na Shuning asosida barcha to'siqlar olib tashlanadi. Davlatlararo (davlatlardan yuqori turuvchi) organlar tashkil etiladi. Barcha qatnashchi mamlakatlarda yirik iqtisodiy islohotlar amalga oshiriladi.

5.2.	Valyuta ittifoqi	Iqtisodiy Ittifoq Shakli va ayni bir uning yirik qismi. quyidagilar valyuta ittifoqining xarakterli belgilari hisoblanadi: - Milliy valyutalarning kschishilgan (birgalisdagi) muomalasi; qatnashchi mamlakatlarning Markaziy bankirlari tomonidan maqsadga qaratilgan holda ko'llab-quvvatlanadigan katiy begilangan valyuta kurslarining o'rnatish; Ushbu xalqaro valyuta birligining emissiya markazi hisobdangan yagona mintaqaviy bank shaklantirilishi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda valyuta Ittifoqi deganda kliring bitimlari tushuniladi.
------	------------------	---

Manba: A.Киреев Международная экономика , М., 1999 г. 336 стр.

Beshinchi bosqich — yagona iqtisodiy siyosat, umumiy valyuta va milliy darajadan ustun turuvchi tartibga solish tashkilotlariga ega to'liq integratsiya. Integratsiyaning bu darajasiga erishish siyosiy-iqtisodiy ittifoq unga kirayotgan davlatlar integratsiyaning oldingi bosqichlarida erishilgan natijalarni hisobga olgan holda, uchinchi mamlakatlarga nisbatan birgalikda savdo, so'ngra umuman, iqtisodiy siyosatni olib borish hamda iqtisodiyotni tartibga solish tizimini birxillashtirish haqida kelishuvlarni uz ichiga oladi. Integratsiyaning ushbu bosqichi qatnashuvchi mamlakatlarning tashqi siyosatini kelishilgan holda olib borilishini ko'zda tutadi. Bu esa, uz navbatida har bir qatnashuvchi mamlakat va umuman, ittifoqning iqtisodini rivojlanishi manfaatlari yo'lida bor imkoniyat va vositalarni o'zaro manfaatli birlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Oxirgi ikki bosqich u yoki bu integratsion guruhning xususiyati bilan bog'liq, ma'lum kichik bosqichlarni o'z ichiga olishi mumkin. Jahonda mavjud bo'lgan integratsiyaviy guruhlar ko'pincha formal integratsiyaviy bosqichda bo'lib, integratsion rivojlanishning birinchi va ikkinchi bosqichlaridadirlar.

Jahon tajribasini o'rganish shundan dalolat beradiki, integratsiya davlatning jahon xo'jaligiga qo'shilishini rag'batlantirish uchun samarali, tub tashqi iqtisodiy siyosat ekanligini, barqaror iqtisodiy o'sishni, aholi daromadlari o'sishini, inson kapitali jamlanishini, iqtisodiyotda ilg'or texnologik va tarkibiy siljishlar yuz berishini, ishlab chiqarish, investitsiyalarni boshqarish hamda ularning sifati oshishini ta'minlashidan dalolat beradi.

3.4. O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvining ahamiyati

O'zbekistonning dunyo mamlakatlari bilan xalqaro savdo- iqtisodiy aloqalari o'rta asrlardan boshlanadi. G'arb va sharq o'rtasidagi savdo, katta bozor uchun kurash va mehnat resurslari hamma vaqt O'zbekistonning hozirgi hududiga dahldor bo'lgan. Chunki, uning geografik jihatdan savdo- iqtisodiy potentsiali ko'plab mamlakatlarning qiziqishiga sabab bo'lgan.

«Integratsiya va kooperatsiya taraqqiyotga , iqtisodiy yuksalishga xizmat qilmog'i, iqtisodiy o'sish va yuksalish yo'lida o'rtadan to'siqlarni ko'tarmog'i lozim.»³

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li kontsepsiyasiga amal qilgan holda iqtisodiyotda tub institutsional va tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ishlab chiqarishni qayta tashkil etish va davlat tasarrufidagi korxonalarni xususiylashtirish asosida mulkchilik munosabatlari qayta ko'rilmqda, yangi bozor mexanizmlari va bozor infratuzilmasi shakllantirilmoqda. Shu bilan birga, Respublikamizning XXI asrga qadam qo'yishi milliy tizimga yuksak talablar qo'yuvchi iqtisodiy integratsiya asosida globallashtirishning jahon tendentsiyalari kuchaygan bir sharoitga to'g'ri keldi.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tashqi iqtisodiy aloqalar muammosiga diqqat - e'tiborni qaratib , quyidagilarni ta'kidlagan edi:«Shu narsani qayta-qayta takrorlashga to'g'ri kelmoqda: O'zbekiston iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimi bilan integratsiyalashuviga erishmasdan turib, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirmasdan va mustahkamlamasdan turib, eng muhim xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilmasdan turib va bank-moliya sohalarida, real iqtisodiyotda, birinchi galda etakchi tarmoqlarda chet el kapitalining ishtirokini kengay - tirmasdan turib, iqtisodiyotimizning barqaror taraqqiyotini ta'minlash qiyin.»⁴

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida respublika oldida jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish va jahon amaliyoti yutuqlarini amalda tadbiq etish, davlatning tashqi savdo strategiyasini

³ I. Karimov . Bunyodkorlik yo'lidan. O'zbekiston, Toshkent. 1996 y. 328 b.

⁴ Ishmuxammedov A.E, Sunnatov M.N, SHibarshava L.I Jahon iqtisodiyotiga integratsiya. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jmag'armasi. Toshkent 2004 yil. 76-b

takomillashtirish vazifasi turibdi. Muayyan shart - sharoitlarni yaratish orqali milliy va jahon iqtisodiyoti mintaqalarida tarmoqlarning o'zaro uzviyligi va hamkorligini ta'minlash integratsiyalashuvning obe'ktiv rolini kuchaytiradi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi sharoitlarida, tashqi savdoni tartibga solishning printspial jihatdan yangi modeliga o'tish xorijiy mamlakatlar amaliyotining ijobiy jihatlarini va ayrim yutuqlarini respublikamizda qo'llash alohida ahamiyatga ega. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga qo'shilishi jarayoni iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Xorijiy investitsiyalar, tashqi kreditlarning jalb etilishi eksport bazasining hamda importning o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirish iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarning muhim omili sifatida ifodalanadi va hozirgi kunda faqat ular orqali iqtisodiyotni tubdan isloh qilish mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyotining eksportga yo'naltirilganligi va raqobatbardoshligi eng ko'p darajada samarali amalga oshirilishi jahon xo'jaligida o'z o'rnini topishi, jahon xo'jalik aloqalariga integratsiyalashuvi asosiy muammolardan hisoblanadi. Yaponiya va yangi industrial mamlakatlar tajribasi ushbu muammo ustuvor tarmoqlar kontseptsiyasini ishlab chiqish asosida hal etilganligini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish omillarining mavjudligi va ularning takror ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etilishi mamlakatning geostrategik salohiyatini ko'p jihatdan belgilab beradi, milliy iqtisodiyot tuzilmasini shakllantiradi.

Xususan, yagona iqtisodiy siyosatni o'tkazish va shakllantiri, taraqqiyot strategiyasini belgilash, ichki va tashqi bozorlarda umum davlat manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiy, fan-texnik, savdo sohalarida hamkorlik o'rntish, turizmni rivojlantirish va boshqa aloqalarni samarali boshqaradigan Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil etildi. 1992 yil 26 martda qabul qilingan hukumat qaroriga ko'ra, vazirlik davlat organi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalarini boshqarish, nazorat qilish , tartibga solish va muvofiqlashtirish vazifalarini amalga oshiradi.(Hozirda Tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo va investitsiyalar vazirligi .)

O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimotidan kelib chiqib belgilangan raqobatbardosh afzalliklari quyidagilardan iborat:

-boy sanoat xom ashyo zaxiralarining mavjudligi va ayrim turdagi menereal xom ashyolarning tashqi bozorda raqobatbardoshligi;

-tabiiy iqlim sharoiti qulayligi, issiqlik energiyasini jamg'arish imkoniyati mavjudligi;

-jahonga ma'lum boy tarix va ko'hna tarixiy madaniyatning mavjudligi, bu omil asosan turizm va boshqa bir qator biznes turlarini rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin;

- nisbatan arzon ishchi kuchi; (albatta sifat ham nisbatan olinadi)

-ahamiyatga molik ilmiy salohiyat.

Bugungi kunda jahon xo'jaligi integratsiyasi "inson kapitali"ni ya'ni inson resurslarini sifatini oshirish va texnologik rivojlanishni tezlashtirishni talab qiladi. Undan tashqari xorijiy sarmoyalarni kirib kelishini rag'batlantirish, xorijiy valyuta tushumini ko'paytirish, shuningdek, ishlab chiqarish, bozor va moliyaviy munosabatlarni barqaror shakllantirishni ham talab qiladi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida boshqaruv sifatini oshirish, xom ashyo eksportidan ishlab chiqarishni rivojlantirish sari harakat bosqichlarini jadallashtirish, ko'plab ishchi o'rinlarini vujudga keltirishda integratsiya ijobiy hissa qo'shadi.

Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O'zbekiston boy tabiiy xomashyo salohiyatiga, shuningdek, xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish jihatidan qulay geostrategik mavqeiga ega. Chunki Evropadan Osiyo - Tinch okeani mintaqasini yaqin sharqqa olib boruvchi yo'llar mana shu erda kesishadi.

O'zbekistonning jahon miqiyosidagi, global darajada amalga oshirilayotgan strategik integratsion vazifa – mamlakatdagi barcha xo'jalik yurituvchi sube'ktlarning tashqi dunyo bilan o'zaro hamkorligi uchun teng huquqli va milliy manfaatlarga javob beruvchi shart - sharoitlar yaratish asosida xalqaro valyuta-moliya va savdo mexanizmlariga bevosita qo'shilishidir. Ushbu vazifaning amalga oshiriliishi O'zbekistonga XXI asrda jahon iqtisodiyoti uchun xos bo'lgan globallashuv jarayonlarida to'liqroq ishtirok etish uchun imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi quyidagi integratsion hududlarning teng huquqli a'zosi:

- Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)
- Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti (MOHT)
- Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (IHT)
- SHanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT)

- Jahon Savdo Tashkilotining kuzatuvchisi (JST)⁵
- Jaxon bojxona tashkiloti (JBT)

O'zbekiston a'zo bo'lib kirgan eng muhim birlashmalardan biri-Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) bo'lib, u 1991 yil dekabrda tuzilgan. Hozirgi kunda MDHga Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Moldava Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston, O'zbekiston Respublikasi va Ukraina kiradi.

1993 yil 22 yanvarda Minskda qabul qilingan MDH Ustavining eng muhim moddalaridan biri umumiy iqtisodiy maydonni, umumevropa va evroosiyo bozorlarini shakllantirish va rivojlantirish, transport va aloqa tizimlarini, shuningdek, energetika tizimlarini rivojlantirishda hamkorlik qilishdir. Ustavda asosiy muvofiqlashtiruvchi hujjatlar-mustaqil davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilaydigan ikki tomonlama shartnomalar bo'ladi, deb belgilangan.

Uchrashuv chog'ida quyidagilar asosiy maqsad qilib olindi:

-mamlakatlarning boshqa integratsiya guruhlarini bilan o'zaro munosabatlarda MDH integratsion jarayonlarining barcha sub'ektlari manfaatlarini himoya qilish, uchinchi mamlakatlar tomonidan kamsitilishi, g'irrom raqobat, huquqiy va iqtisodiy cheklashlardan jamoa himoyasini ta'minlash. Bunday himoya transport kommunikatsiyalarida ayniqsa juda muhim.

- fan, ta'lim, tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning texnik-texnologik asoslarini takomillashtirish sohalarida integratsiya jarayonlarini qayta tiklash;

- erkin savdo hudularini barpo etish;
 - bojxona tizimini soddalashtirish;
 - tovarlar, xizmatlar, sarmoya va ishchi kuchi umumiy bozorini tashkil qilish;

O'zbekistonning MDH davlatlari bilan iqtisodiy hamkorligi mexanizmini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari iqtisodiyotni erkinlashtirish, uni bozor tamoyillariga izchillik bilan o'tkazish, ikki tomonlama va ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalar tizimini yanada kuchaytirishdan iborat 1996 yilda ishga tushirilgan Tajan-Seraxs-Mashhad temir yo'li 2001 yil qurilgan Angren-qo'qon o'rtasida Rezak va qamchiq dovonlarini kesib

⁵ Ekonomicheskii vestnik Uzbekistan .№ 3-4. 2004 y. 55-b

o'tadigan avtomobil yo'lining qurilishi TRASEKAni barpo etish yo'lidagi dastlabki qadamlar hisoblanadi.⁶

O'zbekiston tashqi siyosatining ta'sirli yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining birinchi uchrashuvi 1990 yil iyunda Almati Shahrida bo'lib o'tdi. Uchrashuv Sovet Ittifoqi hali mavjudligi sharoitida, uning ahvoli tobora yomonlashib, halq xo'jaligining barcha sohalarida tanglik kuchayib borayotgan, pul qadrsizlanayotgan, narx navo tobora oshib borayotgan sharoitda bo'lgan edi.

2001 yil 28 dekabr kuni Toshkentda Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati davlatlari boshliqlarining navbatdagi kenashi bo'lib o'tdi. Kengashda hamkorlikni rivojlantirish, mintaqa barqarorligi va tashqi savdo aloqalarini yanada kuchaytirish masalalari muhokama qilindi va Toshkent bayonoti imzolandi. Mazkur kengashda MOIH tashkiloti faoliyatini to'xtatishga qaror qilindi. Prezidentimiz Islom Karimov taklifiga binoan MOIH negizida Markaziy Osiyo Hamkorlik tashkiloti tuzishga kelishib olindi.

2002 yil 28-fevral kuni Almati shahrida Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakunida Prezidentlar Markaziy Osiyo hamkorligi tashkilotini ta'sis etish to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Shu tariqa MOIH tashkiloti huquqiy jihatdan rasmiylashdi va rais etib Prezidentimiz Islom Karimov saylandi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tashkil etilgan bo'lib, a'zo mamlakatlar iqtisodiy integratsiyasining 2010 yilgacha mo'ljallangan 53 ta muayyan loyihani o'z ichiga oladigan dastur ishlab chiqildi.⁷

Tashkilotning asosiy maqsadi tabiiy resurslardan neft-gaz sohasini isloh qilish, transport-kommunikatsiya sohalarida samarali ishlash uchun sharoitlar yaratishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga iqtisodiy integratsiyasi uchun chet mamlakatlarining bu soxa bo'yicha eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishda to'plangan yutuqlari juda ham muhimdir.

⁶ O'zbekistonnir jahon hamjamiyatira interratsiyalashuvi. Moliya.Toshkent.2009 y.21-b.

⁷O'zbekiston Respublikasinir Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. 2009 y. Toshkent,105 b.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya deganda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, o'zaro iqtisodiy aloqalarning chuqur rivojlanishi va mamlakatlar o'rtasidagi xo'jaliklarning mexnat taqsimoti tushuniladi.

Shundan kelib chiqib bu jarayon faqatgina mamlakatlarning tashqi iqtisodiy almashinuvi, bozor iqtisodiyoti emas, balki xalqaro hamkorlikda va jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lish jarayonini o'z ichiga oladi. Lekin bu tovarlar ishlab chiqarish doirasiga chuqur kirib boradi va xar hil ko'rinishda chuqur iqtisodiy aloqa o'rnatishga olib keladigan jarayon hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishganidan so'ng uning oldida jahon hamjamiyatiga a'zo bo'lish yo'lida yangi imkoniyatlar paydo bo'la boshladi.

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining **siyosiy asosi** bo'lib

- O'zbekiston Respublikasining siyosiy mustaqilligi va demokratiya asosida ko'rilgan jamiyat;

- **iqtisodiy asosi** bo'lib mulkchilikning xar-xil shakllari ko'rinishda bozor iqtisodiyotiga o'tishi va bular uchun barcha shart-sharoitlari yaratish shu jumladan xuquqiy bazani ham;

- **material asosi** bo'lib O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi va O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish;

- **sotsial asosi** bo'lib O'zbekiston Respublikasida erkin mexnat, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni qo'llab-quvvatlash, xaqiqiy mulkdorlar sinflarini shakllantirish:

- **ma'naviy asosi** bo'lib esa g'oyalarning yaratilishi ma'naviy boyligimiz va millatning o'z-o'zini anglashi hisoblanadi.

O'zbekiston respublikasida integratsion o'zaro aloqalarini yuqorida keltirilgan asoslari bo'lib

- mamlakatning tashqi iqtisodiy strategiyasini amalga oshirishda; tashqi iqtisodiy faoliyatni kelgusida xam mo'tadillashtirishga yo'naltirilgan;

- Respublikaning milliy Halq xo'jalik kompleksini bozor iqtisodiyotiga o'tkazish va bundan tashqari integratsion imkoniyatlarni va undan samarali foydalanishini kuchaytirish zarur.

Bizning nazarimizda integratsion salohiyat deganda xalqaro iqtisodiy integratsiya sub'ektlarini, iqtisodiy manfaatdor tomonlarni xalqaro iqtisodiy ishlab-chiqarish, ilmiy texnika sohasidagi hamkorligi va o'zaro almashinuv predmeti hisoblangan tabiiy kompleksi, mexnat, ishlab chiqarish, moliya-

kredit, tashqi va ichki savdo resurslari, ilmiy salohiyatli kadrlar va insonlarning mulklari tushuniladi.

O'zbekiston respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsion aloqalariga ko'maklashuvchi faktorlari va shartlari orasida baxslashib bulmaydiganlari kuyidagi integratsion patentsionalini rivojlantirishga qaratilganlarini ajratish mumkin.

- O'zbekiston Respublikasining Evro-Osiyo xaritasida muhim geografik joyda joylashganligi;

- er osti va er usti zaxiralarini mineral xom-ashyo va usimlik resurslari, qishloq xo'jaligini va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini rivojlantirish uchun qulayligi;

- tashqi savdo va eksport salohiyatini yuqoriligi;

- yuqori ishlab chikrish salohiyati;

- insonlarni salohiyati yuqoriligi usuvchi mexnat resurslari;

- bundan tashqari jahon hamjamiyatiga nisbatan arzon ishchi kuchi mavjudligi;

- Respublikamizni boshqa hududlar bilan boglab turuvchi avtomobil va temir yul magistrallari mavjudligi;

- rivojlangan ishlab chiqarish infratuzilmasi mavjudligi;

- ikki tomonlama manfaatli tashqi iqtisodiy va integratsion hamkorlik, chet el kapitali, investorlar jalb etish uchun davlat garanti va turgun siyosiy xolat mavjudligi;

Yuqorida sanab utilganlarda belgilardan O'zbekiston Respublikasi mineral xom-ashyo salohiyatini alohida aytib o'tish mumkin. CHunki D. Mendeleev jadvalidagi deyarli barcha elemenlar mavjud bo'lib, u chet el ekspertlari tomonidan 3.3 trln dollar qiymatida baxolangan. Shu bilan birgalikda xar yili O'zbekiston Respublikasi nedirlaridan 5.5 mlrd AQSH dollari miqdorida er osti kazilma boyliklari kazib olinadi, xar yili er osti va er usti zaxiralari 6-7 mlrd. dollarga usadi. Shu bilan bir qatorda respublikmizda mavjud ana shu salohiyatdan va yaratilgan iqtisodiy jarayondan samarali foydalanish zarur. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka bevosita ko'mak beruvchi bir qator davlat institutlari tashkil etilgan ular: tovar ishlab chiqaruvchilar palatasi, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab quvvatlovchi fond (biznes

fond), “Madad” va “Uzbekinvest” eksport import milliy sugurta kompaniyasi, maxsuslashtirilgan aktsiyadorlik tijorat “Tadbirkorbank”, respublika tovar birjasi va fond birjasi, biznes-inkubatorlar, ko’chmas mulk birjasi va boshqalar.

O’zbekiston Respublikasi xukumati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun rivojlangan chet el banklarining kreditlarini jalb etish bo’yicha samarali ishlar olib bormokda. Shu maqsadda 2002 yilda chet el kreditlari respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo’llab quvvatlash uchun 700 mln. AQSH dollari miqdorida kredit jalb etildi. Biznes fond 2002-2003 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari uchun 25 ta investitsion proektlarni xususiylashtirish yuli bilan tushgan mablaglar hisobidan 5,7 mlrd. sum ajratildi.

Osiyo taraqqiyot banki kichik va o’rta qishloq xo’jalik korxonalarini qayta jixozlash maqsadida 724 mln. AQSH dollari miqdorida mablag ajratdi. Shunday qilib juda katta geostrategik, zaxirali insoniy intellektual va ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo’lgan va respublikamiz mustaqilligi bilan uygunlashib ketgan jarayon hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini bozor sharoitiga moslashtirish uni rivojlantirish (masalan Respublikada sanoat ishlab chiqarishni o’sishi 2010 yilda 2009 yilga nisbatan 103,1 % darajasida usdi.) Respublika tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish va tashqi savdo aylanmasini o’sishiga erishish. O’zbekiston Respublikasini jahon arenalarida hurmatini oshirish integratsion aloqalarini kengaytirish va chuqurlashishi uchun muhim sharoit yaratib beradi.

Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasini davlat sifatida 165 ta mamlakat tan oldi. Shulardan 120 tasi bilan diplomatik aloqalar urnatilgan. O’zbekiston Respublikasi bilan diplomatik aloqa o’rnatgan 120 ta mamlakatning 50 tadan ortigi Respublikamiz poytaxti Toshkentda o’z elchixonalarini tashkil etganlar. Respublikamizda 88 ta chet el mamlakatlarining vakolatxonalari va 13 ta nodavlat tashkilotlari tashkil etilgan va ular hozirgi kunda faoliyat ko’rsatmokda. O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi bilanok ko’p tomonlama xalqaro hamkorlik mexanizmiga faol kirishdi. Bir qator obruli xalqaro siyosiy iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar, BMT va uning institutlari; butun jahon banki, xalqaro valyuta fondi, xalqaro moliya korporatsiyasi, iqtisodiy rivojlanishga ko’maklashuvchi tashqitlotlar, Butun jahon bojxona tashkiloti

va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi bilan Xindiston mamlakati, Xitoy halk Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Vengriya Respublikasi, SHimoliy Koreya Respublikasi, Malaziya Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi, Germaniya Respublikasi, Amerika Qo'shma SHtatlari, Avstraliya mamlakati, Eron Islom Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi va boshqa davlatlar bilan hukumatlararo savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida kelishuv imzolangan.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik yangi ko'rinishi bu xar yilda bir marta o'tkaziladagan Amerika-O'zbekiston savdo palatasi hisoblanadi (AUSP). Bu savdo palatasining asosiy maqsadi savdo-iqtisodiy aloqalarini kengaytirish va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga Amerika investitsiyalari okimini ko'paytirishdan iborat. Bu tashkilot o'z ichiga Amerikaning 63 ta chet el mamlakatlari tomonidan tan olgan yirik kompaniyalari va korporatsiyalarini birlashtiradi bular "Boing", "Uayt end Keyns", "Koka-kola", "Katerpillar", "Kargil", "Dir end Kompani", "Enron", "Enkson", "Teksako", "Texnalodjiz", "Nyument end Mayying", "Amerkan interneyshnl", "Grinn", "Meyr Brain end plett". Ana shunday konferentsiyalarning birida 1998 yil Nyu-York Shaxrida AQSH ning 150 dan ortiq kompaniya va korparatsiyalari ishtirok etdi.

Yuqorida olib borilayotgan barcha tadbirlar natijasida chet el mamlakatlari sarmoyalarining hajmi yildan yilga oshib bormokda.

Chet el mamlakatlari sarmoyalari asosida O'zbekiston Respublikasida bir qator yirik qo'shma korxonalar tashkil etilgan bular: "Zarafshon-Nyuman", "UzDEUavto", "UzDEUelektroniks", "UzBAT", "UzItalmator" va boshqalar. Shu bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan davrdan so'ng 100 dan ortiq chet el investorlarining sarmoyalari bilan 3600 dan ortiq ko'shma korxonalar tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasini integratsion saloxiyatini tashkiliy bo'linmasi sifatida tashqi savdoni ko'radigan bo'lsak, shunday xulosa chiqarish mumkinki O'zbekiston Respublikasining integratsion pozitsiyasi sezilarli darajada oshdi, bu O'zbekiston Respublikasining jahon integratsion muxiti bilan o'zoro aloqasi xar xil bosqichlarda-Global (xalqaro iqtisodiy va moliya tashkilotlarda), Transkontenental (transosiyo iqtisodiy hamkorlik tashkiloti), Subregional (Mustaqil davlailar iqtisodiy hamkorlik tashkiloti), Xududiy (Markaziy Osiyo Respublikalari iqtisodiy hamkorlik tashkiloti)

mikro darajada (kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari darajasi) tashkil etilgan va bu rivojlantirilmokda.

Lekin milliy integratsion saloxiyatni barcha yuqorida ko'rsatilgan o'zaro aloqasini to'liq tadbqiq etish uchun uning anik mexanizmini ishlab chiqish kerak. Buning uchun iqtisodiy usullar, tashkiliy chegara va iinstitutlarni tushunish zarur.

O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy saloxiyatidan samarali foydalanish va uni tadbqiq etishni ta'minlash va jahon xo'jalik sistemasiga xar xil darajadagi integratsion aloqalarni va milliy integratsion jarayonini chuqurlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasini jahon iqtisodiy bozoriga kirib borishida integratsion saloxiyatini ikkita strategiyasi mavjud.:

1. Jahon bozoriga kirishning avtonom strategiyasi.
2. Xududiy integratsion bloklar bazalariga kelishilgan holda qo'shilish.

Jahon bozoriga kirishning avtonom strategiyasi O'zbekiston Respublikasi uchun juda ogir masala bo'lib unda tovar ishlab chiqaruvchilar jahon bozoridagi kuchli raqobatga bardosh berishlariga to'g'ri keladi. Shuning uchun xam dastlabki 1-chi bosqichda jahon bozorida faqatgina xom-ashyo va malakali arzon ishchi kuchini taklif etish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi.

Keyinchalik o'zaro munosabatlarni kuchaytirish natijasida iqtisodiy o'sishning lokal nuqtasini shakllantirish kelib chiqadi. Bunda O'zbekiston Respublikasi tashkilotlari sohalar kompleksi va xududlar chet el mamlakatlari investitsiyalariga sezilarli qizikishlari ortadi.

Bu – mexnat sigimi yuqori bo'lgan ekologik xavfsiz tashkilotlar, ishlab chiqarishning xom -ashyo soxasi.

Lekin jahon amaliyoti shuni ko'rsatdiki xududiy integratsion bloklarga qo'shilish jahon bozoriga kirib borish uchun juda ham samarali hisoblanadi, masalan, Jahon integratsion birlashmasi, Evropa Ittifoqi, SHimoliy Amerika integratsion bloki, NAFTA, Osiyo-Tinch okeani mamlakatlari xududiy koalitsiyasi va boshqalar.

Shu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasining tarixiy sotsial-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida O'zbekiston uchun alohida hudud doirasida ma'lum integratsion kenglik shakllantirish uchun ob'ektiv sharoit yaratildi.

So'z avvalom bor Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari ustida bormokda.

SSSR mamlakatining tarqalib ketishi natijasida bir qator yangi sub'ektiv davlatlar paydo bo'ldi. Shular qatorida O'zbekiston Respublikasi xam. Sobiq Ittifoqdagi Respublikalar o'rtasidagi aloqa birdaniga uzilganligi sababli yagona iqtisodiy xudud saqlanib qolinmadi. Real xolatda sobiq Ittifoqdosh Respublikalar o'rtasidagi aloqalar chet el davlatlari singari tashqi savdo ko'rinishni oldi. YA'ni sobiq Ittifoqdagi respublikalar o'rtasidagi aloqalarni yo'qotilishi dastlabki davrlarda sotsial iqtisodiy aloqalarni qiyinlashishiga olib keldi, bulardan tashqari sobiq Ittifoqdosh respublikalarni xavfsizligiga ham taxrid solindi. Natijada 1993-1994 yillarda mustaqil davlatlar hamdustligi MDX integratsion tuzilma tuzishga va ana shu tuzilma tarkibida yagona iqtisodiy xudud tuzish g'oyasi paydo bo'ldi. Va 1993 yil 24 sentyabrda yagona iqtisodiy hudud tashkil etish bo'yicha shartnoma imzolandi. Ushbu shartnoma tomonlarni xo'jalik sub'ektlari o'rtasida o'zaro teng huquqlilik va bozor printsiplari asosida va yagona iqtisodiy xududni tashkil etish va uni takomillashtirishni bosqichma - bosqich amalga oshirishga kelishilib olindi. Yagona iqtisodiy xudud to'g'risidagi shartnoma bir qator bosqichlarini nazarda to'tgan:

- ko'p tomonlama erkin savdo assotsiatsiyasini tuzish;
- yagona bojxona Ittifoqini tuzish;
- to'lov Ittifoqini tuzish;
- yagona mustaqil davlatlar hamdo'stligi umumiy bozorga o'tish.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi Iqtisodiy hamkorlik Kengashi o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirish, ko'pgina a'zo mamlakatlar fikriga ko'ra majburiy xarakter kasb etmaydi, chunki bu hamkorlik tashkiloti millatlarni keltirib chiqaruvchi va ularni mustaqilligi va erkinligini chegaralovchi millatlararo xokimiyat va boshqaruv tashkil qilmaydi. O'zbekiston Respublikasi uchun mustaqil davlatlar hamdo'stligi iqtisodiy tashkiloti ichida asosiy va eng muhim strategik sherik bo'lib Rossiya Federatsiyasi hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Rossiya Federatsiyasi bilan qalin xo'jalik aloqalarini o'rnatgan. Buni O'zbekiston Respublikasi bilan Rosiia Federatsiyasi o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasidan ham ko'rish mumkin. 2010 yilda O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasini 28% Rossiya Federatsiyasi ulushiga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich 1989 yilda 53 % ni 2000 yilda 17% ni

tashkil etgan. Shuning uchun ham ushbu yo'nalishni saqlab qolish va uni rivojlantirish Respublikamizni tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojdlantirishga yangi turtki bo'ladi, chunki yaqinda ikki mamlakat o'rtasida strategik sherikchilik to'g'risida xukumatlararo kelishuv imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi integratsion salohiyatini muhim strategik yo'nalishlaridan yana biri bo'lib bu Respublikamizni O'rta Osiyo Respublikalari bilan yaqin hamkorligi hisoblanadi. Shuning uchun xam O'rta Osiyo Respublikalari 1992 yil yanvar oyida birlashib mamlakatlararo iqtisodiy birlashma tuzdilar va uni nomini Markaziy Osiyo xududiy hamdo'stligi (TSARS) deb atadilar va hamdo'stlik tarkibida 5-ta markaziy Osiyo Respublikalari a'zo bo'ldidar. Bular-O'zbekiston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi va Turkmaniston Respublikalaridir.

Bu hamdo'stlikning asosiy maqsadi yagona ichki bozorni shakllantirish yo'li bilan xududiy iqtisodiy integratsiyaga erishish va bundan tashqari iqtisodiyotning oliy bosqichi sifatida transosiyo iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga Markaziy Osiyo xududiy hamdo'stlik a'zolarini integratsiyalash edi. Bu esa Markaziy Osiyo davlatlari hamkorlik tashkiloti a'zolari tomonidan oldindan rejalashtirilgan asosiy yo'nalish edi.

O'rta Osiyo xududida iqtisodiyot va ta'minotni boshqarish bir-xil tizimligi, yuqori ishlab-chiqarish darajasi bir xilligi, qishloq xo'jalik ekinlarini o'xshashligi, transport va energo ta'minot yagona integratsiyani ravnaqini belgilaydi.

Shular bilan bir qatorda ayrim faktorlar muhim o'rin tutadi, bular qatoriga quyidagilar kiradi:

- xududni o'z-o'zini barcha turdagi energetik, mineral va qishloq xo'jalik xom-ashyosi bilan ta'minlanish;
- sezilarli darajadagi yalpi eksport saloxiyati;
- kuchli yalpi ishlab chiqarish saloxiyati;
- mexnat resurslari va qiyosiy arzon ishchi kuchi;
- suv resurslaridan rotsional va hamkorlikda foydalanish imkoniyati;
- ekologik, iqtisodiy va siyosiy xavfsizlikni ta'minlashga erishishda maqsadlarni umumiyligi;

Yuqorida keltirilganlarning xammasi Markaziy Osiyo xududida mamlakatlarining integratsiyasiga ob'ektiv zamin yaratadi.

1994 yil Qozog'iston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikalari o'rtasida integratsion saloxiyatni amalga oshirishni ko'zda tutuvchi bir qator tadbirlarni amalga oshirish Bo'yicha shartnoma imzolandi. Ushbu masalalarni hal etish o'z navbatida xududiy iqtisodiy birlashma tarkibidagi integratsion institutlar oldidagi asosiy maqsadlardan biridir.

Integratsion jarayonlarini kengaytirish kompleks choralariga asosiy o'rin transport faktoriga, asosan suv transportiga ajratiladi:

Sobiq Ittifoq tarqalgungacha barcha o'zining shaxsiy portiga ega bo'lmagan Ittifoqdagi respublikalar o'zlarining shaxsiy portlariga ega bo'lishlariga ehtiyoj sezmasdilar, chunki ular Rossiya, Ukraina, Boltiqbo'yi respublikalari va Gruziya portlaridan teng xuquqli sub'ektlar sifatida foydalanadilar.

Sobiq Ittifoq tarqalib respublikalar mustaqil bo'lganidan keyin barcha o'z portiga ega bo'lmagan Respublikalar singari O'zbekiston Respublikasi xam bu soxada ancha qiyinchiliklarga uchradi.

Bu qiyin masalani hal etish yulidagi birinchi qadam 1993 yilda Belgiyani Bryussel shaxrida O'rta Osiyo respublikalari va Kavkaz mintaqasi Respublikalari, bundan tashqari Evropa Ittifoqi mamlakatlari vakillari tomonidan Markaziy Osiyo Respublikalari Gruziya va Ozarbayjon Respublikalar orqali Qora dengizga chiqish yulida «Evropa-Kavkaz-Osiyo» transport koridorini tashkil etish bo'yicha deklaratsiya qabul qilinishi bo'ldi. 1998 yil 8 sentyabrda Azarbayjon Respublikasining Baku shaxrida bo'lib etgan xalqaro konferentsiyada «Evropa – Kavkaz - Osiyo» transport koridorini rivojlantirish bo'yicha ko'p tomonlama kelishuv imzolandi.

Bu esa ko'pgina mamlakatlarga shu jumladan O'zbekiston Respublikasiga ham tovarlarni transport xarajatlarini kamaytirgan holda eng qiska yo'llar orqali tashish imkoniyatini ochib beradi. Ushbu transport koridori orqali bir tonna paxtani tashish xarajati ikki marotabaga qisqaqadi.

Iqtisodiy integratsiyani yuqorida keltirilgan ijobiy tomonlaridan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasini yanada Tashqi Iqtisodiy faoliyatini erkinlashtirib jahon hamjamiyatiga integratsiyasini chuqurlashtirsa shunchalik halqimiz uchun va respublikamizni kelajakda rivojlanishi uchun zamin xozirlangan bo'ladi.

Qisqacha xulosa

Zamonaviy integratsion tizimning shakllanishi, ma'lumki, bojxona ittifoqi yaratilishidan boshlandi. Shu sababli, iqtisodiy integratsiyaning nazariy jihatdan tushunishning boshlang'ich o'rinishlari uning shu ideal tipidan boshlandi.

GATT qoidalari har qanday cheklovlarsiz erkin savdo hududiy zonalari va bojxona ittifoqlarini tashkil etishga ruxsat berardi (XXIV modda). Bunga sabab, bu xalqaro tashkilot xalqaro savdoni bo'g'uvchi milliy proteksionizmning xukmronligi davrida paydo bo'ldi. Shuning uchun har qanday, hattoki bojxona to'siqlarini olib tashlash yo'lidagi chegaralangan qadam shu davrda juda katta yutuq hisoblanar edi.

Faqatgina 50-yillarga kelibgina tadqiqotchilar jamoatchilik diqqat-e'tiborini erkin savdo zonalarini va bojxona ittifoqlarini tashkil etish shubhasiz dunyo miqyosida erkin savdo paradigmasidan chekinish ekanligiga qarata boshlashdi.

Nazorat savollari

1. Iqtisodiy integratsiya deganda nima tushinasiz?
2. iqtisodiy integratsiya bo'yicha jahon tajribasi to'g'risida gapiring?
3. O'zbekiston Respublikasining Jahon xo'jaligiga integratsiyasi uchun qanday imkoniyatlar mavjud?
4. O'zbekiston Respublikasining Jahon xo'jaligiga integratsiyasi uchun ko'maklashuvchi qasi faktorlarini bilasiz?
5. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi qaysi dalat institutlarini bilasiz?
6. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi qaysi xalqaro tashkilotlarni bilasiz?
7. O'zbekiston Respublikasini integratsion saloxiyatini tarkibiy bo'linmalari to'g'risida nimalarni bilasiz?
8. O'zbekiston Respublikasini integratsion muxitini Global, Transkontenental, Subregional, Xududiy iqtisodiy birlashmalari bilan aloqalari to'g'risida gapiring?
9. O'zbekiston Respublikasini Jahon bozoriga kirishini asosiy strategiyasi to'g'risida gapiring.
10. Mustaqil Davlatlar Respublikalarini iqtisodiy integratsiyasi to'g'risida gapiring.

Asosiy adabiyotlar

1. Бобохўжаев Ғ. «Божхона органлари фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2010. –230 бет.
2. Кучаров А., Тиллахўжаев Б. «Божхона таомиллари». Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ. 2009. –211 бет.
3. Кучаров А., Тоиров Ш. «Божхона иши». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2009. – 232 бет.
8. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.
9. Коник Н.В. Таможенное дело: Учеб. пособ. – М.: «Омега-Л», 2008. – 192 с. 2 экз

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Шомагдиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятида товар номенклатураси. Дарслик. Т:- ТДИУ. 2010. –196 бет.
2. Алиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятни давлат томонидан тартибга солиш. Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ, 2008. - 192 бет.
3. Драганов В.Г. Основы таможенного дела. Учебное пособие. – М.: 1998. 346-стр.
4. Шомагдиев А., Кучаров А., Ньматов И. Халқаро транспорт ташувлари.. Ўқув қўлланма. Т:- ТДИУ, 2010. –185бет
5. Свинухов В.Г. Таможенное дело. Учебник. М.: Экономист. 2008. – 298 стр.
6. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.
7. «Инкотермс»: Международные правила толкования торговых терминов. – М.: «Омега-Л», 2009. – 76 с.
8. Трошкина Т.Н. Таможенные платежи: Учебно–прак. пособ. М.: “Городец”, 2007. – 128 с. 2 экз
9. Удовенко С.П. Таможенный тариф современной России (1993-2005 гг.). – СПб.: ООО «Архей», 2006. – 402 с.

Internet saytlari

1. <http://www.asstra.ru/downloads/kvt.txt>
2. <http://www.abkhazeti.ru/pub/energyprojects>
3. <http://www.mcids.ru/default.asp>

4-bob. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini jadal yangilash

4.1. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan ishlar

O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish va modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash hamda iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini jadal yangilash masalalariga e'tibor hozirgi kunda, ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlaridan saqlanish davrida dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar asosan quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar negizida bajarilmoqta:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 1 iyundagi "2007-2011 yillardagi davrda qurilish materiallari sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash dasturi to'g'risida"gi Qarori;

- 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturi;


- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 12 martdagi "2009-2014 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnikaviy texnologik qayta jihozlash bo'yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarori.

Mamlakatimizda iqtisodiy o'sishga, aholi turmush darajasini yaxshilashga hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqobatdoshlik ko'rsatkichini oshirishga erishish, birinchi navbatda ishlab chiqarish sohasini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga bog'liq. Aynan shu borada Prezidentimiz Islom Karimov "Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini jadal yangilash biz uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettiriladi." degan fikrni ta'kidlab o'tdi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash o'z-o'zidan mamlakatimizda tovarlar ishlab chiqarish jarayonida

foydalaniladigan barcha turdagi iqtisodiy resurslarni oqilona ishlatishda asos bo'radi.



4.1.1.- rasm. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashning resurslarni tejashdagi ta'siri.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi" mavzusini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.:Iqtisodiyot, 2011 y., 166 bet


Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi turli mamlakatlar iqtisodiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatishda davom etayotgan bir vaqtda fan va texnologiyani jadal rivojlantirish va uning yutuqlaridan samarali foydalanishga talab tobora oshib bormoqda.

Mamlakatimizning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalangan holda, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar orqali nafaqat ichki bozorda, balki raqobat kurashi kuchayib borayotgan jahon bozorlarida ham o'z o'rnini topishida modernizatsiya jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarishning zamon talablariga javob berishidan korxona va firmalar bilan bir qatorda iste'molchilar ham naf ko'radi. Bu holni quyidagi sxemada ko'rish mumkin.

Bizga ma'lumki, har qanday mamlakat milliy boyligining ortishi, uning iqtisodiy o'sishi, faqat tabiiy resurslar hisobidan emas, balki ishlab chiqarishda foydalanilayotgan texnika va texnologiyasining rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq. Bu holatni buyuk matematik P.Piltser quyidagi formula orqali izohlagan:

$$W = R \times T \times n$$

Bu erda, W - mamlakatning boyligi, R - tabiiy resurslar, T - texnologiya, n - texnika taraqqiyotining texnologiyaga ta'sir darajasi.



4.1.2.-rasm. Yuqori texnologiyalardan foydalanishning ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarga bo'lgan ta'siri

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi" mavzusini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.:Iqtisodiyot, 2011 y., 167 bet.

2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'lida belgilangan asosiy vazifalar hisoblanmish islohotlarni davom ettirish, chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, 2009 - 2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini so'zsiz bajarish, makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash hamda iqtisodiyotning asosiy etakchi sohalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga

qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borish kabi dolzarb masalalar joriy yil uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Inqirozga qarshi choralar dasturiga binoan, mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb etish, birinchi navbatda ichki manbalarni yo'naltirish asosida iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, ikkinchidan, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish, uchinchidan esa, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini barpo etish ko'zda tutilgan edi.

Barcha qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga qaratilgan dasturlar avvalo aholi ehtiyojini to'la-to'kis va sifatli tovarlar bilan ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Xususan, Prezidentimizning 2009 yil 26 yanvardagi "Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1047 sonli qarori ham shu maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, unda asosan quyidagilarga ko'proq e'tibor qaratilgan:


- Ixtisoslashtirilgan "Mevasabzaavottayyorlovsavdo" kompaniyalarini yagona soliq to'lashdan ozod etish

- Asosiy faoliyat turi go'sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashayotgan mikrofirmalar hamda kichik korxonaalarning yagona soliq to'lovi stavkaasini 50% ga kaamaytirish

- Go'sht va sutn etishtirish hamda ularni qayta ishlashda foydalaniladigan, respublikada ishlab chiqarilmaydagan, chet eldan olib kelinadigan texnologiya uskunalari, ularning ehtiyot qismlari, yordamchi materiallar, tarkibiy qism va komponentlarni bojxonaa to'lovlari to'lashdan ozod qilish.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida qayd etilgan muhim ustuvor vazifalardan biri ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini jadal yangilashdan iborat ekani belgilab berildi. Ma'ruzada 2011 yilda iqtisodiyotga jalb etiladigan barcha investitsiyalarning 36,4 foizdan ortig'ini sanoatni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini amalga

oshirishga yo'naltirish ko'zda tutilayotgani hamda zamonaviy asbob-uskunalar xarid qilish xarajatlari umumiy kapital qo'yilmalar hajmining kamida 46 foizini tashkil etayotgani qayd etildi.



4.1.3.-rasm. Modernizatsiya va texnik va texnologik qayta jixozlash bo'yicha tasdiqlangan tarmoq dasturlari

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi" mavzusini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.:Iqtisodiyot, 2011 y., 166 bet

Rasmdagi loyihalarning amalga oshirilishi iqtisodiyot tarmoqlarini har tomonlama modernizatsiya qilish hamda texnik va texnologik qurollantirishga asos bo'ladi.

Shu jumladan, 2011 yilda 35 tadan ortiq yirik ishlab chiqarish korxonasi qurilishini yakunlash va ularni foydalanishga topshirish vazifasi ham ushbu ma'ruzada qayd etib o'tildi. Bu korxonalarga misol tarzida "Djeneral motors" kompaniyasi bilan hamkorlikda yiliga 225 ming dona avtomobil kuchlanish agregatlarini ishlab chiqaradigan korxona, "Indorama" kompaniyasi bilan hamkorlikda esa, yakuniy ishlab chiqarish shakliga ega bo'lgan to'qimachilik kompleksi, umumiy quvvati 30 ming tonna kalava ishlab chiqarishdan iborat bo'lan yana bir qator to'qimachilik komplekslarini keltirish mumkin.

Toshkent shahrida ko'p o'rinli "Mersedes-Bens" yo'lovchi avtobuslarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish, Muborak gazni qayta ishlash zavodi va "Sho'rtan neft-gaz" unitar korxonasida 400 ming tonna suyultirilgan gaz va gaz kondensati ishlab chiqaradigan qurilmalarni o'rnatish, Olmaliq va Navoiy kombinatlarining korxona va ishlab chiqarish quvvatlarini texnik qayta jihozlash, Bekobod metallurgiya kombinatini modernizatsiya qilish va boshqa shu kabi muhim loyihalarni amalga oshirish ham ma'ruzada ko'rsatib o'tildi.

Bundan tashqari, mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, etakchi tarmoqlarni jadal yangilashga qaratilgan bir qator loyihalar amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda. Shu maqsadda tarmoq dasturlariga qaratilgan ko'maklashuvchi dasturlar ham ishlab chiqilib, ushbu dasturlar ham o'z ichiga bir qancha loyihalarni oladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga ko'maklashuvchi dasturlar

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari va xo'jaliklararo yo'llarni qurish, ta'mirlash va qayta jihozlash

- Temir yo'llari qurilishi va elektrlashtirilishi

Elektr stantsiyalarni modernizatsiyalash, yuqori voltli elektr uzatish liniyalarini qurish va ta'mirlash

- Gaz uzatish uzatish tizimi va gaz taqsimlash liniyalarini kurish va kapital ta'mirlash

Xom-ashyo komponentlarini ishlab chiqarish maqsadida yirik sanoat korxonalarini qurilishini moliyalashtirish

- Mahalliy butlovchi qismlar ishlab chiqarishning rivojlanishini rag'batlantirish

Yangi texnologiyalar rivojlanishiga ko'maklashish, ilm-fan va sanoat o'rtasida o'zaro aloqalarini ta'minlash

- Logistika markazlarini rivojlantirish

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish muassasalarining zamon talablari darajasida faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida 2011 yilning oxiriga qadar, idoraviy mansubligidan qat'i nazar, barcha yirik korxona va ishlab chiqarish quvvatlarida jahon tajribasida sinovdan o'tgan zamonaviy texnologiyalar bilan almashtirilishi lozim bo'lgan uskuna va texnologiyalarning ro'yxatini aniqlash maqsadida ularni texnik auditdan o'tkazish dasturlarining bajarilishi Vazirlar Mahkamasi nazoratiga topshirildi.

Modernizatsiya qilish - ob'ektni yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va me'yorlarga, texnik shartlarga, sifat ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirish.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish - ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon.

Ma'ruzada modernizatsiya so'zining noto'g'ri tushunib kelinayotganiga ham alohida e'tibor qaratildi. Prezidentimiz Islom Karimov bu mavzuga to'xtalib, "Ming afsuski, biz modernizatsiya deganda, ko'pincha sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishni tushunishga o'rganib qolganmiz", deb qayd etdi.

Modernizatsiya so'zining tub ma'nosidan kelib chiqqan holda, nafaqat sanoat, balki iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, ob'ektlarni yangi talab va me'yorlarga, texnik shartlarga, sifat belgilariga mos holatga keltirish lozim. Ammo ba'zi o'rinlarda mamlakatni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash masalalari ko'proq sanoat tarmog'iga taaluqli degan fikrlar ham shakllanib qoldi. Ma'ruzada sanoat bilan bir qatorda iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi kabi etakchi sohasini ham modernizatsiya qilish, uning tarkibiga kiradigan

deyarli barcha tarmoq va ishlab chiqarish sohasining butun kompleksida texnik va texnologik yangilash ishlarini amalga oshirishga katta ehtiyoj sezilayotgani ta'kidlab o'tildi.

Quyidagi loyihalar viloyatlar kesimida tarmoq dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan yirik investitsion loyihalar hisoblanadi:

- ❖Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida - neft va gaz sanoatini modernizatsiya qilish dasturi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar;

- ❖Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida - Xonjizza konida polimetall rudasini qazib olish va qayta ishlash majmuasi (OTMK);

- ❖Qashqadaryo viloyati, SHo'rtan GKKda tozalangan metandan sintetik yoqilg'i ishlab chiqarish va Talimarjon GESini kengaytirish uchun quvvati 450 MVt bo'lgan ikkita gaz-bug' uskunasi o'rnatish;

- ❖Navoiy viloyatida ammiak va korbamid ishlab chiqaradigan qurilish; "Navoiy" erkin industrial zonasida amalga oshirilayotgan loyihalar va boshqalar;

- ❖Navoiy va Samarqand viloyatlarida - Zarmitan oltinkon zonasida qazib olish va qayta ishlash majmuasi (NKMK);

- ❖Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida - engil sanoat va charm poyabzal sanoatini modernizatsiya qilish dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar;

- ❖Toshkent viloyatida Dji Em Pauertreyn avtomobil dvigatellarini ishlab chiqarish zavodi (O'zavtosanoat) va boshqalar.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining sanoat tarmog'ini modernizatsiya qilish yo'lida ko'pgina ishlar amalga oshirilmokda. Shular qatoriga Prezidentimizning "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 2010 yil 21 dekabrda PQ-1442-sonli qarori ham ushbu sohani yanada rivojlantirishga asos bo'ladi. Qarorga muvofiq, jami qiymati 47,5 milliard AQSH dollariga teng 519 ta loyiha, shu jumladan, 2011 yilning o'zida 5,58 milliard AQSH dollari qiymatidagi 334 ta loyiha bajarilishi rejalashtirilgan.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish borasida, avvalo erlarning unumdorligini oshirishga alohida e'tibor berish muhimligi, bu sohadagi qilinayotgan ishlarning kengayib borayotganiga qaramasdan, sug'oriladigan

ob'ektlarning mavjud meliorativ holati jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligi e'tirof etildi.

Jami 30,1 mlrd. dollar qiymatidagi 260 ta loyiha bo'yicha bo'yicha moliyalashtirish manbalari aniqlangan va kelishilgan;

Jami 6,4 mlrd. dollar qiymatidagi 100 ta loyiha tayyorlash jarayonida (chet el investorlari, moliyalashtirish shartlari va manbalarini aniqlash);

Jami 11,0 mlrd. dollar miqdoridagi 159 ta istiqbolli loyiha bo'yicha dastlabki ishlar olib borilmoqda;

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda mamlakatimizda jami sug'oriladigan erlarning deyarli 49 foizi turli darajada sho'rlangan bo'lib, buning qariyb 18 foizi kuchli va o'rta darajada sho'rlangan erlardir. Sug'oriladigan erlarning 23 foizidan ortiqroq qismi boniteti past erlar toifasiga mansub. Meliorativ holati qoniqarsiz erlarning katta qismi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Jizzax va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri kelishi ma'lum bo'ldi.

Ma'ruzada meliorativ holati qoniqarsiz darajaga kelgan erlarni yaxshilash va unumdorligini oshirishga qaratilayotgan investitsiyalar hajmini kelgusi davrlarda tobora ko'paytirib borish darkorligi aytib o'tildi. Ayni paytda sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash orqali qishloq xo'jaligi sohasida samaradorlikni oshirish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilish borasidagi ishlarni tartiga solish lozimligiga e'tibor qaratildi.

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilaetgan ishlarning ko'lamini keng bo'lishiga qaramasdan, chorvachilik, g'allachilik, kartoshkachilik kabi sohalarida zamonaviy sug'orish tizimlari va energiyani tejaydigan texnologiyalardan foydalanish hamda bu boradagi rivojlangan mamlakatlar tajribalarini tatbiq etish sust darajada bajarilmoqda.

Chorvachilik sohasida erishilayotgan natijalar borasida quyidagi ma'lumotlar keltirib o'tildi, ya'ni sut sogib olish bo'yicha ko'rsatkich Daniya

va Janubiy Koreyada o'rtacha 8-9,5 ming kilogrammni, Vengriya, Germaniya, Gollandiya mamlakatlarida esa, 6-7 ming kilogrammni tashkil etsa, bizning respublikada bu raqam 1,7 ming kilogrammdan oshmayotgani ta'kidlab o'tildi.

Bu hol faqatgina iqlim sharoitiga emas, balki shu sohada foydalanib kelinayotgan texnika va texnologiyalar darajasiga ham bog'liq. SHuning uchun Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga zamonaviy agrotexnologiyalarni o'rganish va amalda qo'llash masalalari bilan chuqur shug'ullanish, selektsiya ishlarini tobora takomillashtirish va qishloq xo'jaligida unumdorlik ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi.

Qishloq xo'jaligida foydalanib kelinayotgan chopiq traktorlarining 55 foizidan ko'prog'i va er haydaydigan traktorlarning qariyb 46 foizidan 15 yildan ortiq vaqt mobaynida foydalanib kelinayotgani, ularning quvvati, ish unumi va yoqilg'i iste'mol qilish darajasi zamonaviy talablarga javob bermasligi aniq bo'ladi.

Qishloq xo'jaligiga tegishli shunga o'xshash dolzarb masalalarni hal etish maqsadida ma'ruzada qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, mahsulotni ishlab chiqarish, uni qayta ishlash sohalarini texnik va texnologik jihatdan yangilash hamda er unumdorligini oshirish bo'yicha maxsus dastur tayyorlash lozimligi ham ko'rsatib o'tildi.

Qishloq xo'jaligida texnik va texnologik qurollantirish ishlarini bajarishda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan chuqur foydalanish hamda ular bilan yaqindan hamkorlik qilish lozim. Bu borada Prezidentimiz Germaniyaning "Klass" kompaniyasi bilan zamonaviy, ish unumi yuqori bo'lgan traktorlar, g'alla o'rish kombaynlari hamda boshqa qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarish bo'yicha hamkorlikni yanada kengaytirishga e'tibor qaratilishini aytib o'tdi.

Asosiy adabiyotlar

1. Бобохўжаев Ғ. «Божхона органлари фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2010. –230 бет.
2. Кучаров А., Тиллахўжаев Б. «Божхона таомиллари». Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ. 2009. –211 бет.
3. Кучаров А., Тоиров Ш. «Божхона иши». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2009. –

232 бет.

10. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.

11. Коник Н.В. Таможенное дело: Учеб. пособ. – М.: «Омега-Л», 2008. – 192 с. 2 экз

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Шомагдиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятида товар номенклатураси. Дарслик. Т:- ТДИУ. 2010. –196 бет.

2.Алиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятни давлат томонидан тартибга солиш. Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ, 2008. - 192 бет.

3.Драганов В.Г. Основы таможенного дела. Учебное пособие. – М.: 1998. 346-стр.

4. Шомагдиев А., Кучаров А., Ньматов И. Халқаро транспорт ташувлари.. Ўқув қўлланма. Т:- ТДИУ, 2010. –185бет

5.Свиных В.Г. Таможенное дело. Учебник. М.: Экономист. 2008. – 298 стр.

6. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.

7. «Инкотермс»: Международные правила толкования торговых терминов. – М.: «Омега-Л», 2009. – 76 с.

8. Трошкина Т.Н. Таможенные платежи: Учебно–прак. пособ. М.: “Городец”», 2007. – 128 с. 2 экз

9. Удовенко С.П. Таможенный тариф современной России (1993-2005 гг.). – СПб.: ООО «Архей», 2006. – 402 с.

Internet saytlari

1. <http://www.asstra.ru/downloads/kvt.txt>

2. <http://www.abkhazeti.ru/pub/energyprojects>

3. <http://www.mcads.ru/default.asp>

5-bob. Chet el investitsiyalarini keng jalb qilish, xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish

5.1. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda xorijiy investitsiyalarning o'rni

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruktsiya qilish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish katta hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu avvalambor aholi bandligi, uning ish haqi va daromadlarini oshirish kabi eng muhim ijtimoiy muammolarni echish imkoniyatini beradi. Shu boisdan ham mamlakatimizga xorijiy investitsiyalar jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy rag'batlantirish va ular uchun zarur sharoitlarni yaratib berish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etmay, ayniqsa, etakchi tarmoqlarda chet el investitsiyalari ishtirokini

kengaytirmay turib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uni modernizatsiya qilish, korxonalarni zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin-emas. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga

Hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan yana bir muhim ustuvor yo'nalish — chet el investitsiyalarini keng jalb qilish, xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga ulkan e'tibor qaratayotganimizni alohida tsayd etmokchiman.

Islom Karimov

xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi uning iqtisodiy imkoniyatlarining kengayishini tezlashtirib, barcha sohalarda ichki imkoniyat va rezervlarni ishga solish, yangi texnika va texnologiyani, eksportbop tovarlarni o'zlashtirish, ularni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali davlatimiz iqtisodiy qudratini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati nihoyatda katta bo'lib, u quyidagilar bilan izoxlanadi:

-birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

-ikkinchidan, import o'rmini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;

- uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kengaytirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;
- to'rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi.

Mamlakatimizda 2010 yilda 2009 yilga nisbatan 13,6 foizga ko'p, ya'ni 9 milliard 700 million AQSH dollariga teng mikdordagi investitsiyalar o'zlashtirildi, bu yalpi ichki mahsulotning qariyb 25 foizini tashkil etadi.

Ushbu investitsiyalarning salkam 72 foizi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga, jumladan, 38 foizga yaqini asbob-uskuna va ilgor texnologiyalar sotib olishga yo'naltirildi. SHu boradagi umumiy qo'yilmalar hajmida xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi 28,8 foizni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mikdori esa 2 milliard 400 million AQSH dollaridan ziyodni tashkil etdi.

Mustaqillik yillarida respublikamizga 33,6 milliard AQSH dolloridan ziyod xorijiy investitsiyalar jalb etilgan.

O'zbekistonda investorlar uchun, aytish mumkinki, ko'p jihatdan beqiyos, o'ta qulay investitsion muhit, imtiyoz va preferentsiyalar tizimi yaratilgan, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijii investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib borayotgani ham buning yorqin dalilidir.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning o'rni beqiyosdir. Bunda ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan. Quyida berilgan jadvalda mamlakatimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan investitsiyalarni yillar bo'yicha o'zgarish sur'ati keltirilgan.(-jadval)

5.1.1.-jadval

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jalb qilingan va to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan xorijiy investitsiyalar hajmining yillar bo'yicha o'zgarish sur'ati

Yillar	Xorijiy investitsiyalar (million AQSH dollari)	To'g'ridan-to'g'ri kiritilgan xorijiy investitsiyalar (million AQSH dollari)
2001	823,9	96,5
2002	516,5	80,1
2003	602,1	166,7
2004	754,6	333,8
2005	746,6	545,5
2006	895,7	683,8
2007	1009,3	768,4
2008	1700	1258
2009	2856	2264
2010	3635,2	3107,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi" mavzusini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.:Iqtisodiyot, 2011 y., 173 bet

Jadvaldan ko'rinib taribdiki, 2010 yilda xorijiy investitsiyalar hajmi 3,6 milliard AQSH dollaridan ko'proqni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2009 yildagidan qariyb 800 million AQSH dollariga ko'p ekanini kuzatish mumkin.

Xalqaro moliya institutlari va xorijiy kompaniyalar bilan tuzilgan shartnoma va bitimlar asosida 2011 yilda iqtisodiyotimizning real sektoriga 3 milliard AQSH dollaridan ortiq investitsiya kiritish ko'zda tutilmokda. SHuni ta'kidlash kerakki, bu mablag'ning 2 milliard 200 million AQSH dollaridan ortig'i yoki 73 foizdan ziyodini to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari tashkil etadi.

***To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar** - o'zga mamlakat rezidentlari tomonidan boshqa mamlakat real aktivlariga mablag' kiritish, uni tasarruf etish va ularning ishlatilishi ustidan nazorat o'rnatish. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tavsifiga ko'ra, aktsiyalarning kamida 10 foiziga egalik qilish.*

Bu gazni qayta ishlaydigan zamonaviy zavod qurishni o'z tarkibiga olgan Qandim guruhi konlarini, shuningdek, Xauzak va SHodi konlarini o'zlashtirish, istiqbolli uglevodorod xomashyo konlarida geologiya-qidiruv ishlarini olib borish bo'yicha yirik loyihalardir.

5.1.2.-jadval

2011 yil davomida jalb qilinishi rejalashtirilayotgan xorijiy investitsiya va kreditlar, (million AQSH doll.)


Ko'rsatkichlar	2011 yil
Jalb qilinishi ko'zda tutilgan xorijiy investitsiyalar umumiy miqdori:	3723,8
Davlat investitsiya dasturi doirasida	3233,8
Xududiy investitsiya dasturlari doirasida	490,0
shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	2734,89

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi" mavzusini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.:Iqtisodiyot, 2011 y., 173 bet

To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari hisobidan iqtisodiyotimizning ko'plab tarmoqlarida 70 tadan ortiq investitsiya loyihasini amalga oshirish mo'ljallanmoqda.

Ayni vaqtda Navoiy viloyatida ammiak va karbamid ishlab chiqarish kompleksini barpo etish, Qoraqalpog'iston Respublikasida tsement zavodi qurish, Toshkent viloyatida turli mato va tikuvchilik mahsulotlari, tayyor dori preparatlari ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha loyihalar ham shular qatoriga kiradi. Bular - to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan barpo etiladigan istiqbolli ob'ektlarning bir qismini tashkil etadi, xolos.

Xalqaro statistikada investitsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar turiga kiritish bo'yicha har xil yondashuvlar mavjud. Xorijiy investorlar tomonidan nazorat qilish huquqini belgilovchi ko'rsatkich sifatida ular ega bo'lgan aktsiyadorlik kapitalining hissasi ko'rsatkichidan foydalaniladi (-rasm).



5.1.1.-rasm. Bir qator mamlakatlarda aktsiyadorlik kapitalida xorijiy investorning nazorat qilish xuquqini beradigan hissasi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi" mavzusini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.:Iqtisodiyot, 2011 y., 174 bet

Bu ko'rsatkich AQSHda 10 foiz, Frantsiya va Buyuk Britaniyada 20 foizga yaqin, Germaniyada 25 foizdan 50 foizgacha, O'zbekistonda esa 49 foiz darajasida belgilangan. Shuningdek, korxona boshqaruvida bevosita amalga oshirilayotgan investitsiyalarning uzoq muddatli ekani ham uning muhim belgilaridan biridir. Investitsiyaning bu ko'rinishi tavakkalchilikni, investitsiyalardan foydalanish samaradorligi uchun mas'uliyatni davlat va aholi zimmasiga yuklamasdan, balki ularni tadbirkorlik tizimlari o'rtasida taqsimlashning eng yaxshi va sinalgan usuli hisoblanadi.

Prezidentimiz o'z ma'ruzasida "...ishonchim komilki, xorijiy sheriklarimiz bilan o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirish, mamlakatimizda yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirish uchun hali ishga solinmagan imkoniyatlarimiz etarli. Sodda qilib aytganda, bu borada ishonchli kafolatlarni yaratish, xorijiy investorlarning ishonchini qozonish va mustahkamlash darkor", deb ta'kidlab o'tdi.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqyosda jalb qilish, ularni o'z mablag'larini mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun sarflashga

qiziqtirish maqsadida qonun asosida imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan. Ular quyidagi chizmada o'z ifodasini topgan.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning bir maromda faoliyat yuritishi va investorlarning huquqlari himoya qilinishi uchun tegishli me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Soliq kodeksi chet el sarmoyalarini amalga oshirishning huquqiy asos va tartibini belgilab beradi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston hududida xorijiy kompaniyalar faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayoni asosan nihoyasiga etkazildi va amalda qo'llanmokda. Bu faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning quyidagi tizimi ishlab chiqilgan:

- xususiylashtirish jarayonida xorijiy investitsiyalarning qatnashishi;
- texnikaviy qayta qurollanish;

- xalq iste'moli tovarlari va eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish.

O'zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalarning davlat foydasiga musadara va rekvizitsiya qilinmasligiga kafolat beradi.

Xorijiy investorlarning qonuniy faoliyati doirasida ishlab topgan daromadlari xorijiy valyutada chegaralanmagan miqdorda chegaradan olib o'tilishi davlat tomonidan kafolatlanadi.


O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o'zlashtirish maqsadida investorlarga bir qator imtiyozlar (iqtisodiy platforma) beriladi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan korxonalar (savdo, vositachilik, xomashyo etkazib beruvchilardan tashqari) ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab:

daromad (foyda) solig'idan birinchi yilning 25 foizlik qismidan, ikkinchi yil 50 foizlik qismidan, uchinchi yil 100 foizlik ozod qilinadi, qishloq hududida esa birinchi yildan boshlab bunday soliqdan 100 foiz ozod qilinadi;

- mulk solig'idan 2 yilga ozod qilinadi;

- ishlab chiqargan mahsulotining 30 foizdan ortig'i eksportga chiqarilsa, 50 foiz daromad solig'idan (foyda solig'i), 15-30 foizi eksportga chiqarilsa, 30 foiz daromad (foyda) solig'idan ozod qilinadi;
- ishlab chiqarish bilan band bo'lsa, er solig'idan 2 yilga ozod qilinadi.



5.1.2.-rasm O'zbekiston Respublikasida yaratilgan imtiyozli moliyaviy sharoitlar

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi" mavzusini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.:Iqtisodiyot, 2011 y., 175 bet

O'zbekiston Respublikasida alohida sohalarga imtiyozlar berish ko'zda tutilgan. Unga ko'ra, neft va gaz konlarini ochish va qidirish ishlariga xorijiy kompaniyalarni jalb qilgan korxonalar ushbu ishlarni amalga oshirish davrida

barcha soliqlardan, shuningdek, zarur uskunalarni import qilishda bojxona to'lovlaridan ozod qilinadi.

Mazkur sohadagi korxona chet ellik hamkorlar bilan birgalikda ochilsa: neft va gaz qazib chiqarilgan kundan boshlab 7 yilga daromad (foyda) solig'idan; xorijiy hamkorlar ulushiga mansub kapitaldan olinadigan daromad va mulk solig'idan ozod qilinadi.

Engil sanoat sohasida:

tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar qo'shimcha qiymat solig'idan tashqari barcha soliqlardan ozod qilinadi;

- o'z ehtiyoji uchun ishlab chiqarish uskunalari, ehtiyot qismlarni import qilishda korxonalar bojxona to'lovlaridan ozod qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruktsiya qilish, ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarda yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta'minlashga qaratilgan. Unga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo'yicha daromad solig'i, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga majburii ajratmalar to'lashdan xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda ozod qilinadi:

- 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha - 3 yil muddatga;
- 3 milliondan ortiq AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha - 5 yil muddatga;
- 10 million AQSH dollaridan ortiq bo'lganda - 7 yil muddatga.

Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, boshqa manfaatdor tuzilmalar qisqa muddatlarda xorijiy investorlar faoliyati uchun yaratilgan amaldagi sharoitlarni chuqur va tanqidiy o'rganib chiqish hamda to'gridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb

qilishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishga kirishgan. Ushbu takliflarni tayyorlashda mavjud normativ bazani, investorlarni jalb etish va xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil qilingan korxonalarni ro'yxatga

olishning tartib-qoidalarini, ularni himoya qilish bo'yicha ishonchli kafolatlarni yanada takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmokda.

Hozirgi kunda respublikamizda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning quyidagi manbalari mavjuddir:

1. Korxona va jismoniy shaxslar jamg'armalari.
2. Bank kreditlari hisobidan moliyalashtirish.
3. Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobidan moliyalashtirish.
4. Xorijiy investitsiyalar.

So'nggi yillarda investitsiyalar tarkibi, xususan, byudjetdan ajratiladigan investitsiyalar va bank kreditlarning salmog'i keskin o'zgardi.

Ayni paytda investitsiyalarning moliyaviy manbalari tarkibiy tuzilishida ham sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi (3.1.3-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, investitsiyalarning moliyaviy manbalari tarkibida davlat byudjetining ulushi 2005 yildagi 12,7 foizdan 2010 yilda 7,4 foizga qadar pasaygan. Chet el investitsiyalarining ulushi esa, aksincha, 19,2 foizdan 28,8 foizga qadar ko'tarilgan.


Mamlakatimizda 2011 yil uchun amalga oshirish belgilab olingan investitsiya dasturida moliyalashtirishning sezilarli qismi korxona mablag'lari (36,4 foiz) hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish (18,5 foiz) orqali amalga oshirilishi rejalashtirilgan (-rasm). Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari, aholi mablag'lari, Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari hisobiga 2011 yilda jami investitsion mablag'larning 29 foizi to'g'ri kelishi nazarda tutilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, asosiy e'tibor korxona mablag'lari va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ko'lamini oshirish va buning natijasida ishlab chiqarishning texnik va texnologik quvvatlarini modernizatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali aholining yuqori daromad olishiga erishish, shu asosda xalqimiz farovonligini oshirish maqsad etib qo'yilgan.

2005-2011 yillarda investitsiyalar tarkibining o'zgarishi, (foizda)

Moliyalashtirish manbalari	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.
Davlat byudjeti	12,7	10,7	9,0	9,0	8,1	7,4	5,1
Chet el investitsiyalari	19 2	19,0	22,8	25,8	32,4	28,8	25,3
Korxonalar va aholi mablag'lari	60,3	60,0	59,0	53,9	46,9	47,3	49,0
Boshqa manbalar	7,8	10,3	9,2	11,3	12,6	16,5	20,6

manba: Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi" mavzusini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.:Iqtisodiyot, 2011 y., 174 bet

2011 yil Davlat investitsiya dasturining aniq manzilli qismi bo'yicha



5.1.3-rasm. 2011 yil Davlat investitsiya dasturining aniq manzilli qismi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi" mavzusini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.:Iqtisodiyot, 2011 y., 178 bet

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag'lardan, vaqt va imkoniyatdan samarali foydalanishga, amaldagi shart-sharoitlardan kelib chiqib, boyliklarni samarali joylashtirish va shu yo'l bilan respublika iqtisodiyotini yuksaltirish, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga rag'batlantirish yo'li bilan investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

5.1.4-jadval

2006-2010 yillar davomida davlat investitsiya dasturlari doirasida jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning o'sish sur'ati, million AQSH doll.

	2006 y.		2007 y.		2008 y.		2009 y.		2010 y.	
Jami, shu jumladan:	895,8	100 %	1285,9	100%	1882,0	100%	2941,7	100%	3284,64	100%
Hukumat kafolati ostidagi kreditlar	211,9	23,7%	272,3	21,2%	458,8	24,4%	445,9	15,2%	527,3	16,1%
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	683,9	76,3%	1013,6	78,8%	1423,2	75,6%	2495,8	84,8%	2757,4	83,9%
Loyihalar soni	176		116		109		114		163	

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi" mavzusini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.:Iqtisodiyot, 2011 y., 179 bet

Mamlakatimizdagi mavjud ichki resurslarimiz ko'lamini kengaytirish borasida Tiklanish va taraqqiyot fondining rolini kuchaytirish g'oyat muhim o'rin tugadi. Hozirgi vaqtda 6 milliard AQSH dollaridan ortiq mablag'ga ega bo'lgan ushbu Fond strategik muhim investitsiya loyihalarini xorijiy investorlar bilan birgalikda moliyalashtirishda etakchi sheriklardan biri sifatida faoliyat olib bormoqda.

2011 yilda mazkur Fondning mablag'lari hisobidan qiymati 780 million AQSH dollaridan ortiq bo'lgan 24 tadan ziyod loyihani moliyalashtirish ko'zda tutilayotgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 2,1 barobar ko'pdir.

Bu loyihalar sirasiga, eng avvalo, Surgil koni bazasida Ustyurt gaz-kimyo majmuasini barpo etish, Qalmoqqir konini kengaytirish va rekonstruktsiya qilish, Navoiy issiqlik elektr stantsiyasida bug'-gaz moslamasini qurish, YAngi Angren issiqlik elektr stantsiyasining beshta energiya blokini yil davomida ko'mir asosida ishlash tizimiga o'tkazish, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining misni boyitish fabrikasini rekonstruktsiya qilish va boshqa loyihalar kiradi.

Fondning xorijiy sheriklar bilan birgalikda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish borasidagi samarali hamkorligiga misol sifatida Talimarjon issiqlik elektr stantsiyasida umumiy qiymati 1 milliard 280 million AQSH dollarilik ikkita bug'-gaz moslamasini qurish loyihasini keltirish mumkin.

Chet el investitsiyalari deb, chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek, chet el investitsiyalaridai olingan har qanday daromad e'tirof etiladi. ("Chet el iniestitsiyaliri to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 3-modda.)

Ushbu loyihani amalga oshirishda O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot fondidan tashqari Osiyo taraqqiyot banki va YAponiya xalqaro hamkorlik agentligi kabi xorijiy sheriklar investor sifatida ishtirok etmokda.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va chet el investitsiyalarini jalb qilishning kengayib borishi darajasiga qarab, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, bevosita chet el investitsiyalarini yangi loyihalarga, shuningdek, xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining katta qismini investitsiya faoliyatiga jalb qilishni ham nazarda tutadi. Bunda chet el investitsiyalari oqimini rag'batlantirish, shu bilan birga, milliy iqtisodiyot sub'ektlarining bu faoliyatda ishtirok etishini taqdirlash muhim o'rinda turadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 21 dekabrda qabul qilingan PQ-1446-sonli qarori doirasida, 2011-2015 yillarda transport va kommunikatsiya, infratuzilmani rivojlantirish uchun jami 6935,5 million dollar miqdorida investitsiyalar jalb qilinishi rejalashtirilgan. Jumladan, moliyalashtirish manbaiga ko'ra:

- xorijiy investitsiyalar va kreditlar - 3235,9 million AQSH dollari;
- O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot Fondi - 461,1 million AQSH dollari;

- Davlat byudjeti va maqsadli davlat fondlari - 1934,5 million AQSH dollari;
- o'z mablag'lari - 1304 million AQSH dollarini tashkil qiladi.

O'zbekiston ulkan xorijiy investitsiyalar yo'naltirilayotgan mamlakatlar guruhiga kirish uchun barcha shart-sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator afzalliklarga ega. Bu borada jahon hamjamiyati oldida o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo xaritasidagi geografik joylashuvi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxirasi, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan muhim rol uynaydi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy tushunchalaridan biri investitsiyalar tushunchasi bugungi hayotimizga keng va tez kirib kelishining o'zi uning mohiyati va ahamiyatini, zarurligini ko'rsatadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangi korxonalar sonining tobora ortib borishi va yangilari barpo etilayotgani davlatimizning bu sohaga bo'lgan katta e'tibori va ularga yaratib berayotgan qulayliklari natijasidir. SHu boisdan ham mamlakatimizga xorijiy sarmoyalarni jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy rag'batlantirish va ular uchun zarur sharoitlarni yaratib berish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

5.1.5-jadval

Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar

Jami korxonalar soni shu jumladan:	4563 ta
2010 yilda yangitdan tashkil etilgan korxonalar soni	536 ta
Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni	4201 ta
Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan korxonalar soni	1600 ta
Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar soni	362 ta
Korxonalarning tashqi savdo aylanmasi (milliard doll.) (21,3 milliard doll. respublika tovar aylanmasi)	7,8
Umumiy tashqi savdo aylanmasidagi ulushi	36,9 foiz

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi" mavzusini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.:Iqtisodiyot, 2011 y., 138 bet

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 yanvardagi PQ-1464-sonli qarorida mamlakatimizda 2011-2015 yillarda islohotlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish, iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiya qilish, qulay tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi:

- > huquqiy bazani yanada rivojlantirish va yangi qonunlar qabul qilish;
- > mamlakatimizda va hududlarda har tomonlama qulay biznes muhitini yaratish;
- > kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida soliq va boshqa to'lovlar bo'yicha qulay sharoit yaratish, imtiyoz va preferentsiyalar berish;
- > moliya-bank tizimini liberallashtirish, moliya va kredit resurslari bozorini mustahkamlash va rivojlantirish;
- > faol investitsiya siyosatini amalga oshirish hisobidan iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va uning tarkibini diversifikatsiya etish;
- > tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada liberallashtirish, unda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining keng ishtirokini ta'minlash.

5.2. O'zbekiston Respublikasining eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishi

Xalqaro aloqalarning jadallashuvi va kengayishi hozirgi bosqichda O'zbekiston bojxona xizmati xalqaro faoliyatining farqlovchi xususiyati hisoblanadi. Bojxonani rivojlantirishning bugungi kundagi ustuvorliklari O'zbekiston jahon hamjamiyatining ajralmas qismi hisoblanib aniq – ravshan tushunchadan kelib chiqadi, bu narsa esa Bojxona hamkorligi uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Bunday hamkorlik nafaqat JBT doirasida, balki O'zbekiston va dunyodagi boshqa davlatlarning bojxona xizmatlari o'rtasidagi ikki tarflama aloqalar yordamida ham amalga oshiriladi. Bojxona ishi sohasida AQSH, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Eron, Xindiston, Isroil, Koreya Respublikasi, Gretsiya, Turkiya, Misr, Belgiya, va Chexiya bilan xukumatlararo va idoralararo shartnomalar imzolangan. Hozirgi vaqtda boshqa mamlakatlar bilan bitimlar loyihalari ishlab chiqilyapti.

O'zbekiston Respublikasi o'zining tashqi iqtisodiy faoliyatida Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi va Boltiqbo'yi mamlakatlari bilan xalqaro

me'yorlarga asoslangan, muvozanatlangan va o'zaro foydali munosabatlarni rivojlantirishga intilayapti. Ozarbayjon, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Latviya, Litva, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston va Ukrainaning bojxona ma'muriyatlari bilan bojxona ishlarida hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risida xukumatlararo bitimlar imzolangan.

Hamkorlik BXRK – MDX ishtirokchisi bo'lgan davlatlar bojxona xizmatlarining raxbarlari Kengashi doirasida ham amalga oshirilayapti. 2003 yil dekabrda o'zining o'n yilligini nishonlagan ushbu bojxona Ittifoqi MDX xududi chegrasida bojxona amaliyotini birxillashtirish va uyg'unlashtirish masalalarini izchillik bilan hal qilayotgan to'laqonli ishchi tuzilmadir.

Osiyo taraqqiyot bankining Bojxona hamkorligi qo'mitasi (BXK) bojxona sohasida mintaqaviy hamkorlikka va mintaqaviy bojxona islohotlari hamda mintaqaning milliy bojxonalarini zamonaviylashtirishda keng qamrovli yondashuvga ko'maklashadi. U 2002 yilda tashkil etilgan va sharqiy hamda Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy iqtisodiy hamkorligi keng miqyosli dasturining muhim bo'g'ini hisoblanadi. BXK tarkibiga Ozarbayjon, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston, Mo'g'iliston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonning bojxona xizmatlari kiradi. BXKning axborotni jamlash va ayirboshlash masalalari, bojxona operatsiyalari, xatarlarni boshqarish va postlardan o'tish auditini, shuningdek, ma'lumot to'plash mintaqaviy tizimlarini rivojlantirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha ishchi gurixiga O'zbekiston bojxona xizmati raxbarlik qilib, u xalqaro bojxona amaliyotini isloh qilishga, jahon bojxona ishining olg'a qarab rivojlanishiga o'z hissasini qo'shmoqda.

Bugungi kunda xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va narkobiznes butun jahon hamjamiyatiga va xususan, Markaziy Osiyo mintaqasiga g'oyatda jiddiy tahdid solmoqda. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan O'zbekiston dunyodagi boshqa ma'rifatli mamlakatlar bilan birgalikda ushbu tahdidga qarshi turib, mintaqaga tashqaridan ta'sirini kuchaytirishga urinayotgan qora kuchlarga qarshi murosasiz kurashning mashaqqatli yo'lini tanladi. O'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" kitobida tahdidlar va hatarlar xaqida so'zlarkan, O'zbekiston Prezidenti I.Karimov ularni, birinchi navbatda, davlatning alohida geografik – siyosiy mavqei bilan bog'laydi: "O'zbekiston Fors ko'rfazi, Kaspiy dengizi xavzasi va Tarim xavzasining neft va gazga juda boy koonlari joylashgan yarim halqaning markazidir. Ya'ni bu

yarim halqa atrofida butun dunyoda energiya taqchilligi sharoitida yaqin yillarda Evrosiyo va jahon kelajagi uchun hal qiluvchi rol o'ynaydigan energiya zaxiralari mavjud".

Prezident, shuningdek, O'zbekiston SSSR tanazzulidan keyin amalda front yokasidagi davlat bo'lib kolganligini, uning chegaralari yaqinida buxronlarning ikki o'chog'i – Afg'oniston va Tojikistonda – avj olayotganligini ta'kidladi.

Afg'on muammosini darhol hal qilishning g'oyatda muhimligini respublika raxbari 1993 yildayoq, BMT bosh Assambleyasining 48-sessiyasida, 1999 yilda–Istambulda, EXXT sammitida, 2000 yil sentyabrda–Nyu-Yorkdagi BMTning Ming yillik sammitida qayd etdi. Afg'oniston vaqt o'tishi bilan shimolga xarbiy yurish qilish uchun platsdarmga aylandi. Mozori Sharif, Kunduz, Kandaxor, Jalolobod xarbiy lagerlariga xalqaro terrorchilar joylashib oldi.

BMTning Narkotiklar ustidan nazorat qilish xalqaro agentligi hisob-kitoblariga ko'ra, 2002 yilda Afg'onistonda ko'knori hosili taxminan 1900-2700 tonnani tashkil etgan. Terrorchilarga qarshi operatsiya davomida na heroin zahiralar, na uni tayyorlaydigan mini-zavoddlar amalda zarar ko'rgan.

Markaziy Osiyo hududi orqali jahon bozorlariga, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, ushbu davlatda tayyorlangan opiatlarning 65 foizi o'tadi va bu hajmning 20 foizga yaqini mintaqa mamlakatlarida qoladi.

O'zbekiston bojxonasi oldiga qo'yilgan vazifalarning muhimligini Prezident 2002 yili Toshkentda Jahon bojxona tashkiloti (WCO) homiyligida bo'lib o'tgan bojxona xizmatlari rahbarlarining xalqaro konferentsiyasi ishtirokchilariga murojaatida ta'kidladi:

“O'zbekiston Respublikasi vakillari mazkur anjumanda ishtirok etayotgan boshqa mamlakatlar kabi narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi va tarqatilishiga qarshi kurash muammolariga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Tobora ko'proq xudud va davlatlarni qamrab olayotgan bu mudxish jinoyatchilikning avj olishi ana shu illatga qarshi kurashda jahon hamjamiyatining sa'y-harakatlarini zudlik bilan jipslashtirishni takozo etmoqda. Narkobiznesga qarshi kurashda g'oyat keskin choralar tarafdori bo'lmish O'zbekiston bu borada zarur bo'lgan hamma ishni qilib keldi va bundan buyon ham bu yo'lda qat'iy turadi. Hozirgi zamon uchun g'oyat dolzarb mavzudagi konferentsiyani o'tkazishda O'zbekistonga ishonch

bildirilganligi mamlakatimizning bu olijanob ishga ko'shayotgan salmoqli hissasining Jahon bojxona tashkiloti tomonidan e'tirof etilishidir."

Ushbu xalqaro konferentsiyasida imzolangan Toshkent deklaratsiyasida quyidagilar bayon etilgan:

Buyuk Ipak yo'li yo'nalishida narkotiklarning g'ayriqonuniy aylanishiga qarshi kurashga bag'ishlangan xalqaro konferentsiya ishtirokchilari:

- narkotik vositalar va psixotrop moddalarning g'ayriqonuniy aylanishi salomatlikka va jamiyatining gullab-yashnashiga jiddiy hamda oshib boruvchi tahdid solayotganligini e'tirof etgan;

- narkokorchalonlarning faoliyati, xususan, g'ayriqonuniy narkotik vositalar va psixotrop moddalarini xalqaro miqyosda olib o'tishdan iboratligi va uyushgan jinoyatchilikni jalb etishni tushungan;

- xalqaro terrorizm narkotiklarni kontrabanda qilish va uyushgan jinoyatchilikning boshqa turlari hisobidan moliyalanishini bilgan;

- Buyuk Ipak yo'li yo'nalishining iqtisodiy va tijoriy ahamiyatini, Sharq va G'arbni birlashtiradigan ushbu strategik yo'l va temir yo'l arteriyasi bo'yicha qonuniy savdoning to'siqsiz oqimiga yordam berish zaruriyatini, shuningdek, bojxona ma'muriyatlarining jamiyatni himoya qilishni ta'minlash maqsadida savdoga yordam berish bilan nazorat o'rtasida to'g'ri muvozanatni qo'llab – quvvatlash majburiyatini ta'kidlagan;

- narkotiklarga qarshi kurash bo'yicha xalqaro shartnomalardan, shuningdek, bir-birlarini tushunish to'g'risidagi bitimlar, rezolyutsiyalar, memorandumlardan kelib chiqadigan, ishtirokchilar tomonidan qo'llanadigan majburiyatlarni e'tiborga olib;

- narkotiklar kontrabandasiga qarshi kurash JBT a'zolarining bojxona ma'muriyatlari uchun muhim ahamiyat kasb etishini va faqat milliy darajada choralarning qabul qilinishi, ushbu kulfatning global xususiyatini hisobga olganda, cheklangan samaraga ega bo'lishiga alohida ahamiyat berib;

- JBT a'zosi bo'lgan mamlakatlarning narkotiklar kontrabandasiga qarshi kurash uchun mas'ul boshqa xizmatlari, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilishdagi sa'y-harakatlarini qayd etib;

- JBT bilan Interpol, YUNDSP, Evropol va Narkotiklar hamda giyoxvandlik ustidan nazorat bo'yicha Evropa markazi, shuningdek Evropa Ittifoqi bilan hamkorlikka e'tiborni jalb etib;

- tuzilma va mexanizmlarni, xususan JBTning Bojxona xuquqni muxofaza qilish tarmog'i (BXMKT) va xizmatlari o'rtasida hamkorlik qilish, axborot hamda tezkor ma'lumotlar almashishga ko'maklashish maqsadida barpo etilgan Mintaqaviy aloqa uzellari (RILO) tarmog'ini e'tiborga olib;

- Mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlik qilish uyushgan jinoyatchilikka qarshi samarali harakat qilish uchun muhim shart hisoblanadi deb fikrlab;

- Bunday hamkorlik barcha manfaatdor taraflarga, ayniqsa, xalqaro darajada qilinayotgan sa'yharakatlarni takomillashtirish uchun mustaqil amalga oshiriladigan tadbirlarni o'tkazish chog'ida bir-birini takrorlash va aralashishga yo'l qo'ymaslik maqsadida foydali bo'lishiga komil ishonch bilan;

Narkotik vositalar va psixotrop vositalarning g'ayriqonuniy aylanishiga qarshi kurashish, shuningdek, prekursorlar ustidan nazoratni kuchaytirish bobida quyidagi tadbirlarni tavsiya qiladilar:

1. Mavjud aloqa tarmoqlaridan foydalangan holda axborot, tezkor ma'lumotlar va xujjatlar almashishning mavjud mexanizmi amal qilish doirasini kengaytirish.

- Axborot almashishning mavjud mexanizmi, shu jumladan, Buyuk Ipak yo'li bo'yicha Bolqon axborot tizimi (BASIS) Markaziy Osiyo davlatlariga, ularning milliy qonunchiligi va tegishli xalqaro shartnomalarni hisobga olgan holda, tadbiriq etiladi.

- Narkotik vositalar va psixotrop moddalarni, ularni g'ayriqonuniy ishlab chiqarishda ishlatiladigan narkotiklar, prekursorlar va kimyoviy moddalarni g'ayriqonuniy olib o'tish hollariga taaluqli bo'lgan tezkor axborot, shuningdek, yangi tamoyillar, yashirish joylari, tashish usullari va olib o'tish xavflari to'g'risidagi axborot BXMKT yordamida, mavjud kommunikatsiya tarmoqlari vositasida yigiladi.

- Yig'ilgan axborot g'arbiy Evropa, markaziy va sharqiy Evropa, Osiyo-Tinch okean mintaqasi va MDX mamlakatlari bo'yicha RILO tomonidan uning tahlilini global darajada amalga oshirish hamda manfaatdor bojxona ma'muriyatlariga taqdim etish uchun foydalaniladi, bu esa narkotik vositalar va psixotrop moddalar g'ayriqonuniy aylanishining oldini olish va uni tergov qilish bo'yicha yanada samarali harakatlarga ko'maklashadi.

JBT a'zosi bo'lgan mamlakatlar:

- axbobrot almashish o'zaro maqbul, to'lik va Ochiq bo'lishi maqsadida mavjud axborotdan foydalanishida o'z sa'yohatlarini birlashtiradilar;
- kontrabandaga qarshi kurash bilan shugullanadigan bo'linmalarining xabardorligini oshiradi va ularni o'kitish jarayonini rivojlantiradilar;
- davlat organlari bilan xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantiradilar va takomillashtiradilar.

Xar bir mamlakat narkotiklarga qarshi kurash masalalari bo'yicha milliy kontakt aloqa punktlarini tayinlaydi, ular axborot va tezkor ma'lumotlarni olish hamda uzatish uchun javob berib, ularni axborot va tezkor ma'lumotlarga eng yaxshi ishlov bera oladigan xizmatlarga yo'naltiradilar, shundan so'ng olingan javob so'rov yuborgan ma'muriyatlarga yuborilishi kerak.

Kontakt aloqa punkti xizmatning imkoniyatlari va uning xuquqni muxofaza qilishdagi, ya'ni aynan narkotiklar kontrabandasiga qarshi kurash bobidagi tajribasini hisobga olib belgilanadi. Bunday hamkorlik doirasida JBT a'zosi bo'lgan mamlakatlar ularning mansabdor shaxslariga boshqa bojxona ma'muriyatlarining so'rovlariga ko'ra tergov o'tkazish va shaxslar, binolar, transport vositalari, bitimlar hamda tovarlar ustidan nazoratni amalga oshirish imkonini beradigan qoidalarini qo'llashni ko'rib chiqadilar.

2. Zarur texnik hamkorlik va texnik ko'makni amalga oshirish.

Mazkur mintaqa mamlakatlarining bojxona ma'muriyatlari hamkorlikning ko'rib chiqilayotgan sohasidagi o'z yutuqlari to'g'risida muntazam maslahatlashishlarni o'tkazdilar. Ular nafaqat bir-biri bilan, balki boshqa vakolatli milliy organlar va xalqaro tashkilotlarning mintaqaviy vakillari bilan ham fikr almashadilar.

5.3. O'zbekiston Respublikasining investitsion hamkorligi

Bunday hamkorlikni mustahkamlash maqsadida manfaatdor bojxona ma'muriyatlari narkotiklar kontrabandasiga qarshi kurash bilan shugullanadigan mansabdor shaxslar bilan almashish dasto'rini amalga oshirish imkoniyatini ko'rib chiqadilar, ular ishlab chiqaruvchi mamlakatlar, tranzit mamlakatlar bo'lishidan qat'iy nazar, mazkur mintaqa mamlakatlarida narkotiklarning g'ayriqonuniy olib o'tilishiga qarshi samarali kurashish maqsadida tezkor tadbirlarni amalga oshirish va nazoratni kuchaytirishni rag'batlantiradilar va bunga ko'maklashadilar.

Bunday hamkorlikdan imkoni boricha ko'p foyda olish maqsadida barcha ishtirokchilar:

- mazkur sohada o'zaro tajriba va bilim almashadi, shuningdek, bunday tajribaga ko'maklashish uchun mintaqaviy ishchi guruhlarini barpo etadi;
- umumiy chegaralarda bojxona nazorati mexanizmini bir hillashtirish bo'yicha choralarga ko'maklashadi va ularni rag'batlantiradi.

Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarga JBT bilan imzolangan bir-birini tushunish to'g'risidagi memorandum doirasida JBTga ularda mavjud bo'lgan axborot, tezkor ma'lumot va tahliliy materiallarni taqdim etishga doir qadamlar qo'yish taklif etiladi, bunday axborot keyin JBT a'zosi bo'lgan manfaatdor mamlakatlarga yuboriladi.

JBT kotibiyati quyidagi sohalarda mazkur mintqa mamlakatlarining ehtiyojlarini eng maqbul tarzda ta'minlash maqsadida o'z ko'magini ixtiyoriy ravishda taklif etayotgan YUNDSP, Interpol, EI va JBTning har qanday a'zolari bilan hamkorlik qiladi:

- narkotiklar kontrabandasiga qarshi kurashish, nazorat qilish, o'ziga xos mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda kurashni samarali tashkil etish, atar tahlili, maqsadni tanlash usullariga urgatish;
- xizmatlarni tashkil etish: kinologiya bo'linmalari va kontrabandaga qarshi kurash uchun aniq javobgar bo'lgan xizmatlarini tashkil etish, tezkor axborot yigish va xatar tahlili;
- uskunalarni taqdim etish: narkotiklarni topish uchun kompakt-testlar, tananing ichida yashirilgan narkotiklarni topish uchun apparatlar, xufiya yashirish joylarini topish uchun hajmdor apparatlar, kichik xonalarda (masalan, avtomashinalar, yuk mashinalarning kabinalari, dam olish uchun vagonchalar) mavjud bo'lgan chang-to'zonni tahlil qiladigan uskunalar, shuningdek, rentgen uskunalar bilan ta'minlash.

BMTning narkotik vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risidagi konventsiyasi ishtirokchisi bo'lgan O'zbekiston JBT va BMTning narkotiklar va psixotrop moddalarning g'ayriqonuniy aylanishiga qarshi kurashga yo'naltirilgan loyihalari va tadbirlarini amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. O'zbekiston bojxona xizmati Varshava va Moskvada joylashgan Mintaqaviy aloqa uzellari (MAU) bilan narkotiklar hamda prekursorlar tranziti bo'yicha axborotni faol ayirboshlamoqda.

Narkotiklar kontrabandasiga qarshi kurash bulinmalarining bir qator xodimlari JBT qarorgoxida o'qitildi va Yaponiya, Shvetsiya hamda AQSH bojxona ma'muriyatlarida ish o'rgandi.

BMTning narkotiklar va prekursorlar ustidan nazorat qilish dasturi doirasidagi hamkorlik jo'shqin rivojlanmoqda. BMT ko'magida DBKning Mintaqaviy kinologiya markazi barpo etildi, bu erda 500 dan ziyod kinolog inspektorlar tayyorlandi, narkotik moddalar, qurol-yarog' va portlovchi moddalarni qidiradigan xizmat itlari o'rgatildi.

BMTning "Uch bo'g'inli" loyixasini amalga oshirish doirasida O'zbekiston bojxona xizmati xodimlari narkotiklar savdosiga qarshi kurash masalalari bo'yicha o'quv seminarlarida, Markaziy Osiyoda narkotiklar va prekursorlar ustidan nazorat qilish muammolari bo'yicha xalqaro konferentsiyaa ishtirok etdi. BMTning narkotiklar ustidan nazorat qilish va jinoyatlarning oldini olish boshqarmasining "Uzbek-afg'on chegarasidagi "Ayritom" nazorat qilish-o'tkazish punktida faoliyatni boshlashda O'zbekistonga yordam berish" loyixasi doirasida respublika bojxonasiga yo'lovchilar, yuklar va transportni ko'rikdan o'tkazish uchun asbob-uskunalar, NKO'Pda nazorat-texnik vositalarining uzluksiz ishlashi uchun elektr energiyasi generatorlari bir necha marotaba berildi. O'zbekiston bojxonachilari heroin tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan sirka kislota angidridining g'ayriqonuniy aylanishini o'rganish va bartaraf etish bo'yicha "Topaz" xalqaro operatsiyasida ham faol ishtirok etmoqdalar. Chunonchi, Afg'oniston va Tojikiston bilan chegaradosh bo'lgan DBKning Surxondaryo viloyat boshqarmasi xodimlari bir necha bor respublika orqali ushbu narkotik xom ashyoni g'ayriqonuniy olib o'tish xolatlarining oldini olishda 72 tonnadan ortiq shunday modda ushlandi.

O'zbekiston bojxona organlarining faol va muvaffaqiyatli faoliyati xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baholandi.

O'zbekistonda 1997 yil mayda bo'lgan Jahon bojxona tashkilotining Bosh kotibi Jeyms Shaver, Toshkentda 2002 yil kuzida kelgan, keyingi Bosh kotib Mishel Dane, respublikamizga 2000 yil kuzida kelgan AQSHning sobiq Bosh kotibi Madlen Olbrayt, shuningdek, Toshkentda 2000 yilda o'tkazilgan "Markaziy Osiyo xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash: narkotiklar, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashishga integratsiyalangan yondashuv" xalqaro konferentsiyasining ishtirokchilari xalqaro terrorizm va

narkotrafikka qarshi kurashga qo'shgan hissasi uchun O'zbekiston xukumatiga minnatdorchilik bildirdilar.

Keyingi vaqtda mamlakatimizda xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan bir qator muhim siyosiy voqealar bo'lib o'tdi.

2004 yilning 17 iyunida Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHXT)ning Toshkent sammiti bo'lib o'tdi va jahon jamoatchiligining e'tiborini o'ziga tortdi. Unda mintaqamiz istiqboliga taaluqli bo'lgan muhim xujjatlar qabul qilindi. Xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi birgalikda kurashish, SHXTga a'zo davlatlar iqtisodiy hamkorligini mustaxkamlashda muayyan amaliy natijalarga erishildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqori darajali uchrashuvni tashkil etishda, mo'ljallangan maqsad va vazifalarga erishishda sammitga raislik qilgan O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning xizmati kattadir.

Shubxasiz, anjuman ishining mohiyati va mazmunini belgilashda, uning samaradorligini oshirishda mamlakatimiz Prezidentining nutqida xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurashda, iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishda SHXT faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha aytilgan g'oya va takliflar muhim ahamiyat kasb etdi.

Sammit ishtirokchilariga murojaat qilarkan, davlatimiz rahbari bir qator masalalarga to'xtaldi. Xususan, u Toshkent sammiti tarixda SHXT institutsional shakllanishi hamda barpo etilgan tashkiliy tuzilmalar va institutlarni aniq mazmun bilan to'ldirishning yakunlovchi bosqichi sifatida qoladi, deb ta'kidladi.

Kotibiyat Pekinda faoliyat ko'rsata boshladi. Toshkentda Mintaqaviy aksilterror markazi (MAM) shakllandi. O'tgan davrda uch marotaba to'plangan Tashqi ishlar vazirlari Kengashi o'rta qo'yilgan vazifalarni izchillik bilan hal qilmoqda. SHXT Muvofiqlashtiruvchilar Kengashi esa tezkor, juda muhim ishni bajarib kelmoqda.

Davlat raxbari Markaziy Osiyodagi ishlar ahvolini baholab ta'kidladiki, mintaq o'zining geopolitik va geostrategik ahamiyati hamda tabiiy-iqtisodiy, mineral xom ashyo va birinchi navbatda, uglevodorod resurslarining g'oyatda boy zaxiralariga egaligi sababli butun dunyodagi xavfsizlik va barqarorlikka taxdidlarning usib borishi vaziyatida jahon hamjamiyatining e'tibor markazida ekanligini ta'kidladi.

Shuningdek, u Afg'onistonga taalluqli bo'lgan masalalarga e'tibor qaratdi.

Voqealar rivojlanishining ijobiy dinamikasiga qaramay, Afg'oniston jiddiy yordamga, vaziyatni barqarorlashtirish va tinchlikni tiklashga muxtojdir.

Narkotiklar ishlab chiqarish va ular xajmlarining o'sishi alohida tashvish uyg'otmoqda.

Mintaqa mamlakatlaridagi vaziyatni izdan chiqarish tahdidini solayotgan xalqaro terrorizm, ekstremizm va separatizm kuchlarining jonlanishi tashvishlarimizni kuchaytirmasligi mumkin emas. Xar doim shuni e'tiborda to'rtish muhimki, Markaziy Osiyo – o'z tarixiy, etnomadaniy tomirlariga, turmush tarzining, diniy va ijtimoiy-siyosiy xususiyatlariga, o'z mentalitetiga ega bo'lgan mamlakatlar va halqlar joylashgan mintaqadir, dedi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Bu xol etti bor o'lchangan, g'oyatda e'tiborli, extirom bilan yondashishni taqozo etadi.

Ko'p jihatdan ayni shunday yondashuvda Markaziy Osiyoda yuz berayotgan ko'p voqealarni tushinish hamda mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni saqlab qolishning murakkab muammolarni hal etish kaliti yashiringan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayni ushbu omillar hisobga olinmagan barcha tashabbuslar mahsuldor va muvaffaqiyat keltiradigan bo'lishi mumkin emas

Islom Karimov O'zbekiston SHXT ustuvor maqsadi sifatida e'lon qilingan, xalqaro terrorizm, ekstremizm, separatizm va narkotrafikka qarshi murosasiz kurashni yakdillik bilan qo'llab-quvvatlaydi, deb ta'kidladi. SHXTga a'zo davlatlarning raxbarlari ishtirokida Toshkentda ochilgan Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MAT) faoliyati ayni ushbu maqsadga erishishga yo'naltirilgan, dedi O'zbekiston Prezidenti.

Respublika bojxona xizmati giyoxvandlik vositalarining g'ayriqonuniy aylanishiga qarshi kurashib, Evropa hamjamiyatlari komissiyasi (EXK), Evrobojxona, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IXT), EXXT, Interpol singari xalqaro muassasalar bilan izchil hamkorlik qilmoqda.

TACIS dasturi (MDX mamlakatlariga texnik ko'mak berish) doirasida Evropa hamjamiyati komissiyasi va “ Evrobojxona” xalqaro tashkiloti tomonidan “Bojxona” deb nomlangan, shu jumladan, narkotik vositalarning g'ayriqonuniy aylanmasiga qarshi kurash bo'yicha ham 4 ta qo'shma dastur amalga oshirildi.

1999 yil iyunda Toshkentda IXTga a'zo mamlakatlar bojxona xizmatlari raxbarlarining VI Kengashi bo'lib o'tdi. Unda kontrabanda va

bojxona qoidalar buzilishiga qarshi kurashda hamkorlik qilishda bir-birini tushunish va bojxona qoidalari to'g'risida memorandum qabul qilindi.

IXT tomonidan mintaqada bundan buyon bojxona hamkorligi masalalari, shu jumladan narkotiklarning g'ayriqonuniy aylanmasiga qarshi harakat qilish ham muhokama qilindi.

Xar bir davlatning tashqi iqtisodiy faoliyati milliy xuquqiy normalar, xalqaro xuquqiy standartlar va amaldagi qoidalar bilan jahon xo'jaligida faoliyat ko'rsatadi. Tabiiyki, milliy huquqiy tartibot bilan xalqaro iqtisodiy huquq orasida ma'lum faqlar mavjud.

Ichki me'yorlarni muvofiqlashtirish oxirgi o'n yilliklar orasida xalqaro standartlarga moslashtirildi. O'zbekiston Respublikaning Prezidenti Oliy Majlisning o'n to'rtinchi sessiyasida so'zlagan nutqlarida O'zbekiston Respublikasini tashqi iqtisodiy faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqish va respublikamizni tashqi iqtisodiy faolitini butunjahon tan olgan rivojlangan ko'rinshga o'tkazish zarurligi haqida gapirgan edilar.

Xalqaro mezonlardan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotini «Ochiq iqtisodiyot» deb hisoblash mumkin. Hozirgi vaqtda hammasidan ko'ra ko'p tarqalgan Ochiq iqtisodiyotni, ettita xolanga ajratish mumkin;

- jahon xo'jaligi bilan o'zaro aloqasini asosiy yo'nalishlarini tulaq'onli me'yorlashtirilgan funktsiyalari

- tovarlar va xizmatlar bilan xalqaro sado;

- sarmoyalarning xalqaro harakat va harakatlaniyotgan moliya boyliklari;

- milliy valyutaning xalqaro almashtirish.

- milliy rivojlanish komponentining funktsiyalarni iqtisodiy o'sishning tashqi manbalar bilan bajarilishi.

- milliy iqtisodiy manfaatlarning himoya qilishda salbiy tasir etadigan tashqi omillardan va ta'sirlardan, birinchi ikkita xolatni rad etayotgan va muammoni o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilishni mo'ljallagan;

- tegishli mustaqil huquqlarning xalqaro tashkilotlarga topshirish .

O'zbekiston Respublikasini iqtisodiyotini tulaligicha Ochiqligini ta'minlash uchun yana bir nechta qadam tashlashi shart, avalambor milliy so'mimizni erkin almashinuvini ta'minlashimiz kerak. Bu erda asosiy maqsad raqobatbardosh tovar ishlab chiqarish yo'li bilan jahon bozoridagi mahsulotni va respublikamiz eksportini o'sishishiga erishish.

Xalqaro hamjamiyatning ilgari surayotgan printsiplaridan biri bo'lib chet el qatnovchilariga milliy tadbirkorlik rejimini tarqatish qoidasi hisoblanadi. «Chet el investitsiyalar» to'g'risidagi 20 may 1998 yilgi Qonun jahon amaliyotidagi talablarga to'liq javob beradi. Bundan tashqari imtiyozlarning katta miqdori O'zbekiston Respublikasi xududida chet el sarmoyadorlari bilan tashkil etilgan korxonalarga beriladi.

Chet el sarmoyadorlariga imtiyozlarning ko'pligi moliyaviy resurslarni berish paytida juda ko'p ob'ektiv muammolar borligidan guvohlik beradi. Bizga yaxshi ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida chet el sarmoyadorlariga beriladigan imtiyozlar ularning vakillarini manfaatdorligini oshirishga qaratilgan. Bu imtiyozlar orasida chet el sarmoyalarini jalb etishda o'zimizning respublikamizni ichki bozor, xalqaro va chet el investitsiyalarini jalb etishni raqobatbardosh ko'rinishda olib borish shart.

Imtiyozlar tizimi bilan tadbirkorlikning milliy rejimi orasida, aniqlanayotgan o'ziga xos xususiyatlar bilan kerakli ijtimoiy siyosat va xalqaro qoidalarni o'rnatishning chet el qatnashuvchilar uchun ob'ektiv imtiyozlar sistemasida hal qilish zarur.

Amal qilayotgan imtiyozli rejim o'zining mazmun bo'yicha chet el investitsiyalarning jalb qilish jarayonini detsentralizatsiyasini ta'minlayapti. Biz bu erda ma'lum makroekonomik sharoitning ko'rayapmiz, ya'ni makroekonomik sub'ektlarning vazifalarini me'yorini tartibga soladilar.

Shunday qilib respublikamizda bundan keyin ham chet el sarmoyalarini jalb etish yoki olib kirish uchun barcha tadbirlar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari iqtisodiyotni rivojlanishining hozirgi bosqichida chet el sarmoyalari hammasidan ko'ra O'zbekiston Respublikasini jahon xo'jaligiga integratsiyasini eng maqbul ko'rinishlaridan biriga aylandi.

Chet el sarmoyalarini O'zbekistonga jalb etishga ta'sir etayotgan jarayonlarni ko'rinishlari orasida, xalqaro investitsion proektlarda qatnashish uchun xuquqiy – me'yoriy sharoitlarni yaratish asosiy o'rin egallaydi. Davlat mulki hisoblangan material aktivlarni faqatgina xususiylashtirilgan aktivlar emas balki katta-katta investitsion loyihalarga material bazasi sifatida xam foydalanish mumkin.

Bu rejada davlat korxonalarining aktsiyalar paketlarini tender orqali sotish maqsadga muvofiq bo'ladi, bu esa hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida xususiylashtirish jarayonida amaliyotda ko'p qo'llaniladigan

usulidir, bundan tashqari bularga material aktivlarini ham ma'lum qismi qo'shiladi.

Boshqa omil bo'lib hozirgi vaqtda investitsion proektlarga biznes – reja ishlab chiqishda respublikamiz tijorat banklarining qiziqishi kam bo'lganligidir. Bu, bizning fikrimiz bo'yicha, respublikamizning tijorat banklari uzoq muddatli kreditlar berish sektoridan chiqqanidadir.

Xalqaro investitsion hamkorlik eng tor ma'noda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot bilan bog'langan, yangiliklar u orqali mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha tarqalyapti. Lekin bu jarayon milliy iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatayotgan jarayonning yaqqol ifodalangan teng taksimlanmayotgan ko'rinishidir.

Noteks rivojlanish nuqtai nazaridan yondoshadigan bo'lsak olib kirilayotgan yangiliklarning xar qanday oqimi ishlab chiqarishdagi texnik imkoniyatlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Har qanday jarayon bosqichma bosqich ishlab chiqarishga tadbiriq etishning boshlang'ich bosqichidan o'tadi va makroiqtisodiy jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi. Chet el sarmoyalari asosida tashkil etilgan rivojlanayotgan va faoliyat olib borayotgan korxonalar O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining ma'lum sifat bosqichlariga qaromog'i lozim.

Milliy tadbirkorlikni ommalashtirish rejimi O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy reformalar va ichki bozordagi chet el qatnashchilariga berilayotgan iqtisodiy imtiyozlar ayrim asosiy prinsiplarni ziddiyatga olib kelishi mumkin. Bu hammasi eng avvalo kuchli ijtimoiy siyosatni targ'ib etishga ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun ham chet el sarmoyadorlari uchun imtiyozli rejimni, milliy tadbirkorlik rejimini erkinlashtirishni bosqichma-bosqich amalga oshirish shart bo'ladi, bu rivojlanishning o'zbek modeliga ancha mos keladi. Bu esa ushbu jarayonni bevosita boshlangan yangi bosqichida kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish jarayonida bir - biri bilan bog'lanib ketadi.

Ammo, bu istiqbolli yo'lda milliy valyutani chet el valyutasi bilan erkin ayriboshlashni markazlashtirilgan holda amalga oshirishda bir qator noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Hamma xo'jalik faoliyatlarini globallashtirish, iqtisodiy jarayonlarni chuqurlashtirish, turli xil milliy iqtisodiyotni o'zaro uzviy aloqasi hozirgi zamon milliy iqtisodiyotini rivojlanishini asosiy faktoriga aylandi. Shuning uchun ham iqtisodiyotni tashqi bir xil o'lchamdaligi, tashqi savdo balansini xolati, milliy valyuta

kursini darajasi mamlakat hukumatining asosiy makroiqtisodiy istiqbolli maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Shu o'tgan yillar davomida O'zbekiston Respublikasining olib borgan qattiq pul – kredit siyosati respublikamizda makroiqtisodiy o'sishni bir xilligi va boshqa davlatlarda bo'lib o'tganligi kabi ishlab chiqarishni favqulotta tushib ketishini oldi olindi. Pul-kredit siyosatining qattiq ko'rinishi asosan ko'zlangan maqsadga erishishimizga katta yordam berdi. Shu bilan bir o'rinda boshlangan yaxshi iqtisodiy o'sish O'zbekiston pul-kredit siyosatiga bir qator o'zgartirishlar kiritilishini talab qiladi.

Respublikamiz iqtisodiyotida yuzaga kelgan vaziyat shundayki pul valyuta yuzasidan, bunda milliy valyuta xalqimizni material ta'minot darajasini yomonlashishiga olib kelishi va ko'pgina xo'jalik ativlarini tadbirkorlikga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishi mumkin. Shuning uchun ham erkin konvertatsiyani iqtisodiyotimizga tez olib kirish yaxshi bo'lmasin baribir uni bosqichma bosqich amalga oshirish zarur.

Agarda chet bozorning chet el ishtirokchilariga alohida yondashish qo'llansa, unda bu yondashuv milliy valyuta ayriboshlashiga ham tarqalishi kerak. Bizning fikrimizcha amaliyotda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki maxsus valyuta auksionlarini kiritishi zarur. Chunki O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Ushbu valyuta auksionlarini bozorning chet el qatnashchilari uchun tashkil qiladi va unda valyuta ayriboshlarda qatnashayotgan chet el sarmoyadorlari uchun maxsus qoidalarini ishlab chiqadi. Bu birinchi navbatda ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanayotgan chet el sarmoyadorlari zarur hisoblanadi.

Boshqa tomondan O'zbekiston Respublikasi fond bozorini xalqaro fond bozorlariga integratsiyasi vazifasini hal qilishdek muhim vazifa turibdi. U birinchidan, chet el sarmoyadorlarini O'zbekistont Respublikasi fond bozoriga ishtirok etish mexanizmini yaratish, ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlarini chet el qimmatli qog'ozlar bozorlariga joylashtirish, uchinchidan, chet el investitsion institutlar bilan tashkiliy va texnik sohalarida hamkorlik o'rnatish. Bundan shuni ko'rish mumkinki O'zbekiston Respublikasida erkin valyuta ayriboshlash mexanizmini amalga oshirmasdan turib erishib bo'lmaydi. Lekin uni orqaga ham surib bo'lmaydi.

Buning amalga oshirishni eng optimal yo'li bu uni bosqichma – bosqich amalga oshirishdir. Buning uchun maxsuslashtirilgan valyuta auksionlarini chet el sarmoyadorlari uchun juda ham qulaydir.

Qisqacha xulosa

O'zbekiston Respublikasi o'zining tashqi iqtisodiy faoliyatida Mustaqil davlatlar hamdo'stligi va boltiqbo'yi mamlakatlari bilan xalqaro me'yorlarga asoslangan, muvozanatlangan va o'zaro foydali munosabatlarni rivojlantirishga intilyapti. Ozarbayjon, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Latviya, Litva, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston va Ukrainaning bojxona ma'muriyatlari bilan bojxona ishlarida hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risida hukumatlararo bitimlar imzolangan.

Hamkorlik BXRK – MDX ishtirokchisi bo'lgan davlatlar bojxona xizmatlarining raxbarlari Kengashi doirasida xam amalga oshirilayapti. 2003 yil dekabrda o'zining o'n yilligini nishonlagan. Ushbu bojxona Ittifoqi MDX xududi chegarasida bojxona amaliyotini birxillashtirish va uyg'unlashtirish masalalarini izchillik bilan hal qilayotgan to'laqonli ishchi tuzilmadir.

Nazorat savollari:

1. Davlatning eksport siyosati deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari nimaga qaratilgan?
3. Eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarish nimaga xizmat qiladi?
4. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining huquqiy asoslariga nimalar kiradi?
5. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov Oliy majlisning 14 sessiyasida nima degan edi?
6. Ochiq iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
7. O'zbekiston Respublikasi investitsion muxiti to'g'risida gapiring.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» fani to'g'risida gapiring.

Asosiy adabiyotlar

1. Бобохўжаев Ғ. «Божхона органлари фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2010. –230 бет.
2. Кучаров А., Тиллахўжаев Б. «Божхона таомиллари». Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ. 2009. –211 бет.
3. Кучаров А., Тоиров Ш. «Божхона иши». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2009. – 232 бет.
12. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.
13. Коник Н.В. Таможенное дело: Учеб. пособ. – М.: «Омега-Л», 2008. – 192 с. 2 экз

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Шомагдиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятида товар номенклатураси. Дарслик. Т:- ТДИУ. 2010. –196 бет.
2. Алиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятни давлат томонидан тартибга солиш. Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ, 2008. - 192 бет.
3. Драганов В.Г. Основы таможенного дела. Учебное пособие. – М.: 1998. 346-стр.
4. Шомагдиев А., Кучаров А., Нейматов И. Халқаро транспорт ташувлари.. Ўқув қўлланма. Т:- ТДИУ, 2010. –185бет
5. Свинухов В.Г. Таможенное дело. Учебник. М.: Экономист. 2008. – 298 стр.
6. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.
7. «Инкотермс»: Международные правила толкования торговых терминов. – М.: «Омега-Л», 2009. – 76 с.
8. Трошкина Т.Н. Таможенные платежи: Учебно–прак. пособ. М.: “Городец”, 2007. – 128 с. 2 экз
9. Удовенко С.П. Таможенный тариф современной России (1993-2005 гг.). – СПб.: ООО «Архей», 2006. – 402 с.

Internet saytlari

1. <http://www.asstra.ru/downloads/kvt.txt>
2. <http://www.abkhazeti.ru/pub/energyprojects>
3. <http://www.mcds.ru/default.asp>
1. <http://www.mcds.ru/default.asp>

VI-bob. Markaziy Osiyo davlatlarida bojxona munosabatlarning rivojlanish tarixi

6.1. Bojxona ishining Markaziy Osiyoda vujudga kelish tarixi

Rivojlanayotgan mamlakatlarning siyosiy uchrashuvlarining kun tartibida hamma vaqt ham hududiy integratsiya masalalari birinchi o'rinda qo'yib kelingan. Mana ko'p yillardan beri ushbu masala bo'yicha ancha ishlar qilindi va ko'plari amalga oshirildi ko'plari esa quruq qog'ozda qolib ketdi. Rivojlanayotgan mamlakatlar hududiy integratsiyaga yo'naltirilgan asosiy kuch bu kelajakda iqtisodiy o'sish va hududda siyosiy tinchlikni ta'minlabgina qolmay balki rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro forumlarda ularni o'z o'rinlarini mustaxkamlaydi.

Har xil davrda va har xil sabablarga ko'ra hududiy iqtisodiy integratsiya uchinchi mamlakatlarni rivojlantirish uchun juda xam muhimdir. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani rivojlanayotgan mamlakatlar tasavvur qila olsalar u mamlakatlarni o'z navbatida tarixiy o'zgarishlar shartini, iqtisodiy sharoit, siyosiy va iqtisodiy falsafani rivojlantirishga olib keladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan qabul qilinayotgan har-xil hududiy integratsiya to'g'risidagi kelishuvlarni qabul qilinishi bilan ularni hammasini birlashtirish juda ham qiyin hisoblanadi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarida hududiy integratsiyalarni amalga oshirish ishlari 50-yillarda boshlandi va bu 1960 yilda «Erkin savdo bo'yicha Lotinamerikasi assotsiatsiyasi» (LAFTA)ni va «Markaziy-Amerika mamlakatlari umumiy bozori» (MAUB)ni tashkil etilishiga olib keldi. Iqtisodiy falsafadan kelib chiqib bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining o'sha davrda Lotin Amerikasi mamlakatlarini ichki bozorini hududiy savdosi oldidagi ayrim iqtisodiy to'siq va boshqa iqtisodiy siyosat choralaridan ozod etar edi. Bu esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirar va ularni import tovarlarini o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishga katta imkoniyat berar edi.

Kutilayotgan natijalar shunga olib keldiki ichki hududiy bozorlar milliy raqobatbardosh firmalarni keyinchalik rivojlanishini va ularni iqtisodiyotini kengaytirish va rivojlantirishni ta'minlash maqsadida savdo maydonchalari tashkil etar edi.

Bundan tashqari hududiy iqtisodiy integratsiyani pereferentsial savdoni ta'minlashni maqsad qilmagan shakillarni tuzish bo'yicha ham bir qator tashabbuslar chiqa boshlandi va **1980 yilda shimoliy Afrika rivojlanish kordinatsion konfrentsiyasi (SHAKK) tashkil etilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi.** Shuning uchun ham Shimoliy Afrika kordinatsion konfrentsiyasi xalqaro tahlil uchun olinmaydi chunki ular hududiy ichki bozorni savdo aylanmasini oshirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ymaganlar, shunday bo'lsa xam ular bir qator ijobiy natijalarga erishdilar.

Osiyo mamlakatlarida mintaqaviy iqtisodiy integratsiya tashkil etish bo'yicha xozirgacha xam bir – bir ijobiy ish qilinmagan bu esa Saxara cho'liga tutashgan va Lotin Amerikasi mamlakatlariga yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mamlakatlar o'rtasidagi qattiq ideologik kelishmovchilik, siyosiy notinchlik va xar xil siyosiy kelishmovchiliklar va shu sababli bozorlarning kattaligi, zaxiralar bilan ta'minlanganligi, odam boshidagi daromad darajasidan kelib chiqib bu hududlarda hududiy iqtisodiy integratsiyalarni hududiy savdoni rivojlantirish va kengaytirishga to'sqinlik qiladi. Lekin yuqorida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra hududda ayrim siyosiy va iqtisodiy kelishuvlarni imzolashga erishildi.

Masalan 1964 yilda tashkil etilgan Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining assotsiyasi faqatgina ichki bozorda emas, balki Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarning boshqa integratsion uyushmalar bilan iqtisodiy va xalqaro masalalarda hamkorligini asosiy shakliga aylandi. Hududiy iqtisodiy integratsiyani olamshumul rejalari 60 yillarda tashkil etilgan «Arab mamlakatlari umumiy bozori» va «Mag'rib bojxona Ittifoqi» da amalga oshirilishi rejalashtirilgan edi lekin bu rejalarning ko'pchiligi amalga oshmasdan qog'ozda qolib ketdi.

Yuqorida nomlari keltirilgan mintaqaviy iqtisodiy hududlardan o'laroq, Eron, Pokiston va Turkiya mamlakatlari o'rtasida imzolangan hududiy iqtisodiy integratsiya iqtisodiyot va siyosatning juda ko'p yo'nalishlarda ish olib bordi va 1981 yilda "Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti" va 1985 yilda "Persid ko'rfazi mamlakatlari hamkorlik kengashi" deb o'zgartirildi.

Mag'rib bojxona Ittifoqini tashkil etilishi natijasida dastlabki bosqichda o'zaro savdoda tarif va miqdoriy chelashlar bekor qilindi, tashqi savdoni tartibga solishni tarif va notarif usullari yuzasidan narmativ qoidalarni bixillashtirish bo'yicha ishlar olib borildi, mamlakat xududiga

olib kirilayotgan tashqi savdo tovarlariga nisbatan aktsiz soligi stavkalari birxillashtirildi, a'zo mamlakatlarning uchinchi mamlakatlarga nisbatan savdo rejimlari to'g'risida bir xilligiga erishildi, tashqi savdoga bojxona statistikasini birgalikda olib borish va uni rivojlantirish bo'yicha umumiy kelishuvga kelindi va aktsiz solig'iga tortilayotgan tovarlarni rasmiylashtirishni yagona qoidasiga erishildi.

Yuqorida keltirilgan ijobiy natijalardan tashqari natijalar to'g'risida gapiradigan bo'lsak avia-yo'lovchi aloqalari bo'yicha bosqichma-bosqich bojxona nazorati va bojxona rasmiyatchiligi bo'yicha kelishuv imzolandi va bojxona nazoratini bekor qilish fikrlar oldinga surilmoqda. Tovarlarni etkazish va nazorat qilish jarayonini ta'minlash bo'yicha va hamkorlikka a'zo mamlakatlarni tashqi chegaralarini qo'riqlashni kuchaytirish bo'yicha texnik hamkorlik qilish to'g'risida kelishib olindi. Yana bulardan tashqari bojxona nazoratiga oid bir qator huquqiy – me'yoriy kompleks dasturlarni yaratish bo'yicha ishlar qilindi, masalan bojxona va valyuta nazorati qoidalarini soddalashtirish, eksportni nazorat qilish bo'yicha qonunlarni, bojxona to'lovlari va soliqlarni hisoblash bo'yicha yagona mexanizmini ishlab chiqish va bojxona xizmatini boshqarishni yagona boshqarmasini ishlab chiqarish, Ittifoqqa a'zo mamlakatlarni tashqi chegaralarida umumiy bojxona nazoratini tashkil etish va ittifoqqa a'zo mamlakatlarni umumiy chegaralaridan bojxona nazoratini bekor qilish qilish bo'yicha bir qator ijobiy natijalarga erishildi. 1996 yil 29 martda ushbu bojxona Ittifoqiga to'rtinchi Qirg'iziston Respublikasi qabul qilindi va u 6 - 20 yanvar 1995 yildagi bojxona Ittifoqi to'g'risidagi kelishuvga imzo chekdi. Shundan keyin Qirg'isiton Respublikasi ushbu bojxona Ittifoqini barcha kelishuvlarini o'ziga qabul qildi va o'zining bojxona to'g'risidagi qonunlarini ushbu kelishuvlar asosida qayta ishlab chiqishga kirishdi.

Lekin hududiy iqtisodiy integratsiyani amalga oshirish yo'lida juda ko'p kiyinchiliklar va to'siqlar mavjud. Amaliyot shuni ko'rsatadiki bojxona Ittifoqini eng zaif bo'g'ini bo'lib bojxona Ittifoqi faoliyatida qa'bul qilingan qonunlarni bajarmaslik yoki qa'bul qilingan qarorlarni ham juda pas darajada bajarilishi hisoblanadi bu esa ushbu Ittifoqni kengayishiga va rivojlanishiga juda katta to'sqinlik qiladi. Bojxona Ittifoqini shakllanishi va rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan bir ob'ektiv sabab bo'lib a'zo mamlakatlarning rivojlanish darajasi xar – xilligi, Ittifoqqa a'zo mamlakatlarning iqtisodiy karashlari xar-xilligi hisoblanadi.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti(SHHT)

Navbatdagi integratsion guruh Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) hisoblanib, u Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston va O'zbekiston Respublikalarini o'z ichiga oladi. A'zo mamlakatlar umumiy maydoni 30 mln km² bo'lib, aholisi 1.455 mlrd kishi dunyo aholisining to'rtidan bir qismini tashkil etadi. Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar ushbu yirik tashkilotga a'zo bo'lish istagini bildirmoqda. Shu jumladan, Hindiston, Pokiston va boshqalar.

SHHT quyidagi tamoyillarga asoalanib o'z faoliyatini amalga oshiradi:

- BMT qonunlariga rioya etgan holda hamkorlik;
- hamkorlikni ikki tomonlama qo'llab-quvvatlash;
- ichki ishlarga aralashmaslik;
- a'zo mamlakatlar o'rtasida o'zaro ishonch;
- barcha a'zolar teng huquqli ;
- barcha savol va muammolarni birgalikda hal qilish;

2006 yil mayda Sochi o'tgan navbatdagi SHHTning sammitida Prezidentimiz Islom Karimov quyidagilarni ta'kidladi:«Hamkorligimizning muhim strategik yo'nalishlari transport-kommunikatsiya loyihalarini ishlab chiqish va realizatsiya qilishdan iborat bo'lishi kerak. Shu jumladan, hududga keng masshtabli investitsion oqimni ta'minlashda Xitoy va Markaziy Osiyo orqali Rossiya, Evropa va jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarining mavjudligi mamlakatlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatini beradi.»⁸

«Mazkur uchrashuv, shubhasiz, SHHTning izchil shakllanish jarayonida alohida o'rin tutadi. Bugun biz mohiyatan, tashkilotimizning institutsionalizatsiya va tashkiliy asoslarini shakllantirish jarayonining yakuniga yetkazmoqdamiz, birgalikdagi harakat va hamkorligimizning sifat jihatdan yangi bosqichga chiqish uchun zarur huquqiy poydevorni yaratmoqdamiz.»⁹

2003 yil 23 sentyabrda Pekinda o'tkazilgan SHHTning ikkinchi sammitida hamkorlikning uzoq muddatli istiqbollari belgilanib olindi va

⁸ Ekonomicheskaya obozreniya. May 2006 5-b

⁹ I.Karimov. Biz tanlaran yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li.Toshkent .O'zbekiston.2003 y. 275-b

2020 yilgacha hududda tovarlar, xizmatlar, kapital va ish kuchining erkin harakatini ta'minlash shartlarini tuzishga kelishib olindi.

2004 yil 17 iyunda SHanxay Hamkorlik Tashkilotining Toshkentdagi sammiti bo'lib o'tdi. Unga ko'ra SHHT maqsadlari belgilab olindi va ular quyidagilar:

- savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ta'lim sohalarida samarali hamkorlikni rivojlantirish;
- energetika, transport, ekologiya tarmoqlarini modernizatsiyalash;
- hududiy investitsiyalarni jalb qilish;

Markaziy Osiyo mamlakatlari

Bu mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlar Ushbu hudud uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Evroosiyo materigining o'rtasida joylashgan va qadimdan savdo yo'nalishlarining asosiy kesishuv markazi hisoblangan.

6.2. Markaziy Osiyo Respublikalarida bojxona hamkorligining hozirgi xolati

Hozir u 5ta mustaqil mamlakatni o'z ichiga oladi. Markaziy Osiyo Sharqdan g'arbgacha taxminan 4500km masofagacha cho'zilgan bo'lib, Evropaning umumiy maydoniga teng hududni egallaydi. Hududning umumiy maydoni taxminan 4 mln km kv.bo'lib, MDH mamlakatlari maydonining 18%ni tashkil etadi. To'rt mamlakat aholisi 52,2mln. kishi bo'lib, MDH mamlakatlari aholisining 19%ni tashkil etadi. Aholi zichligi 12,4 kishi. Hududiy mamlakatlar O'zbekiston uchun muhim savdo hamkori hisoblanadi.

So'nggi uch yil mobaynida (1998-2000) Ushbu guruh mamlakatlari bilan Respublikamiz o'rtasidagi tovarlar aylanmasi ko'rsatkichlari 42%ga oshgan. Respublikamizning Markaziy Osiyo mamlakatlariga qilgan eksport ko'rsatkichlari 27%ga, import esa 66%ga oshgan.

Bunday iqtisodiy o'sish hududda savdo aloqalarining jadal rivojlanishi istiqbollarini ijobiy tavsiflaydi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan O'zbekiston o'rtasidagi tovar aylanmasi ko'rsatkichlari 2002 yilga kelib 568,1 mln.AQSH dollariga etgan. Markaziy Osiyo mamlakatlari ulushi MDH mamlakatlari orasidagi savdo

aloqalarining 31% va Respublikamizdagi umumiy tovar aylanmasining 10%ni tashkil etadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari eksport 324 mln. AQSH dollarini tashkil etib, MDH mamlakatlari eksportining 39,5% va respublikamiz eksportining 10,8%ni tashkil etadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari qilinadigan import 244,1mln. AQSH dollarini tashkil etib, MDH mamlakatlari importining 24,4%ni va mamlakatimiz umumiy importining 9%ni tashkil etadi.

2005 yili 79 mln. AQSH dollari miqdorida ijobiy savdo kuzatilgan. Shu yilga nisbatan Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 5,2%ga o'sdi.

Ushbu ko'rsatkichlar Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ikki tomonlari savdo MDH mamlakatlari tovarlar aylanmasining 9%ni tashkil etgan.

2002 yil natijalari bilan solishtiradigan bo'lsak, eksport 4,3%ga o'sib 346,4mln AQSH dollarini tashkil etgan. Import ham 6,2%ga o'sib 200,7 mln. AQSH dollarini tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasining asosiy tashqi savdo hamkori Qozog'iston bo'lib, uning ulushi 2005 yil mobaynida Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida tovar aylanmasining 48%ni tashkil etib, 295,3 mln. AQSH dollariga etgan. Tojikiston bilan 145,8mln. AQSH dollari(24%), Turkmaniston bilan 89,6 mln AQSH dollari(15%) va Qirg'iziston bilan 76,4 mln AQSH dollari (13%) ni tashkil etgan.

Hududiy iqtisodiy integratsiya sharoitida O'zbekiston uchun ijobiy natijalar kelajakda o'z samarasini beradi albatta.

Iqtisodiy nuqtai nazardan O'zbekiston uchun Markaziy Osiyo mamlakatlari va Afg'oniston birinchi navbatda, transport korridori va qudratli taqsimot bozori sifatida qiziqish uyg'otadi.

O'zbekiston mahsulotlarining Markaziy Osiyo bozorlarida eksport hajmini oshirish quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Qozog'iston Respublikasi bilan.

1. meva, sabzavot va undan qayta ishlangan mahsulotlar.
2. polimer materiallar va plastmassa.
3. oyna va undan tayyorlangan buyumlar.
4. avtomobillar, avtobuslar va «Uzdeu avto, Samkoch avto» korxonalari tomonidan ishlab chiqariladigan qishloq xo'jaligi texnika vositalari.

5.«Uzeltexprom» assotsiatsiyasi tomonidan kabel o'tkazgich mahsulotlarini etkazib berish.

6.«qozoq neft» sohasida hamkorlik qilish.

Qirg'iziston Respublikasi bilan:

- 1.paxta tolasi va gazlamalar.
- 2.oyna va undan tayyorlangan buyumlar.
- 3.avtomobillar, avtobuslarva texnika vositalari.
- 4.mis va undan tayyorlangan buyumlar.
- 5.metall mahsulotlar.

Tojikiston Respublikasi bilan :

- 1.qishloq xo'jaligi texnikasi, transformatorlar, kabel.
- 2.qurilish materiallari.
- 3.Farmatsevtika mahsulotlari.
- 4.Neft va gazdan qayta ishlangan mahsulotlar.
- 5.Metall jihozlar.
- 6.avtomobillar, avtobuslar.
- 7.Tojik alyuminiy zavodi bilan respublika kabel sanoatida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha hamkorlik qilish.

Afg'oniston bilan quyidagi loyihalarda:

- transport infratuzilmasini o'rnatish, yo'l qurilishi sohasida ta'mirlash ishlarini olib borish.
- aloqa va energotizim infratuzilmasini o'rnatish.
- irrigatsiya va suv resurslarini boshqarish.
- qurilish sohasida va Shahar infratuzilmasini o'rnatish.

stategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa loyihalar

Markaziy Osiyo yagona iqtisodiy makonni yaratish borasidagi dastlabki harakatlar

1994 yilda O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston yagona iqtisodiy maydon vujudga keltirish haqida shartnoma tuzdilar.

1993 yil iyun oyida birinchi marta O'zbekiston va Qozog'iston davlatlari o'rtasida 1994-2000 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy integratsiya haqida kelishuv imzolangan edi. 1994 yilda esa bu ikki davlat xabarlarini O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari o'rtasida yagona iqtisodiy makonni barpo etuvchi shartnomani imzoladilar.

1994 yilning aprel oyida esa ushbu shartnomaga Qirg'iziston Respublikasi ham qo'shildi. 1994 yilning 30 aprel kuni Cho'pon-otada

Markaziy Osiyo yagona iqtisodiy makoni tuzilgani haqida uch tomonlama shartnoma imzolandi, bu shartnomaning ahamiyati nihoyatda katta. U integratsiya jarayonlarini muzokaralar sohasidan amaliy harakatlar yo'liga o'tkazishni boshladi, aniq integratsiya rejalarini bosqichma-bosqich amalga oshirish, birgalikda bozor infratuzilmasini vujudga keltirish va qa'bul qilingan qarorlar ijrosini ta'sirchan nazorat qilish maqsadida xo'jalik huquqiy hamda tashkiliy tuzdagi omillarni ishlab chiqishga kirishish imkonini berdi.

Shartnomaga imzo chekkan davlatlar quyidagilar haqida kelishib oldilar:

- iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy va boshqa sohalarda mustahkam hamkorlik qilish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy ofatlar va faloqatlar oqibatini tugatish ishida kuch-g'ayratlarini va Orol bo'yida ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan qo'shimcha tadbirlar ko'rish;

- tashqi siyosat faoliyati sohasida mintaqa va xalqaro darajalarda kelishilgan mavqelarda turib harakat qilish.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish hamda iqtisodiy, siyosiy, mudofaa va insonparvarlik islohotlarida kuch-g'ayratlarni muvofiqlashtirish uchun tuzilgan Davlatlararo kengashni, Mudofaa vazirlari Kengashini o'z ichiga oladi. Ularning ishchi organi ijroiya qo'mitasi tuzilgan.

Ijroiya qo'mitasi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va faoliyatlarga muvofiq asosiy e'tibor quyidagilarga qaratiladi:

- mintaqa ahamiyatiga ega bo'lgan eng muhim investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish va qatnashchi tarmoqlaridan kelishilgan siyosat o'tkazish;

- ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, qo'shma korxonalar, moliya-sanoat guruhleri, davlatlararo birlashmalar taraqqiyotiga ko'maklashish omillarini ishlab chiqarish;

- transport, aloqa, kommunikatsiya, yokilgi-energetika majmuasida yagona siyosat o'tkazish;

- davlatlararo kengash, uning muassasalari qabul qilgan davlatlararo va hukumatlararo shartnomalar va bitimlar qanday bajarilayotganini nazorat qilish;

- ularning bajarilishini hamda uchta mamlakat integratsiyasiga oid boshqa masalalar hal etilishini ta'minlash yuzasidan tavsiyalar tayyorlash.

Shartnoma imzolangan keyin bojxona tartiboti ixchamlashtirildi, bu esa Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yuklarini bojxona ko'rigidan o'tkazishni bekor qilish imkonini berdi, qurol-yarog'', giyohvandlik va psixotronik vositalar, valyuta va madaniy boyliklarining olib ketayotganligi xususida shubha uchun yetarli ketayotganligi xususida shubha uchun etarli asos bo'lgan hollar bundan mustasnodir.

Markaziy Osiyo yagona iqtisodiy makoni tashkil qilinishi bu hududlar kapital va ishchi kuchlarining erkin harakatlanishi uchun huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy sharoitlarni yaratib, erkin raqobat uchun yo'l ochib berdi.

Bu makonda 2000 yilga qadar qatnashuvchi mamlakatlarning halq xo'jalik sohalariga jalb qilish uchun zarur bo'lgan 50dan ortiq loyihalarining dasturlari ishlab amaliyotga joriy qilinmoqda.

Gazli konidan Buxoro gazoprovodi orqali Almataga gaz berish ishlari yuzasidan qurilish ishlari oxirga etkazilmoqda.

Navoiy tog'-metallurgiya kombinati «Altunalmaz» aktsiyadorlik kompaniyasi (qozog'iston) bilan hamkorlikda oltin rudalarini qayta ishlash bo'yicha yangi texnologiyani sinab ko'rib, ishlab chiqarishga joriy qilindi.

Bishkekda uchta mamlakatning elektrotexnika, radioelektronika, pribor ishlab chiqarish sohalaridan iborat bo'lgan 28ta ishlab chiqarish gruppasi ta'sis etildi.

Hozirgi vaqtda mamlakatlar ishlab chiqarish kooperatsiyasini ta'minlashga yo'naltirilgan 17 ta loyihani amalga oshirishga kirishildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, turli davlatlar o'rtasida xalqaro mehnat taqsimoti tufayli yuzaga keluvchi va jahon tizimining harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan o'zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlik g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu mehnatning davlatlar o'rtasida ma'lum miqdoriy va sifat proportsiyalarini amalga oshiradi, ular o'rtasida tovarlar, xizmatlar va boshqa ishlab chiqarish va Shu kabi faoliyatlarni rivojlantirishda, ko'p muammolarni birgalikda hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi

Ma'lumki, mustaqillikning dastlabki yillarida barcha post sovet mamlakatlarida bo'lganidek, O'zbekiston Respublikasida ham eski

jumhuriyatlararo xo'jalik aloqalarining uzilishi, yangilarining esa hali shakllanib ulgurmaganligi va bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan chuqur strukturaviy qayta qurishlarni amalga oshirish zaruriyati tufayli bir qator iqtisodiy qiyinchiliklarga ro'baru kelindi. Bu sharoitda ishlab chiqarish vositalari bozorida ham, iste'mol bozorida ham taqchilik yuz berdi. Bu vaziyatdan har kim o'z bilganicha chiqib ketishga urindi. O'zbekiston Respublikasi hukumati esa boshqalardan farqli o'laroq hiyla qiyin va murakkab, ma'lum vaqtni talab etadigan yo'ldan - mavjud barcha resurslar potentsialini safarbar qilish orqali sanoati, transport, aloqa va xizmat ko'rsatishning ulkan industriyasini bozor munosabatlariga moslab yaratish yo'lidan bordi. Chet el investitsiya va kreditlari ham ana shu maqsadga sarflandi. Natijada kelgusida iqtisodiy o'sish uchun mustahkam negiz hozirlandi. Bu esa bosh vazifani hal qilish, ya'ni makroiqtisodiy barqarorlikka erishishda ijobiy siljishlarni yildan-yilga mustahkamlanib borishiga imkon berdi.

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining umumlatiruvchi ko'rsatkichi bo'lib, u ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi korxona va tashkilotlar faoliyatining pirovard natijalarini o'z ichiga oladi.

YAIMning 15,9 % sanoat tarmoqlarida, 26,8 % qishloq xo'jaligida, 5,9 % transport va aloqada, 8 % qurilishda, 8,3 % savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida, 22,4 % xizmat ko'rsatish sohalarida va 12,7 % mahsulot va tashqi savdodan tushgan soliqlardan tarkib topmoqda.

YAIM hajmining qator yillar bo'yicha indeslarda ifodalanishi va boshqa mamlakatlar bilan taqqoslanishi, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Uning doimiy narxlarda o'sishi mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotining umumiy tendentsiyalarini o'zida aks ettiruvchi yurgizilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligini baholaydi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida bitta umumiy tendentsiya, ya'ni oila byudjetida oziq-ovqatga sarflangan xarajatlar ulushining o'sishi kuzatiladi.

Nafaqa ta'minoti muammosi tobora dolzarb muammolardan biriga aylandi. Narxlarining o'sishi sharoitida ushbu toifadagi fuqarolar turmush darajasini saqlab turish uchun nafaqalar doimiy indeksatsiya qilinishi lozim.

Shu narsani hisobga olish lozimki, siyosiy barqarorlik va iqtisodiy islohotlarning siljishi nuqtai nazaridan yangi davlatlar turli xil sharoitdadir. Eng yuqori siyosiy va iqtisodiy barqarorlik Qozog'iston, O'zbekiston,

Turkmaniston, qisman Qirg'izistonda kuzatiladi. Bu erda xususiylashtirish tanlash asosida amalga oshirildi, markazning ta'siri kuchli bo'lib, u iqtisodiy jarayonlarining boshqarilishini o'z qo'lida tutib turibdi.

Bu mamlakatlarning barchasida iste'mol bozori inqirozi keskinlashdi. Chakana savdo aylanmasining qisman miqdori barcha davlatlarda faqat tovarlarga bo'lgan chakana narxlarning o'sishi evaziga ko'paydi.

O'zbekiston va Turkmanistonda 1991 yilning aprel oyidan so'ng uzoq vaqt davomida normallashtirilgan ta'minotdagi oziq-ovqat va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sanoat mahsulotlari turlariga bo'lgan narxlar barqaror darajada saqlanib turdi. Bu mamlakatlarda baholarning yirik markazlashgan oshirilishi 1993 yil iyul oyining boshlarida o'tkazildi.

Chakana savdo aylanmasining umumiy hajmida xususiylashtirish korxonalar, kooperativlar, aktsiyadorlik jamiyatlari, aralash mulkka asoslangan korxonalar, qo'shma korxonalar va boshqalarning ulushi Tojikiston va O'zbekiston 0,4-1,6 % ni, Turkmanistonda 5 % ga yaqinini, Qirg'iziston va Qozog'istonda 10 % ni tashkil qildi.

Pullik xizmat ko'rsatishning qiymat ifodasidagi hajmi ularning jismoniy hisobdagi 1991 yildan boshlab muntazam pasaymoqda.

Bunday holat o'tkazilayotgan islohotlarda so'zsiz aks etadi. Islohotlarning markazida esa fuqarolar, ularning oilalari, hozirgi va kelajakdagi kishilar ahvolini yaxshilash maqsadida barqarorlashtirish, ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish, tadbirkorlikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish vazifalari qo'yilgan.

Qisqacha xulosa

Osiyo mamlakatlarida mintaqaviy iqtisodiy integratsiya tashkil etish Bo'yicha xozirgacha xam bir – bir ijobiy ish qilinmagan bu esa Saxara cho'liga tutashgan va Lotin Amerikasi mamlakatlariga yaxshi yo'lga ko'yilgan. Mamlakatlar o'rtasidagi qattiq ideologik kelishmovchilik, siyosiy notinchlik va xar xil siyosiy kelishmovchiliklar vash u sababli bozorlarning kattaligi, zaxiralar bilan ta'minlanganligi, odam boshidagi daromad darajasidan kelib chiqib bu hududlarda hududiy iqtisodiy integratsiyalarni hududiy savdoni rivojlantirish va kengaytirishga to'sqinlik qiladi. Lekin yuqorida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra hududda ayrim siyosiy va iqtisodiy kelishuvlarni imzolashga erishildi.

Nazorat savollari:

1. Markaziy Osiyo Respublikalarida bojxona munosabatlarining paydo bo'lishi to'g'risida gapiring.
2. Mamlakatlarning hududiy integratsiyasi deganda nimani tushunasiz?
3. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya bosqichlari to'g'risida gapiring.
4. "Erkin savdo bo'yicha Lotin Amerikasi assotsiatsiyasi"(NAFTA) nechinchi yilda tashkil etilgan?
5. Markaziy Amerika mamlakatlari umumiy bozori nechanchi yilda tashkil etilgan va qaysi mamlakatlar a'zo bo'lgan?
6. "Arab mamlakatlarining umumiy bozori" tashkilotiga qaysi Osiyo mamlakatlari a'zo bo'lgan?
7. Mag'rib bojxona Ittifoqi haqida nimalarni bilasiz?
8. Iqtisodiyotni erkinlashtirishning ijobiy, salbiy tomonlari.

Asosiy adabiyotlar

1. Бобохўжаев Ғ. «Божхона органлари фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2010. –230 бет.
2. Кучаров А., Тиллахўжаев Б. «Божхона таомиллари». Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ. 2009. –211 бет.
3. Кучаров А., Тоиров Ш. «Божхона иши». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2009. – 232 бет.
14. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.
15. Коник Н.В. Таможенное дело: Учеб. пособ. – М.: «Омега-Л», 2008. – 192 с. 2 экз

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Шомагдиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятида товар номенклатураси. Дарслик. Т:- ТДИУ. 2010. –196 бет.
2. Алиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятни давлат томонидан тартибга солиш. Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ, 2008. - 192 бет.
3. Драганов В.Г. Основы таможенного дела. Учебное пособие. – М.: 1998. 346-стр.
4. Шомагдиев А., Кучаров А., Неъматов И. Халқаро транспорт ташувлари.. Ўқув қўлланма. Т:- ТДИУ, 2010. –185бет
5. Свинухов В.Г. Таможенное дело. Учебник. М.: Экономист. 2008. – 298 стр.

6. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.
7. «Инкотермс»: Международные правила толкования торговых терминов. – М.: «Омега-Л», 2009. – 76 с.
8. Трошкина Т.Н. Таможенные платежи: Учебно–прак. пособ. М.: “Городец”», 2007. – 128 с. 2 экз
9. Удовенко С.П. Таможенный тариф современной России (1993-2005 гг.). – СПб.: ООО «Архей», 2006. – 402 с.

Internet saytlari

1. <http://www.asstra.ru/downloads/kvt.txt>
2. <http://www.abkhazeti.ru/pub/energyprojects>
3. <http://www.mcads.ru/default.asp>

VII-bob. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi respublikalari bojxona hamkorligi

7.1. Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi Respublikalari bojxona Ittifoqining asosiy vazifasi

MDH haqida gap ketganda, uning hamdo'stlikka kiruvchi mustaqil davlatlar tarixida tutgan o'rni salmoqli ekanini ta'kidlamoq kerak. Lekin MDH faoliyatini bugungi kun talabi darajasida deyish qiyin. Hamdo'stlik doirasida olib borilgan muzokaralar, qabul qilingan hujjatlarning amaliy natijasi kam bo'lmoqda.

Mamlakatimiz rahbari Toshkent aeroportida ommaviy axborot vositalariga intervyu berar ekan, so'nggi vaqtlarda MDH kerakmi, yo'qmi, degan savollar paydo bo'layotganini ta'kidladi.

Faraz qiling, MDH tarqatib yuborilsa, bu a'zo davlatlar kelajagi uchun qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin¹⁰, dedi Islom Karimov.

Birorta davlat faqat o'z qobig'iga o'ralgan holda iqtisodiy taraqqiyotga erisha olmaydi. Jahonda globallashuv jarayonlari kechayotganini unutmaylik.

Bundan tashqari, MDH doirasida yo'lga qo'yilgan aloqalar, qabul qilingan qator shartnomalar bor. Bugungi davr, jahonda ro'y berayotgan voqea-hodisalar ham MDHning kerak ekanini taqozo etmoqda, dedi Prezidentimiz. Zero, hamdo'stlikka a'zo mamlakatlar o'zaro aloqalarni davom ettirishga harakat qilmoqda. Bunday harakatlarni yanada jonlantirish, MDH faoliyatini bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda isloh qilish kerak.

Hamdo'stlikni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish edi. MDH sammitlarida, O'zbekiston Prezidenti ko'p bor ta'kidlaganidek, iqtisodiy emas, ko'pincha siyosiy va harbiy masalalar ustuvor bo'lib keldi. Shu bois qa'bul qilingan qarorlarning aksariyati to'la ishlamayapti.

Bu galgi Tatariston Respublikasi poytaxti Qozonda bo'lib o'tgan sammitda asosan MDHni isloh etish va uning organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, a'zo davlatlar o'rtasidagi keng ko'lamli hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, qator xalqaro va mintaqaviy masalalarni muhokama etish ko'zda tutilgan.

Mustaqil Davlatlar hamdo'stligining sammitida asosiy e'tibor MDHni isloh qilish va uning organlari faoliyatini takomillashtirish masalasiga

¹⁰ www.gov.uz

qaratildi. Prezidentlar xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash muammolari, hamdo'stlik mamlakatlarida kechayotgan jarayonlar yuzasidan fikr almashdilar.

Davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida bu masalalarning muhokamasi davom etdi. Shuningdek, MDH mamlakatlarining gumanitar hamkorligi to'g'risidagi bitim loyihasi ko'rib chiqildi. Bu hujjat madaniyat, ta'lim, ilm-fan, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar, sport, sayyohlik va yoshlar bilan ishlash sohalarida aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qilishi ta'kidlandi.

MDH yuksak marralarni egallamayotgan, o'z oldiga qo'ygan vazifalarning barchasini uddalamayotgan bo'lsa-da, uning mavjudligi baribir ko'p afzalliklarga ega. Umuman, hozirgi zamon yakka tartibdagi taraqqiyotni inkor etadi.

Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi sobiq SSSR respublikalari o'rtasidagi aloqalarni saqlab qolish va yangicha asosda rivojlantirish maqsadida tuzilgan edi. Uning kuch va imkoniyatlari ko'p. Iqtisodiy aloqalarning o'zidan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Erkin savdo zonasi MDHni integratsiya yuksak darajada rivojlangan hamjamiyatga aylantirishi mumkin. Bir-biriga ulanib ketgan transport tarmoqlari, neft-gaz quvurlari, halq xo'jaligining o'zaro bir-birini to'ldirishi, a'zo davlatlarning bevosita qo'shniligi va boshqa omillar savdo-iqtisodiy hamkorlik uchun qulay imkoniyatdir.

Mutaxassislar globallashuv jarayoni tobora faollashayotgan hozirgi kunda iqtisodiy bo'ronlarga, jahon iqtisodiyotidagi silkinishlarga tayyor turish uchun ham integratsiyani kuchaytirmoq lozimligini ta'kidlashadi. 279 million kishi yashaydigan MDHga jahon sanoati salohiyatining 10 foizi, dunyoda aniqlangan tabiiy zaxiralarning 25 foizi to'g'ri keladi. Qolaversa, so'nggi yillarda hamdo'stlikning qator mamlakatlarida barqaror iqtisodiy o'sish kuzatilmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2004 yilda MDHda yalpi milliy mahsulot o'sishi o'rtacha 8 foizni tashkil etgan. Xulosa uchun davlatlarida yalpi milliy mahsulotning o'sishi o'rtacha 3-4 foizdan oshmayotganini aytib o'tish mumkin. E'tirof etish kerak, bu raqamlar katta imkoniyatlardan dalolat.

Xavfsizlik masalasida ham MDH doirasidagi hamkorlik dolzarbligicha qolmoqda. Terrorchilik, ekstremizm va ayirmachilikka, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka, qurol-yarog'ning noqonuniy savdosi va g'ayriqonuniy muhojirlikka qarshi kurashda Hamdo'stlik mamlakatlari chetdan yordam ko'tishi o'rinli emas. Shu bilan birga, o'zaro

muvofiglashtirilgan, mustahkam hamkorlikdagi sa'y-harakatlarsiz tahdidlarning oldini olish g'oyat mushkul. Bu xususta Prezident Islom Karimovning Hamdo'stlik davlatlarida terrorchilar va ekstremistik tashkilotlarning ro'yxatini tuzish, shu tariqa ularni MDH hududida o'rsatishi va harakatlanishiga to'siq qo'yish borasidagi taklifini a'zo davlatlar qo'llab-quvvatlaganini ta'kidlash o'rinlidir.

MDH mamlakatlari ijtimoiy sohada keng qamrovli hamkorlikni rivojlantirish orqali xalqlar o'tasidagi do'stlikni mustahkamlash imkoniyatiga ega. Bu ilm-fan va ta'lim, madaniyat va san'at, sport va sayyohlik, sog'liqni saqlash kabi sohalardagi aloqalar uchun qo'shimcha qulaylikdir. Qozon sammiti arafasida Rossiya axborot agentliklari kelasi yilning bahorida ilk bor MDH mamlakatlari ijodiy va ilmiy doiralarining forumi o'tkazilishi haqida habar tarqatdi

Bugungi kunda MDHning mana Sunday katta imkoniyatlari e'tibordan biroz chetda qolib, Hamdo'stlik doirasida amaliy ishdan ko'ra, ko'proq siyosiy bahsga berilish hollari kuzatilmoqda. Ayrim mamlakatlar MDHni rivojlantirishdan ham uning ichida yangi-yangi tashkilotu tuzilmalar tuzish haqida ko'p qayg'uradi. Ba'zilar ovoza bo'ladigan, lekin amalda samara bermaydigan tashabbuslarni ilgari suradi. Tabiiyki, bunday harakatlarni har bir mamlakat o'zicha qabul qiladi. Keyin bahs-munozaralar boshlanadi.

Mutaxassis va kuzatuvchilarning fikricha, MDHning har bir a'zosi boshqa a'zolarning manfaatlariga to'g'ri yondashgandagina Hamdo'stlikning istiqboli porloq bo'ladi. Boshqacha aytganda, avvalo barcha a'zo davlatlar manfaatlariga mos keladigan masala va mavzuni ko'tarish, keyin hammaning bu masalaga munosabatini inobatga olish kerak.

Harbiy-siyosiy bloklar tuzish borasidagi harakatlar ham vaqtni zoe ketkazishdan o'zga narsa emas. Har bir mamlakatning o'z milliy mudofaa doktrinasi, qurolli kuchlarni takomillashtirish strategiyasi bor. Harbiy-siyosiy bloklar esa milliy doktrina va strategiyalarning muayyan qismiga zid kelishi mumkin.

Avvalo, ta'kidlash kerakki, MDH o'z a'zolari uchun foyda keltirishga qurbi etadigan tashkilot ekanligi bir ovozdan tasdiqlandi. Zero, ko'rilayotgan masalalarga turlicha qarashlar mavjud ersa-da, tinchlik va barqarorlikni saqlash, keng ko'lamli hamkorlikni rivojlantirish kabi umumiy maqsad va vazifalar ham talaygina. Bu keyingi harakatlar uchun yaxshi asos bo'ladi. Shu bois bir-biridan uzoqlashish emas, amaliy hamkorlikni kengaytirish

zarurligi borasida prezidentlarning fikri bir joydan chiqdi. Buning uchun integratsiyaning yangi modelini ishlab chiqishga kelishib olindi. Ayni paytda bahs-munozaralar mavjud bo'lishi tabiiyligi, lekin tortishuvlar muayyan samara berib kelayotgan sohalarni oxsatib qo'yishidan ehtiyot bo'lishga e'tibor berish kerakligi qayd etildi.

7.2. Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Ukraina Respublikasi va Qozog'iston Respublikalari yagona iqtisodiy Ittifoqi

Qozonda bo'lib o'tgan sammit yakunida o'zaro kelishilgan chegara siyosatining konseptsiyasi, tashqi chegaralarda inqirozli vaziyatlar yuzaga kelganda va ularni bartaraf etishda chegara xizmatlari va boshqa idoralarning hamkorligini tashkil qilishga oid nizomni tasdiqlash to'g'risidagi protokol, noqonuniy muhojirlikka qarshi kurash bo'yicha 2006-2008 yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi, terrorchilik va ekstremizmning yovuz ko'rinishlariga qarshi kurash bo'yicha 2005-2007 yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi, oliy moliyaviy nazorat organlari rahbarlarining davlatlararo Kengashi to'g'risidagi protokol imzolandi. Prezidentlarning Qozon shahrining 1000 yilligi munosabati bilan bayonoti qabul qilindi. Hamdo'stlikning keyingi sammitini Belarus poytaxti Minsk shahrida o'tkazishga kelishib olindi.

MDHning Qozon sammitidan oldin uning istiqboli haqida goh ko'tarinki, goh tushkun kayfiyatdagi ko'p fikrlar bildirildi. Oliy darajadagi ushbu uchrashuv va uning natijalari esa Hamdo'stlik o'zining kuch va imkoniyatlarini to'laroq ishga solishga yo'naltirilgan islohotlar yo'liga qadam qo'yganidan dalolat bermoqda.

Rossiya Federatsiyasi bilan Bolorus Respublikasi o'rtasidagi bir necha o'n yilliklardan buyon davom etayotgan iqtisodiy va xarbiy – strategik aloqalar ikki mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. Belarus Respublikasining Rossiya Federatsiyasi mudofa kompleksi buyurtmasidagi hajmi 15% ni yuqori texnologik tovarlar tashkil etadi. Bularning orasida aviatsiya sohasiga tegishli bo'lgan texnologiyalar, kosmik va sputnik vistalari uchun zarur bo'lgan jixolar kiradi. Rossiya Federatsiyasi uchun Belarus Respublikasi bilan iqtisodiy aloqaning yana bir muhim tomonlaridan biri integratsion kelishuvlar natijasida Rossiya fedratsiyasi Belarus Respublikasidan xar – xil iqtisodiy to'siqlarsiz transport vositasi, uy ro'zg'or

texnikasi, go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari va boshqa halq iste'moli mahsulotlarini talab darajasidagi sifatda va arzon narxlarda olib kirib axolini ehtiyojini qodirishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasi uchun Belarus Respublikasini geografik joylashishi juda muhim o'rin egallaydi. Belarus Respublikasi xududidan Rossiya Federatsiyasining Garbiy Evropaga uzatilayotgan 5 asosiy neft yo'llaridan 2 tasi manna shu xududdan o'tadi shu jumladan, «Do'stlik» neft yo'li ham. Rossiya federatsiyasining Yamal - g'arbiy Evropa gaz uzatish yo'lining Belarus Respublikasidagi qismi qurilishi Rossiya federatsiyasini Ukraina Respublikasi xududi orqali gaz ekportiga bog'liqligini kamaytiradi chunki gazni Yamal - g'arbiy Evropa yo'li orqali eksport qilishi Ukraini Respublikasidagiga nisbatan transport qilish xarajatlari 20 % ga qisqartiriladi.

Belorus Rossiya hamjamiyati shartnomasidagi ko'zda tutilgan asosiy maqsad yagona transport va informatsion kommunikatsiyani tizimi orqali Rossiya Federatsiyasini eksportini arzonlashtirish, G'arb bilan iqtisodiy aloqalarni jadallashtirish va shu bilan bir qatorda Kaliningrad viloyati bilan aloqalarni soddalashtirish.

Shuni ham alohida qayd etish kerakki Rossiya Federatsiyasi bilan Belarus Respublikasi o'rtasida iqtisodiy vaziyatga bog'liq bo'lgan juda qiyin muammolar mavjud. Rossiya Federatsiyasining Belarus Respublikasi bilan olib borayotgan tashqi savdosidan bojxona bojlari, soliq va yig'implarni to'laligicha bekor qilishi, Rossiya Federatsiyasi davlat byudjetini asosiy daromad manbaini boitadi va Rossiya Federatsiyasi davlat byudjeti kata foida kuradi. Barcha tovarlarni etkazib berish ishlab chiqarilgan mamlakatning ichki narxi asosida amalga oshiriladi shu jumladan energiya tashuvchilari ham. Rossiya Federatsiyasi Belarus Respublikasiga energoresurslarni imtiyozli narxlarda etkazib beradi. Bu esa o'zining savdo sherigiga subsidiya berishini bildiradi. Bu tovarlarni narxlari Belarus Respublikasida bundan ham pastroq, bu esa Belarus Respublikasi korxonalarini Rossiya Federatsiyasi tovar ishlab chiqaruvchilari oldida imkoniyatlarini yana ham oshiradi.

Belorus Respublikasida olib borilayotgan reforma Rossiya Federatsiyasida olib boilayotgan reformalardan o'zining evolyutsion xarakteri bilan farkq qiladi. Bu esa Rossiya Federatsiyasining «Shok terapiya» usulidan ko'ra ancha afzalroq hisoblanadi, chunki bunda oldindan to'plangan iqtisodiy salohiyat saqlab qolinadi. Bulardan tashqari iqtisodiyotni

birdaniga tushib ketishini va ishlab chiqarish darajasi pasayib ketishini oldi olinadi, odamlarning hayotiy darajasi tushib ketishini oldi olinadi. Belarus Respublikasining tanlagan bozor iqtisodiyotiga o'tishning «Yumshoq» yo'li Respublikada qayta ishlash orqali tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyotni amaldagi ko'rinishini saqlab qoladi, Belarus Respublikasida ham Shok terapiya usulini tanlanishi Respublikada ishlab chiqarish strukturasini buzilishiga olib kelardi. Chunki Belarus Respublikasida Rossiya Federatsiyasi singari tabiiy resurslari zaxirasi ko'p emas.

Quyidagi jadvaldan ko'rinib turibdiki 2005 yildagi iqtisodiy o'zgarishlarning salbiy ta'siri Rossiya Federatsiyasidagiga nisbatan Belarus Respublikasida kamroq. O'tgan iqtisodiy reforma yillarida odamlarning xayot darajasi deyarli bir xil pasaygan 2004 yilda 1991 yilgiga nisbatan Rossiya Federatsiyasida 61.0 foizni Belarus Respublikasida 62.0 foizni tashkil etgan. Belarus Respublikasi iqtisodiyotini yana bir muhim jixatlaridan biri qishloq xo'jaligining kolxoz – sovxoz xo'jaliklari Respublikaning asosiy tovar ishlab chiqarishini yuqori darajada ta'minlayotgan va Rossiya Federatsiyasi va barcha Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Respublikalari orasida aholi jon boshiga eng yuqori daromad keltirayotgan soha hisoblanadi.

7.2.1-jadval

Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikalarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi. (2010 yil ko'rsatkichlari 2005 yilga nisbatan)

№	Sohalar	Rossiya	Belorus
1.	Yalpi ichki mahsulot	61,0	65,0
2.	Sanoat ishlab chiqarish hajmi	51,0	62,0
3.	Qishloqxo'jaliq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	65,0	79,0
4.	Kapital qo'yilmalar hajmi	30,0	33,0

Manba: custms

Mana o'n yildirki Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasi ittifoqi ustavda va shartnomada ko'rsatilgan faoliyatini olib boradi. Iqtisodiy

sohadagi hamkorlik natijasida juda ham ko'zga tashlanarli natijalarga erishilgan. Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasi o'rtasidagi tovar aylanmasi 1995 yilda 5 mlrd. AQSH dollari, 1997 yilda 9 mlrd AQSH dollari, bo'lgan bo'lsa 2003 yil natijalariga ko'ra 14.3 mlrd va 2010 yilga kelib bu ko'rsatkich 27.8 mlrd AQSH dollari etgan. Bu ijobiy natijalarga etishishni asosiy sabablaridan biri ikki mamlakat o'rtasidagi bojxona maskanlarini olib tashlanganligi va Belarus Respublikasi va Rossiya Federatsiyasining 50 dan ortiq viloyatlari o'rtasida iqtisodiy kelishuvlar mavjudligi hisoblanadi. Ikki mamlakat o'rtasidagi tashqi savdo tovar aylanmasida mineral resurslarning (neft, gaz, ko'mir) hajmi sezilarli kamaydi, mashinasozlik mahsulotlarining hajmi esa oshdi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi yagona bojxona hududining konturlari oydinlashtirilayapti. Belarus Respublikasi bojxona tarifi to'g'risidagi qonuni va bojxona kodeksi Rossiya Federatsiyasi bojxona tarifi to'g'risidagi qonun va bojxona kodeksi bilan uygunlashtirildi. Uchinchi mamlakatlar bilan savdo rejimlari kelishib olindi, ittifoqning bojxona tarifi tayyorlangan. Ushbu muhim sohani huquqiy asosni ya'ni bojxona va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarni uzgartirishni belgilangan qoidalar bo'yicha Ittifoqning Ijroya qo'mitasi amalga oshirishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasi va Ukraina Respublikasi o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish va uni kengaytirish bo'yicha 1998 yilda imzolangan 1998-2007 yillarga mo'ljallangan hamkorlik kelishuvi hisoblanadi. Bu imzolangan hujjat Rossiya Federatsiyasi va Ukraina Respublikasi o'rtasidagi sobiq SSSR tarqalib ketganidan keyingi aloqalarni qayta tiklaydi va iqtisodiy aloqalarning yangi yo'nalishlarini yaratib beradi. Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha aniq tadbirlar o'z ichiga iqtisodiyotni muhim tarmoqlarini oladi, masalan: - yoqilgi energetika majmuasi, kosmik texnikalar va samalyotsozlik sohasi, atom energetika majmuasi, qishloq xo'jaligi mashinlarini ishlab chiqarish majmuasi, avtomobil ishlab chiqarish majmuasi va shunga o'xshash sanoatning boshqa tarmoqlari. Mana shu kelishuvlar natijasida yangi AN-70 rusumli transport samoletlarini ishlab chiqarish rejasi tayyorlangan, shu orqali Rossiya Federatsiyasi xam Ukraina Respublikasi birgalikda Evropa aviatsiya bozorga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bu chora tadbirlar natijasida Rossiya Federatsiyasi va Ukraina Respublikasi o'rtasidagi tovar aylanmasining hajmi katta miqdorda usadi.

Real iqtisodiy imkoniyatlar Rossiya Federatsiyasi va Ukraina Respublikasi o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasini 10 yil ichida 2,5 martaga oshirish imkoniyati mavjud - 35-40 mlrd doll darajasigacha olib chiqish mumkin. Hozir kunda Ukraina Respublikasi Rossiya Federatsiyasini asosiy strategik savdo sherigi hisoblanadi. 2010 yilda ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aylanmasi 29.2 mlrd AQSH doll. tashkil etdi. Ikki tomonlama manfaatli iqtisodiy hamkorlikni aosi bo'lib Rossiya Federatsiyasi va Ukraina Respublikasi o'rstasida 1997 yilda Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasida dusturli, xamorlik va ikki tomonlama sherikchilik to'g'risida shartnomani ratifikatsiya qilinishi bo'ldi.

7.3. O'zbekiston Respublikasining Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi bojxona Ittifoqining azoligining afzalliklari

Mustaqil davlatlar hamdusligi respublikalari zamonaviy iqtisodiy vaziyati o'zining sotsial-iqtisodiy sohadagi maqsadli belgilashi har – xil bo'lganligi sababli: milliy iqtisodiyotni mustaqilligi, bozor reformalarini milliy xarakteri, uzoq chet elga mo'ljallangan maqsadlarining keskin farqlanishi bilan ajralib turadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi respublikalari bir qaror hududiy iqtisodiy birlashmalarga aylandilar: bular tarikibiga quyidagi respublikalar kiradi, Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikalari Ittifoqi, Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikalari Ittifoqi, bulardan tashqari Markaziy Osiyo O'zbekiston Respublikasi, Kozogsiton Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi va Sharqiyevropa Ukraina Respublikasi, Moldaviya Respublikasi bilashmasi, Gruziya Respublikasi, Ukraina Respublikasi, Azarbayjon Respublikasi va Maldova. Respublikalarining GUAM iqtisodiy birlashmalari shular jumlasidandir.

Ko'pgina mustaqil respublikalar respublikadagi sotsial-iqtisodiy inqirozni hal etish uchun foydali qazilma konlarini sotish va davlat mulklarini xususiylashtirish va ishlab chiqarishda chet el sarmoyalarini jalb etish orqali hal etishga harakat qiladilar. Lekin shuni oshkoralik bilan ham aytib utish kerakki, milliy iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy hamkorlik va bozor iqtisodiyotini bosqichma – bosqich shakillantirishni muvofiqlashtirilmagan harakatlarsiz shakillantirish ushbu respublikalarni jahon bozoriga xom –

ashyo bazasiga aylantirishi, asosiy arzon ishchi kuchi manbaiga va ushbu respublika ichki boziri chet el tovarlari bozasiga aylantirishi mumkin. Bu esa ushbu respublikani jahon siyosiy maydonida qeyinchilik siyosiy mavqeyini yukotishiga olib keladi..

Hozirgi vaqtgacha iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari tovarlar, xizmatlar, mehnat, kapitallarning erkin xarkati uchun sharoit yaratib berdi. Milliy qonunchiliklardagi o'zaro farqlarga va respublikalarning iqtisodiy rivojlanish darajasining har - xilligiga qaramasdan integratsion imkoniyatlar saklanib turibdi. Bu esa Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi respublikalari orasida iqtisodiy integratsiyani amalga oshirish uchun va ular o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirish uchun hal qilib bo'lmaydigan to'siqlar yo'kligidan darak beradi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi juda katta dinamik iqtisodiy rivojlanish salohiyatiga. Integratsiyaning ob'ektiv xarakteri tarixiy, iqtisodiy, geografik va boshqa omillarning umumiyligini belgilaydi. Evropa taraqqiyot va tiklanish bankining (EBRR) baholashicha oxirgi etti yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi respublikalarida iqtisodiy ko'rsatkichlar darajasi tushganidan sung 1997 yildan boshlab ular iqtisodiy krizisdan chiqib ularning iqtisodiyoti ijobiy ko'rsatkichlarga erisha boshladi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi bojxona Ittifoqi – bu Ittifoqqa a'zo mamlakatlar. Iqtisodiy va sotsial rivojlanishning zamonaviy integratsion jarayonlarni rivojlanishining o'ziga xos xususiyati bo'lib - xududiy savdo iqtisodiy Ittifoqlar va birlashmalar tashkil etish va rivojlantirish hisoblanadi. Yuqorida aytib utilganidek integratsiya uz ichiga bir qancha bosqichlarni oladi - erkin savdo xududlari, bojxona ittifoqi, umumiy bozor va eng yuqori bosqichi sifatida, iqtisodiy va valyuta ittifoqi hisoblanadi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ustavini imzo chekkan respublikalar, shu jumladan Ukraina respublikasi xam, olimlarning fikiga kura barcha a'zo respublikalarga imtiyozli rejimlar beruvchi erkin savdo hududlarini tashkil etadi. Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi va ularga qo'shilgan Tojikiston Respublikalari bojxona Ittifoqi tuzdilar, Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasi iqtisodiy integratsiyani yuqori bosqichi yo'lidan borib – yagona iqtisodiy Ittifoq tuzdilar.

Bu iqtisodiy tashkilotlar asosiy maqsadi bo'lib quyidagilr hisoblanadi:

- o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalarning me'yoriy rivojlanishiga harakat qilish;

- mamlakatning keyingi rivojlantirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti xujjatlarida kayd etilgan demokratik printsiplar asosida mamlakat fuqarolarining huquqlari va erkinliklarni ta'minlash;

- tashqi iqtisodiy aloqada GATT - VTO qoidalariga asoslangan holda qabul qilgan umumiy me'yorlarni tan olish;

- o'zaro erkin iqtisodiy hamkorlikni rivojlanishiga monelik kilmasdan balki, uni tan olish;

- iqtisodiy ittifoq shartnomasi qoidasi bandlprini bajarishni davom ettirish bilan bojxona Ittifoqi tuzishga bosqichma bosqich o'tish;

- 12 aprel 1994 yilda Moskva shaxrida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishni yagona qoidalari to'g'risidagi Rossiya Federatsiya va Belarus Respublikasi hukumatlari orasida imzolangan shartnomaning ijobiy natijalarini takidlab Belarus Respublikasi poytaxti Minsk shaxrida «Bojxona Ittifoqi» tashkil etish Bo'yicha Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasi o'rtasida shartnoma imzolandi.

Bojxona ittifoqi tuzishning asosiy maqsadi, ikki tomonning o'zaro birgalikdagi harakatlari aossida erkin savdodagi xar – xil to'siqlarni bekor qilish orqali sotsial-iqtisodiy rivojlanishga erishishdir. Bojxona ittifoqiga a'zo mamlakatlarning milliy xalq xo'jaligini har tomonlama rivojlanishini ta'minlash va mamlakatlarning iqtisodiy siyosatini mustaxkamlashni, iqtisodiy rivojlanishni, erkin tovar aylanishi va raqobatbardosh konkurensiyani ta'minlaydi. Bojxona Ittifoqiga a'zo mamlakatlarga yagona iqtisodiy hudud shakllantirish va ularni jahon bozorlariga erkin va faol chiqishini ta'minlashni o'z oldiga reja qilib qo'ygan.

Kelishayotgan taraflar bojxona ittifoqni a'zo davlatlarning iqtisodiy birlashmasi deb takidlamogda, ular bunga asos qilib xo'jalik yuritayotgan mixanizim bozor iqtisodiyotiga asoslanganligi va qoninchilikni bir – biriga yaqinlashtirilganligini, bojxona Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning hududlari yagona bojxona xududi deb e'lon qilinganligi, bojxona Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish mixanizmining bir xilligini ko'rsatmokdalar.

Yagona bojxona hududining shakllantirish quyidagi yo'llar bilan amalga oshirishni mo'ljallamoqdalar:

- bojxona Ittifoqiga a'zo mamlakatlar o'z hududlaridan o'tayotgan tovarlar va transport vositalariga nisbatan bojxona boji, soliqlar va yigimlar, texnik to'siqlar va miqdoriy chegaralashlarni bekor qilishga;

- bojxona Ittifoqiga a'zo mamlakatlar uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona tarifi va taski savdoni notarif usullar orqali tartibga solish choralarini o'z ichiga olgan bir xil savdo rejimini ishlab chiqish va uni qo'llash;

- bojxona Ittifoqini uchinchi mamlakatlar bilan o'zaro aloqalarini shakillantirish va Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasi o'rtasida imzolangan kelishuvlar asosida xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarni shakillantirish va uni rivojlantirish; (Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasi o'rtasida 12.04.1994 yilda imzolangan tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishni yagona qoidasi to'g'risidagi kelishuv.)

- kelishuv imzolayotgan davlatlarning tashqi bojxona chegaralarida ishonchli bojxona nazoratini amalga oshirish.

Kelishuvni imzolayotgan tomonlar Bojxona Ittifoqini tashkil etish mexanizmini aniqlab oldilar. Ikkinchi bosqichda 15 aprel 1994 yilda imzolangan erkin savdo hududini tashkil etish to'g'risidagi kelishuv amalda qo'llash taxminlanayotgan edi. Bu kelishuvdagi shu narsaga alohida e'tibor berish kerakki 6 yanvar 1995 yildagi Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasi tomonidan imzolangan o'zaro savdoda erkin savdo rejimini qo'llash, o'zaro savdoni chegirimlar va cheklovlarisiz amalga oshirish va shu bayonnoma asosida o'zaro savdoda tariflarni bekor qilish va miqdorish cheklovlarni bekor qilish orqali amalga oshirish shart edi. Shu bilan bir qatorda o'zaro savdoda miqdoriy cheklovlarni qo'llamaslik va bojxona tariflarini bekor qilish 12 aprel 1994 yilda ikki mamlakat tomonidan imzolangan kelishuv asosida amalga oshiriladi va bunda o'zaro savdoda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishni bir xil sistemasini tashkil etish (bu o'rinda tarif va notarif usullari ham hisobga olingan) va yana bir xil savdo rejimi, bir xil bojxona tariflari va uchinchi mamlakatlarga nisbatan notarif usullarni qo'llashni bir xil me'yorlari inobatga olingan.

1995 yil 6 yanvardagi kelishuvda Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasi belgilashicha 13 noyabr 1992 yilgi erkin savdo to'g'risidagi kelishuv amalda tadbiq qilish bo'yicha uzgarish, 23 sentyabr 1993 yildagi bojxona Ittifoqi va erkin savdo hududlari tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqishni tashkil etishni birinchi bosqichida iktisodiy Ittifoq to'g'risidagi

shartnoma, 12 aprel 1994 yil va 15 aprel 1994 yildagi kelishuvlar va 21 oktyabr 1994 yil Moskva shaxridagi ikki davlat raxbarlari imzolagan kelishuv natijasida qo'lga kiritilgan natijalar bo'lib Savdo va tariflar Bo'yicha bosh kelishuvning 24 moddasi asosida Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasi o'rtasida o'zaro savdoni bojxona bojlarisiz amalga oshirish yo'liga o'tish to'g'risida kelishilib olindi.

Bojxona Ittifoqi to'g'risidagi kelishuvni qabul qilish natijasida quyidagilar ko'zda tutilgan edi:

tashqi iqtisodiy aloqalarga tegishli, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan iqtisodiy xo'jalik yuritishga tegishli, kelishuv imzolayotgan tomonlarni xo'jalik yurituvchi sub'ktlari, bundan tashqari narx siyosati, valyuta nazorati va uni tartibga solish, eksport nazorati, noto'g'ri raqobat va chegaralash, intellektual mulkni nazorat qilish quyidagilarga bog'liq:

- tashqi savdo qoidalarini birxillashtirish;
- bojxona ishiga oid qoninlarni birxillashtirish;
- valyuta –moliyaga oid qonunlarni birxillashtirish;
- soliq va boshqa qonunlarini bir xillashtirish;

Xujjatda aytilishicha tomonlar o'zaro iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish mexanizmini shakllantirishda Bojxona Ittifoqi uchinchi mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan muzokaralarni delegatlari olib boriladi.

Bojxona Ittifoqiga a'zo mamlakatlar amaliyotda usullarning bir xil bo'lishini ta'minlashni nazorat qiladi.

Qisqacha xulosa

Mutaxassislar globallashtirish jarayoni tobora faollashayotgan hozirgi kunda iqtisodiy bo'ronlarga, jahon iqtisodiyotidagi silkinishlarga tayyor turish uchun ham integratsiyani kuchaytirmoq lozimligini ta'kidlashadi. 279 million kishi yashaydigan MDHga jahon sanoati salohiyatining 10 foizi, dunyoda aniqlangan tabiiy zaxiralarning 25 foizi to'g'ri keladi. Qolaversa, so'nggi yillarda Hamdo'stlikning qator mamlakatlarida barqaror iqtisodiy o'sish kuzatilmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2010 yilda MDHda yalpi milliy mahsulot o'sishi o'rtacha 8 foizni tashkil etgan. Muloxaza uchun Evropa davlatlarida yalpi milliy mahsulotning o'sishi o'rtacha 3-4 foizdan

oshmayotganini aytib o'tish mumkin. E'tirof etish keraki, bu raqamlar katta imkoniyatlardan dalolat beradi.

Xavfsizlik masalasida ham MDH doirasidagi hamkorlik dolzarbligicha qolmoqda. Terrorchilik, ekstremizm va ayirmachilikka, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka, qurol-yarog'ning noqonuniy savdosi va g'ayriqonuniy muhojirlikka qarshi kurashda Hamdo'stlik mamlakatlari chetdan yordam ko'tishi o'rinli emas. Shu bilan birga, o'zaro muvofiqlashtirilgan, mustahkam hamkorlikdagi sa'y-harakatlarsiz tahdidlarning oldini olish g'oyat mushkul. Bu xususda Prezident Islom Karimovning Hamdo'stlik davlatlarida terrorchilar va ekstremistik tashkilotlarning ro'yxatini tuzish, shu tariqa ularning MDH hududida faoliyat ko'rsatishi va harakatlanishiga to'siq qo'yish borasidagi taklifini a'zo davlatlar qo'llab-quvvatlaganini ta'kidlash o'rinlidir.

Nazorat savollari:

1. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi bojxona Ittifoqini tashkil etish zarurati to'g'risida gapiring.
2. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi bojxona Ittifoqini hozirgi faoliyati to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi bojxona Ittifoqiga qaysi respublikalar a'zo?
4. Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasi iqtisodiy Ittifoqi to'g'risida gapiring.
5. Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasi iqtisodiy Ittifoqida bojxona hamkorligini ahamiyati nimalardan iborat?
6. Rossiya Federatsiyasi va Ukraina Respublikasi o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik to'g'risida gapiring?
7. Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning hozirgi xolati to'g'risida nimalarni bilasiz?
8. GUAM iqtisodiy hamkorlik tashkiloti nechanchi yilda tuzilgan va qaysi respublikalar a'zo?
9. MDX iqtisodiy tashkilotining asosiy vazifasi nimalardan iborat?
10. MDX respublikalarida yagona bojxona xududini Shakillantirish qaysi yullar bilan amalga oshiriladi.

Asosiy adabiyotlar

1. Бобохўжаев Ғ. «Божхона органлари фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2010. –230 бет.
2. Кучаров А., Тиллахўжаев Б. «Божхона таомиллари». Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ. 2009. –211 бет.
3. Кучаров А., Тоиров Ш. «Божхона иши». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2009. – 232 бет.
16. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.
17. Коник Н.В. Таможенное дело: Учеб. пособ. – М.: «Омега-Л», 2008. – 192 с. 2 экз

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Шомагдиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятида товар номенклатураси. Дарслик. Т:- ТДИУ. 2010. –196 бет.
2. Алиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятни давлат томонидан тартибга солиш. Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ, 2008. - 192 бет.
3. Драганов В.Г. Основы таможенного дела. Учебное пособие. – М.: 1998. 346-стр.
4. Шомагдиев А., Кучаров А., Ньматов И. Халқаро транспорт ташувлари.. Ўқув қўлланма. Т:- ТДИУ, 2010. –185бет
5. Свинухов В.Г. Таможенное дело. Учебник. М.: Экономист. 2008. – 298 стр.
6. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.
7. «Инкотермс»: Международные правила толкования торговых терминов. – М.: «Омега-Л», 2009. – 76 с.
8. Трошкина Т.Н. Таможенные платежи: Учебно–прак. пособ. М.: «Городец», 2007. – 128 с. 2 экз
9. Удовенко С.П. Таможенный тариф современной России (1993-2005 гг.). – СПб.: ООО «Архей», 2006. – 402 с.

Internet saytlari

1. <http://www.asstra.ru/downloads/kvt.txt>
2. <http://www.abkhazeti.ru/pub/energyprojects>
3. <http://www.mcads.ru/default.asp>

VIII-bob. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona Qo'mitasi faoliyatini butunjahon bojxona tashkiloti tamoyillari asosida takomillashtirish

8.1. Butunjahon bojxona tashkilotini asosiy vazifasi va tamoyillari

Butunjahon bojxona tashkilotining tarixi 1947 yilda boshlangan. Aynan ana shu yildan boshlab butunjahon bojxona tashkilotiga asos bo'lgan bojxona hamkorlik Kengashi o'z faoliyatini boshlagan. Usha yili Evro-iqtisodiy hamkorligi qo'mitasiga kiruvchi 13 ta Evropa davlatlari «Tarif va savdo erkinliklari bosh keishuv» (GATT) printsiplariga asoslangan bir nechta Evropa uyushmalarini tuzish masalalarini urganuvchi ishchi guruhini tashkil etish to'g'risida kelishib oldilar.

Buning natijasida bir yildan so'ng ikkita iqtisodiy va bojxona ko'mitalari tuzildi. Bojxona qo'mitasi mohiyati bo'yicha bojxona hamkorligi Kengashini boshlovchisi bo'ldi. 1950 yilning 15 dekabrda Bryussel shaxrida rasman bojxonalar hamkorligini Kengashini ta'sis qiluvchi konventsiya imzolandi.

Iqtisodiyotning globallasuvi mamlakatlar, qit'alar aro savdoning rivojlanishi natijasida asta sekin uning nafaqat unga, faqat eski dunyo vakillari, balki dunyodagi boshqa davlatlar ham qo'shildi. 1994 yildan boshlab bojxona hamkorlik Kengashining ishchi nomi Jahon bojxona tashkilotiga uzgartirildi. Bugunga kelib bu tashkilotga 150 dan ortiq davlatlar a'zo bo'lgan. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi ham kuzatuvchi mamlakatlar qatoriga kiradi. Bojxona hamkorligi Kengashi a'zolari 1993 yilning 25 yanvaridagi qaroriga asosan 26 yanvar xalqaro bojxonachilar kuni deb e'lon qilingan.

Jahon Bojxona Tashkiloti o'z mohiyati va vazifalaridan kelib chiqqan holda kuyidagi tashkiliy tuzilmalarga egadir.

Kengash		Siyosiy qumita	
Moliyaviy qumita			
Nomenklatura va tasniflash	Kiymat va ta'lim	Bojxona texnikasi	

Tuzilmaga kiruvchi moliyaviy qo'mita moliya va byudjet masalalari bilan shugillanadi. Jahon bojxona tashkiloti a'zolari moliyaviy qo'mita sessiyalarida belgilangan miqdorda, tashkilot byudjetiga badallar to'laydilar.

Ayni paytda Kengashning 2001 yildagi navbatdagi 2-sessiya oxirigacha ushbu qo'mitaga O'zbekiston va boshqa davlatlar jahon bojxona tashkilotining etakchi o'rgani siyosiy komissiya hisoblanib 20 davlat vakillari unga saylangan. Bu komissiya jahon bojxona tashkilotini rivojlanish va uni tarkibini o'zgartirishi, bo'shatishi siyosati va strategiyasi jahon miqiyosida ishlab chiqarish masalalari bilan shug'illanadi. Bu shtabni shtab kvartirasi Bryussel shaxrida joylashgan bo'lib, tarkibi 100 kishidan iboratdir. Shulardan 68 shu tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar vakillaridir. Jahon bojxona tashkiloti faoliyatini 40 yillik tarixi mobaynida butun dunyodagi bojxona amaliyotining xuquqiy asosini tashkil etuvchi 17 ta xalqaro konventsia va 50 dan ortiq tavsiyalarni ishlab chiqib amaliyotga tavsiya etdi. Bu tashkilotni hozirgi kunda 1999 yil 1-yanvarda saylangan bosh kotib Frantsiya fuqarosi Mishel Danel boshqarmoqda. Ungacha Amerika Qo'shma Shtatlari fuqarosi Djeymis Shaver boshqargan. O'zbekiston Respublikasi butunjahon bojxona tashkiloti bilan hamkorlikda tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini, bojxona nazoratini tovarni bojxona qiymatini hisoblash usullarini takomillashtirib bojxona nazoratini zamonaviy texnika vositalari bilan ta'minlashga erishdi.

Tarixiy ildizlari olis 1947 yilga borib taqaladigan Jahon bojxona tashkilotining yubileyini nishonlash uchun yaqinda Belgiya poytaxtiga JBT

a'zosi bo'lgan mamlakatlarning delegatsiyalari to'plandi. Keyinchalik JBTga aylangan Bojxona hamkorini Kengashining faoliyati ayni shu vaqtdan boshlangan. O'shanda Evropa iqtisodiy hamkorlik qo'mitasiga kirgan Evropadagi o'n uch davlat Evropa davlatlari o'rtasida Tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (GATT) tamoillariga asoslangan bir yoki bir nechta uyushmani tashkil etish masalasini o'rganish bo'yicha ishchi guruhini shakllantirish to'g'risida kelishib oldi. Bir yildan keyin ikki qo'mita – iqtisodiy va bojxona qo'mitalari barpo etildi. Bojxona qo'mitasi amalda Bojxona hamkorligi Kengashining tashkil etilishiga zamin bo'ldi.

1950 yil 15 dekabr Bryuselda Kengashni rasmiy ravishda ta'sis etgan Konvensiya imzolandi. Kengashning inauguratsiya sessiyasi 1952 yil 26 yanvarda (bundan 59 yil avval) bo'ltb o'tdi. Keyinchalik bu kun jahon bojxonachilar kunini nishonlashga qaror qilindi.

Iqtisodiyotni globallashtirish, qit'alararo savdoni rivojlantirish natijasida Kengashga nafaqat Eski dunyo vakillari, balki dunyoning boshqa mamlakatlari ham kirdi. 1994 yil iyundan Kengashning ishchi nomi Jahon bojxona tashkiloti (BJT) faol ishlatila boshlandi. Yarim asrlik yubileyini JBT a'zolari 25-29 iyunda, joriy 99-100-navbatdagi sessiyalariga mo'ljallab maxsus tashkil etilgan tantanalarida nishonladilar.

8.2. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Qo'mitasi bilan Butunjahon bojxona tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik

O'zbekiston Davlat bojxona qo'mitasining delegatsiyasiga DBK raisining birinchi o'rinbosari Oripov S. boshchilik qildi. 1995 yilda bizning respublikamiz ikki yilga Siyosiy komissiya JBT etakchi organining tarkibiga saylandi. 2001 yilda esa u moliya qo'mitasiga kirdi.

Bu xaqiqatan yorqin va esda qoladigan voqea bo'ldi. Kengashning 99-100-yubiley sessiyalari ishida JBTga a'zo mamlakatlar bojxona ma'muriyatlari va bir qator eng yirik xalqaro tashkilotlarning delegatsiyalari qatnashdi. JBT a'zolari xaqida rangdor buklet nashr etildi. JBT, milliy bojxona xizmatlari rahbarlari va JBTga a'zo 161 mamlakat elchilarining qarorgoxidagi tantanali uchrashuviga Belgiya qiroli Albert 2 janobi oliylari tashrif buyurdi. Bayram marosimining rasmiy qismida Belgiya moliya vaziri Xon. D.Reynders, JBT Kengashi raisi Pravin Gordan (Janubiy Afrika) va JBT bosh kotibi M.Dane o'z nutqlarida tashkilot 50 yillik faoliyati davomida

erishgan yutuqlarni qayd etdilar. Savdodagi integratsiya jarayonini maqbullashtirish uchun baynalminal bojxona hamjamiyati tomonidan ko'p ish qilindi, bu esa iqtisodiyotni globalashtirish kuchayib borayotgan sharoitda ayniqsa muhimdir.

Biroq yubiley-nafaqat tantanalar o'tkazish vaqti, balki yakunlarni chiqarish, istiqbol rejalarini belgilash uchun sabab hamdir. Shuning uchun sessiyalarning ish tartibiga muvofiq JBT bosh kotibi, Siyosiy komissiya, moliya va texnika qo'mitalari raislarining hisobotlari tinglandi. Ularda siyosiy, byudjet va moliya masalalari hamda bojxona faoliyatining boshqa eng muhim jixatlari kurildi. Ular sirasida tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uygunlashtirilgan tizimini (ut) qo'llashning hozirgi xususiyatlari, tovarlarning kelib chiqishi va ularni bojxona qiymatini belgilashning uyg'unlashtirilgan qoidalari, xuquqni muxofaza qilish masalalari, inson resurslarini rivojlantirish istiqbollari bor.

Bosh kotib JBT ga a'zo mamlakatlarning soni 161 taga etganini ma'lum qildi. Chad, Afgʻaniston, Dominika Respublikasining davlatlarning tashkilotga kirishi to'g'risida muzokaralar o'tkazilayapti. Janob kotib ma'ruzasida asosiy etibor jahon bojxona tashkilotlarining 2002-2004 yillarga doir istiqbolli rejasining eng muhim yo'nalishlariga qaratildi. Uni muxokama qilishda halqoro bojxona va savdo vositalarini qo'llashni kengaytirish va yangilarini ishlab chiqish muammolari, shu jumladan JBT-GATT ning tovarlarning kelib chiqishi va bojxona qiymatining preferentsial bo'lmagan uyg'unlashtirilgan qoidalari bo'yicha kelishuvlar tilga olindi. Zamonaviy texnologiyalar va elektron tijoratni joriy etishni hisobga olgan holda tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimini yangilash masalasi keng muxokama qilindi.

Sessiyalar eng muhim mavzulardan biri savdo va bojxona to'g'risidagi qonun xujjatlariga rioya etish bobida JBT ga a'zo mamlakatlarga ko'mak berishga bag'ishlandi. Shu munosabat bilan davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va fiksial manfaatlarini shuningdek jamiyat xavfsizligini himoya qilishda va halqoro savdoni rivojlantirishda bojxona xazmatining etakchi roli ta'kidlandi. Bunda delegatlar ularning bojxona ma'muriyatlari bojxona to'g'risida qonun xujjatlarini buzishlar, kontrabanda va chegara orqali yuklar, yo'lovchilar va transport vositalarini olib o'tish bilan bog'liq boshqa jinoyatlarga qarshi kurash olib borishning samarali choralarini muntazam izlanayotganini qayd etdilar. Jahon hamjamiyatining jumladan narkotiklar va qurol-yarog'ning

g'ayriqonuniy oboroti sohasidagi transmilliy jinoyatchilik faoliyatining, iqtisodiy jinoyatlar, atrof muxitni ifloslantirish bilan bog'liq qonunbuzarliklar, yadroviy materiallar va zaxarli chiqindilar kontrabandasi kengayishi munosabati bilan tashvishlanishi kuchayayotgani ta'kidlandi.

Umumiy muxokamalar davlatlar chegarasi xavfsizligi, xalqaro savdoga ko'maklashish masalalariga bag'ishlandi. Shu jihatdan olganda 2001 yil noyabrda Doha Qatarda o'tkazilgan Jahon savdo tashkiloti (JBT-GATT)ga a'zo mamlakatlar vazirlari darajasidagi sammit natijalarining bojxona xizmatlari faoliyatiga ta'sir etish istiqboli katta qiziqish uyg'otdi.

Uning yakunlari bo'yicha qabul qilingan yakuniy Deklaratsiya alohida muhim o'rin topdi. Birinchi marotaba Jahon savdo tashkilotining barcha a'zolari o'tkaziladagan xalqaro savdo operatsiyalarining qonuniyligiga ko'mak berish maqsadida bojxona rasmiylashtiruv tamoillari modernizatsiyalash va bir hillashtirishda rivojlanayotganga yordam berish uchun faolroq sa'y-harakat ko'rsatish va ko'proq mablag' ajratish xususida kelishib oldilar. Jahon bojxona tashkiloti va uning barcha a'zolari o'z tomonidan ushbu muhim siyosiy maqsadga erishishda JST-GATT ga yordam berishga tayyorlar, JST o'z vakolatlari doirasida va savdo doralari bilan hamkorlikda bojxona tizimlarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish imkonini beradigan xalqaro vositalar hamda yanada zamonaviy bo'lgan amaliy usullarni ishlab chiqish uchun ko'p ishlarni amalga oshirdi.

Janob Dane zamonaviy talablarga muvofiq keladigan moddiy bazani yaratishga texnik ko'mak berish iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar bojxona ma'muriyatlari samarali faoliyat ko'rsatishning muhim sharti hisoblanishini ta'kidladi. Delegatlar bojxona ishini tashkil etishning ayrim amaliy usullarini ham e'tibordan chetda qoldirmadilar. Bu xususan dengizda konteynirlarni tashish xavfsizligini ta'minlash tizimiga taaluqli bo'lib, AQSH bojxona xazmati komissari janob Bonerning maruzasida bu haqida aytiltdi. Bugungi kunda butun jahon savdosining deyarli 90% shunday tashish yordamida amalga oshirilayapti. AQSH va Kanada bojxona xizmatlari tomonidan dengiz konteynerlarining dastlabki tekshiruv va xatarining darajasini belgilash dasturi ishlab chiqildi.

Biroq, zamonaviy texnologiyalarini joriy etish, deb takidlashdi delegatlar, nafaqat kattagina moddiy zararnilarni, balki ilgor tajribani batafsil o'rganishni ham taqazo etadi. JBT tomonidan milliy bojxonalarni modernizatsiyalash va isloh qilishga, boshqaruv tajrtbasi va bojxona

ma'muriyatlarining ishi to'g'risidagi axborotni ayriboshlashga, Jahon bojxona tashkilotiga a'zo mamlakatlar uchun strategik ahamiyatga ega mavzularni o'rganish va tahlil etishga, milliy bojxona xizmatlari barcha bo'g'inlari xodimlariga beriladigan ta'limni takomillashtirishga va malakasini oshirishga yanada faol yordam ko'rsatilishi istagi bildirildi.

Majlislar o'rtasidagi tanaffuslarda O'zbekiston delegatsiyasi joriy yilda Buyuk Ipak yo'li davlatlarida narkotiklar kontrabandasi va g'ayri qonuniy oborotiga qarshi kurashash muammosi bo'yicha anjumanni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va uni Toshkentda o'tkazish masalalarini muhokama qilish uchun JBT bosh kotibi M.Dane bilan uchrashdi. Anjuman qatnashchilar ro'yxati kelashib olindi, chunki ushbu masalani hal etishdan manfaatdor bo'lgan ko'p miqdordagi mamlakatlar, halqoro tashkilotlar unga qiziqsh bildirishlari mumkin. Bir so'z bilan aytganda, tantanalar tegishli darajada o'tdi va Jahon bojxona tashkiloti faoltyatining ko'plab dolzarb masalalari muxokama qilindi. JBT uchun esa yarim asr-gullab-yashnash va amaliy faollik yoshidir.

Qisqacha xulosa

Sessiyalar eng muhim mavzulardan biri savdo va bojxona to'g'risidagi qonun xujjatlariga rioya etish bobida BJT ga a'zo mamlakatlarga ko'mak berishga bag'ishlandi. Shu munosabat bilan davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va fiskal manfaatlarini shuningdek jamiyat xavfsizligini himoya qilishda va halqoro savdoni rivojlantirishda bojxona xazmatining etakchi roli ta'kidlandi. Bunda delegatlar ularning bojxona ma'muriyatlari bojxona to'g'risida qonun xujjatlarini buzishlar, kontratanda va chegara orqali yuklar, yo'lovchilar va transport vositalarini olib o'tish bilan bog'liq boshqa jinoyatlarga qarshi kurash olib borishning samarali choralarini muntazam izlanayotganini qayd etdilar. Jahon hamjamiyatining jumladan narkotiklar va qurol-yarog'ning g'ayriqonuniy oboroti sohasidagi transmilliy jinoyatchilik faoliyatining, iqtisodiy jinoyatlar, atrof muxitni ifloslantirish bilan bog'liq qonunbuzarliklar, yadroviy materiallar va zaxarli chiqindilar kontrabandasi kengayishi munosabati bilan tashvishlanishi kuchayayotgani ta'kidlandi.

Nazorat savollari:

1. Butunjahon bojxona tashkiloti xaqida nimalar bilasiz?
2. Butunjahon bojxona tashkiloti tarixi qachondan boshlanadi?
3. Butunjahon bojxona tashkilotining qanday tashkiliy tuzilmalardan iborat?
4. Davlat bojxona qo'mitasi Butunjahon bojxona tashkiloti siesiy komissiyasi tarkibiga kachon saylangan?
5. Butunjahon bojxona tashkilotiga a'zo bo'lish afzalliklari xaqida gapirib bering.
6. Butunjahon bojxona tashkilotiga a'zo mamlakatlar soni nechtdan iborat?
7. Butunjahon bojxona tashkiloti va O'zbekiston o'rtasidagi aloqalarni mustaxkamlash uchun nimalar qilinmoqda?

Asosiy adabiyotlar

1. Бобохўжаев Ғ. «Божхона органлари фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2010. –230 бет.
2. Кучаров А., Тиллахўжаев Б. «Божхона таомиллари». Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ. 2009. –211 бет.
3. Кучаров А., Тоиров Ш. «Божхона иши». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2009. – 232 бет.
18. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.
19. Коник Н.В. Таможенное дело: Учеб. пособ. – М.: «Омега-Л», 2008. – 192 с. 2 экз

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Шомагдиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятида товар номенклатураси. Дарслик. Т:- ТДИУ. 2010. –196 бет.
2. Алиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятни давлат томонидан тартибга солиш. Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ, 2008. - 192 бет.
3. Драганов В.Г. Основы таможенного дела. Учебное пособие. – М.: 1998. 346-стр.
4. Шомагдиев А., Кучаров А., Нетьматов И. Халқаро транспорт ташувлари.. Ўқув қўлланма. Т:- ТДИУ, 2010. –185бет
5. Свинухов В.Г. Таможенное дело. Учебник. М.: Экономист. 2008. – 298 стр.

6. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.
7. «Инкотермс»: Международные правила толкования торговых терминов. – М.: «Омега-Л», 2009. – 76 с.
8. Трошкина Т.Н. Таможенные платежи: Учебно–прак. пособ. М.: “Городец”», 2007. – 128 с. 2 экз
9. Удовенко С.П. Таможенный тариф современной России (1993-2005 гг.). – СПб.: ООО «Архей», 2006. – 402 с.

Internet saytlari

1. <http://www.asstra.ru/downloads/kvt.txt>
2. <http://www.abkhazeti.ru/pub/energyprojects>
3. <http://www.mcds.ru/default.asp>

IX-bob. Butunjahon savdo tashkilot va uning asosiy funktsiyalari

9.1. Butunjahon savdo tashkilotini tashkil etilishi va rivojlanish tarixi

Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv (GATT) xalqaro savdoning boj tarif jihatlarini tartibga soluvchi eng muhim tuzilmadir. Prezidentimiz aytganlaridek butunjahon savdo tashkiloti jahon savdosining hozirgi tizimini boshqarishda markaziy o'rinni egallab turibdi. Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv (GATT) 1948 yil 1 yanvardan boshlab faoliyat ko'rsata borib davlatlararo tovar aylanmasi hajmini kengaytirish maqsadida xalqaro savdoning barqaror foydalarini qaror toptirish eng asosiy qoidasi diskriminatsiya qilmaslik tamoyilidir. Bu tamoyil eng ko'p qulaylik berish shaklini olib bu tashqi savdo ishtirokchilarining hammasini tengligini ta'minlash va ularni diskriminatsiya qilmaslik to'g'risidagi tezisdir. Eng ko'p qulaylik berish ishtirokchi davlatlar o'zaro etkazib berayotgan tovarlarga nisbatan xar qanday uchinchi tomon tovarlariga nisbatan qo'llanilayotgan boj stavkalaridan yuqori bo'lmagan boj stavkalarini qo'llash majburiyatini bildiradi. Lekin bu tezis maxsus integratsion guruhlar tashkil etilgan hollarda undan chekinishga ruxsat beradi.

Butunjahon savdo tashkilotining ikkinchi tamoyili tashqi savdoni tartibga solish usullari qo'llanishining xuquqiy asoslangan tamoyillaridir, GATT shunday usul sifatida faqat bojlarni tan oladi.

Bir tomonlama-xar bir mamlakat mustaqil ravishda savdo siyosatini amalga oshiradi. Masalan O'zbekiston Respublikasi 1997 yilda eksport bojini bekor qildi.

Ikki tomonlama -bunda ikki yoki undan ortiq mamlakatlar Ittifoq tuzib o'zaro kelishuv tuzadilar.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuvning (GATT) asosiy tamoyillari qarorlarni qabul qilish va chora tadbirlarni amalga oshirish. Bu eng avvalo bir taraflama harakatlarni o'zaro muzokaralar va maslahatlar foyidasiga voz kechishdir.

Ishtirokchi davlatlar tashqi savdoni cheklashga qaratilgan bir taraflama tadbirlarni amalga oshirmaslik majburiyatini oladilar. Barcha qarorlar faqatgina savdo masalasiga qaratilgan o'zaro muzokaralar doirasida qabul qilinadi.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv (GATT) Butunjahon savdo tashkiloti (VTO) o'z faoliyatini ko'p tomonlama davra uchrashuvlarini tashkil etish orqali o'tkazadi. Xar bir davra uchrashuvi xalqaro savdoni rivojlantirishga qaratilgan ma'lum bir global masalani echishga qaratilgan bo'ladi. Butunjahon savdo tashkiloti tashkil etilgandan beri o'tgan davr ichida shunday davra uchrashuvlaridan 8 tasi o'tkazildi. Misol uchun birinchi davra uchrashuvi 1947 yili Jeneva Shaxrida tashkil etilib, bu uchrashuvda boj tariflarini pasaytirish masalasi hal qilindi. Ikkinchi uchrashuv ana shu masalani hal qilishni davom ettirishga qaratilgan bo'lib, Frantsiyaning Annesiya shaxrida 1949 yil bo'lib o'tdi. Boj tariflarini pasaytirish masalasi shu tashkilotga a'zo bo'lgan mamlakatlarni tashqi savdosi uchun dolzarb masalalardan biri bo'lgani uchun hali bu masalani echish GATTning keyingi raundlarida ham davom ettirilgan. Xususan 1950 yili Angliyaning Tokki shaxridagi raundida, 1956 yili Jeneva shaxridagi raundda 1960-1961 yillardagi Jenevadagi Dillond raundlarida shu masala hal qilindi.

Butunjahon savdo tashkilotining 1964-1967 yillarda Jeneva shaxrida bo'lib o'tgan Kennedi raundida dempingga qarshi boj kodeksi ishlab chiqildi. 1973-1979 yillarda Tokioda boshlangan va Jenevada davom ettirilgan Tokio raundida esa notarif to'siqlar masalasida GATT vakolatlarini kuchaytirish va kengaytirish masalasi kurilgan va nixoyat 1986 yilda Urugvay mamlakatini Puntadel Este shaxrida boshlanib Jeneva shaxrida davom ettirilgan Urugvay raundida boj to'siqlarini kamaytirish, GATT mexanizmini yaxshilash, Butunjahon savdo tashkilotini tuzish xaqida kelishuv xizmatlar savdosi bo'yicha bosh kelishuv (GATS) ishlab chiqilgan.

2004 yil 1 yanvar holati bo'yicha Butunjahon savdo tashkiloti 147 dan ortiq mamlakatlar to'laqonli a'zo bo'lgan. Bunga qo'shimcha 30 dan ortiq mamlakatlar kuzatuvchi maqomidan foydalanib, shularning 30 ga yaqini Butunjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishning turli bosqichlarida turibdi.

O'zbekiston Respublikasi ham 1994 yilning iyul oyida Butunjahon savdo tashkilotiga qo'shilish istagini bildirib, uning Jenevadagi kotibiyatiga yozma murojaat etdi va shu yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi shu tashkilotda kuzatuvchi maqomidan foydalanib kelmoqda va nixoyat 1998 yilning sentyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Butunjahon savdo tashkilotiga o'zining savdo rejimi to'g'risidagi memorandumini topshirdi. Hozirgi kunda bu memorandum ushbu tashkilotga a'zo bo'lgan mamlakatlar bilan, xususan Buyuk Britaniya, AQSH tomonidan o'rganilib chikqilyapti.

Butunjahon savdo tashkilotini asosiy tamoyillari

O'zbekiston Respublikasi Butunjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi uchun bu tashkilotning quyidagi 15 ta kelishuvida aks ettirilgan majburiyatlarni bajarishi lozim. Bu kelishular quyidagilar:

1. Tarif va savdo bo'yicha bosh kelishuv
2. Xizmat savdosi bo'yicha bosh kelishuv
3. Savdo bilan bog'liq intellektual mulk xususiyatlari aspektlari bo'yicha kelishuv
4. Qishloq xo'jaligi bo'yicha kelishuv.
5. Sanitar va fitosanitar choralari qo'llash bo'yicha kelishuv.
6. Tekstil va kiyim - kechak tovarlari bo'yicha kelishuv.
7. Savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha kelishuv.
8. Savdo bilan bog'liq investitsion shartlar bo'yicha kelishuv.
9. Tovarlarini bojxona qiymatini hisoblab chiqarish bo'yicha kelishuv.
10. Dempingga qarshi boj masalalari bo'yicha kelishuv.
11. Yuklarni oldi nazorati bo'yicha kelishuv.
12. Tovar ishlab chiqarilgan mamlakatni aniqlash bo'yicha kelishuv.
13. Import tovarlarini litsenziyalash qoidalari bo'yicha kelishuv.
14. Subsidialar va kompensatsion choralar bo'yicha kelishuv.
15. Himoya choralari to'g'risidagi kelishuv.

Butunjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishni o'ziga maqsad qilib qo'ygan mamlakat yuqorida keltirilgan kelishuvlardagi majburiyatlarni bajarish bo'yicha quyidagi bosqichlardan o'tishi lozim

1. Dalillarni oshkor etish yoki ularni aniqlash bosqichi. Bu bosqichda a'zo bo'layotgan mamlakatdan Butunjahon savdo tashkiloti kelishuvlari tartibga solayotgan munosabatlarni qamrab olayotgan o'zining savdo va iqtisodiyot masalalariga aloqador qonunlarni, qoidalarni, amaliyotini va siyosatini to'liq aks ettirilgan «Tashqi iqtisodiy rejalarini to'g'risidagi memorandum» ni Butunjahon savdo tashkilotining kotibiyatiga taqdim qilishi talab etilgan.

2. Muzokaralar bosqichi, ya'ni Butunjahon savdo tashkilotining ishchi guruhi qo'shilayotgan davlatning tashqi iqtisodiy rejasi xususida biron xulosaga kelgandan so'ng qo'shilgan davlat yoki boshqa istalgan manfaatdor taraf o'rtasidagi ikkita raflama muzokaralar boshlanadi. Mazkur muzokaralar ichki bozorga chet el tovarlarini kirib kelishiga imkoniyat yaratish va boshqa shu kabi vazifalarni amalga oshiradi.

Bu muzokaralar ikkitarafлама bo'lishiga qaramasdan ularning natijasida qo'shilayotgan davlatlar o'z zimmasiga olgan majburiyat diskriminatsiya qilmaslik printsiپiga muvofiq Butunjahon savdo tashkilotining boshqa davlatlar uchun ham avtomatik tarzda amal qilib bu ikkitarafлама muzokaralar natijasidan xalqaro tashkilotning boshqa a'zo davlatlari ham foydalanadilar.

3.A'zolik shartlarini kelishish bosqichi. Butunjahon savdo tashkilotining ishchi guruhi dalillarni aniqlash jarayonini va qo'shilayotgan mamlakatning qonunchiligi va siyosatini ekspertizadan o'tkazishni yakunlab ikki tarafлама muzokaralar nihoyasiga etgandan keyin bu tashkilotning ishchi guruhi qo'shilayotgan tarafning qo'shilish shartlari loyixasini ishlab chiqadi. Mazkur shartlar ishchi guruhi hisobotida bu tashkilotga qo'shilish kelishuvi loyixasida va qo'shilayotgan tarafلarning majburiyatlarida aks ettiriladi.

4.Qaror qabul qilish bosqichi.

Ishchi guruhining hisoboti bayonnoma va majburiyatlar ro'yxatidan iborat yakuniy xujjatlar to'plami Butunjahon savdo tashkilotining bosh Kengashi yoki vazirlar konferentsiyasida umumiy ovozlar soni 3/2 qismi ovoz bersa qo'shilayotgan taraf qo'shilish bayonnomasiga imzo chekib tashkilotning teng xuquqli a'zosi bo'ladi.

9.2. O'zbekiston Respublikasini Butunjahon savdo tashkilotida a'zo bo'lish yo'lida amalga oshirilayotgan chora tadbirlari

O'zbekiston Respublikasi Butunjahon savdo tashkilotiga qo'shilishi quyidagi afzalliklar bilan bevosita bog'liqdir:

1. Chet el bozorlariga chiqish imkoniyatiga ega bo'lish

2. Bumunjahon savdo tashkilotiga a'zo mamlakatlar o'z zimmalariga olgan majburiyatlardan chekinish imkoniyatlari chegaralanganligi sababli a'zo mamlakatlar orasida nisbatan barqaror tashqi savdo muhiti qaror topadi. Bu mamlakatning tashqi savdo siyosati istiqbollari ishlab chiqish uchun qulay bo'lib uning barqarorligini oshiradi.

3.Butunjahon savdo tashkiloti qoidalar, subsidiyalar, demping kabi tashqi savdoning nopok vositalarini takiklab ulardan himoyalaniш maqsadida tegishli choralar ko'rish imkoniyatini beradi.

4.Chet el investorlariga O'zbekiston Respublikasining Butunjahon savdo tashkilotiga a'zoligi ularning O'zbekiston Respublikasida ishlab

chiqarilgan o'z mahsulotlarini to'siqlarsiz jahon bozoriga olib chiqish va o'z faoliyatlari uchun jahon bozoridan to'siqsiz mahsulot, asbob uskuna va texnologiyalarni olib kirish imkoniyatini yaratadi.

5.Chet el bozorlariga to'siqsiz chiqish imkoniyati O'zbekiston Respublikasi tovar va xizmatlarining eksporti hajmini oshiradi va o'z o'rnida iste'molchilarning jahon bozoridagi arzon tovarlarga bo'lgan ehtiyojini samaraliroq qondirish imkoniyatini beradi.

6.Nizolarni hal etishning samarali yo'liga kirish, ya'ni biror bir mamlakat tomonidan Butunjahon savdo tashkiloti qoidalari buzilishi oqibatida zarar ko'gan holda O'zbekiston Respublikasi bu tashkilotning nizolarini hal etish oraligina nizolarni adolatli va samarali hal etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

7.Ko'p tomonlama savdo tizimiga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lish. Bu imkoniyat O'zbekiston Respublikasining Butunjahon savdo tashkiloti doirasida o'tkazilgan ko'ptaraflama savdo muzokaralarida ishtirok etib o'z manfaatlarini ifoda etish imkoniyatidan kelib chiqadi.

Bugungi kunda dunyodagi 148 mamlakat Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lib, ular Urugvay raundi davomida erishilgan kelishuvlarga muvofiq ish ko'radilar. Xozirda yana 30 mamlakat Jahon Savdo Tashkilotiga kuzatuvchi maqomini ko'lga kiritganlar va ular ham a'zolikka da'vogardirlar.

Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish ancha uzoq va murakkab jarayon bo'lib, uch bosqichdan iborat. Uning birinchi bosqichida da'vogar mamlakatlar xukumatlari tomonidan JST ga kuzatish makomini qo'lga kiritish uchun ariza topshirsalar, ikkinchi bosqichda tashkilotga teng xuquqli a'zo bo'lib kirish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etadilar. A'zo bo'lish jarayoning ushbu bosqichi xukumatlar tomonidan JST ga maxsus Memorandumning taqdim etilishini nazarda tutadi.

Memorandumda mamlakatlarning JST bitimi talablari doirasidagi savdo iqtisodiy siyosatiga tegishli asosiy jixatlar o'z aksini topadi. Aynan shu orqali mamlakatlarning a'zolikka da'vogarlik shartlari atroflicha o'rganilib chiqiladi. Uchinchi bosqichda esa mamlakatlarning JST ga a'zo bo'lib kirish bo'yicha maxsus ishchi guruhi tashkil etiladi. Ishchi guruh majlislarida da'vogar mamlakatlar ma'lum bir tovarlar va xizmatlar turlari bo'yicha berilishi mumkin bo'lgan imtiyozlar va majburiyatlar xususida JST ga a'zo mamlakatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama muzokaralar olib boradilar. Muzokaralar jarayonida o'rnatilgan tartiblarning amalda ijro

etilishi mamlakatlar uchun majburiy hisoblanadi va ularning istagan vaqtda o'zgartirilishi mann etiladi. A'zolikka da'vogar mamlakatlarning savdo rejimlarini o'rganish va uni bozorga kirib borish to'g'risidagi muzokaralar o'z yakuniga etgandan so'ng, ishchi guruhi tomonidan a'zolikka qabul qilish to'g'risidagi asosiy shart sharoitlar ishlab chiqiladi. Majlis natijalariga ko'ra, maxsus bayonnoma tayyorlanadi va u bosh yig'in yoki vazirlar Konfrentsiyasida JST a'zolarining 3/2 qismi tomonidan qo'llab – quvvatlangan taqdirdagina imzolangan va tasdiqlangan deb hisoblanadi. Mamlakatlar JSTga a'zo bo'lganlaridan so'ng, Urugvay raundi doirasida imzolangan bitimlarning barchasini qabul qilishlari va uni amalga oshirishlari shart hisoblanadi.

2003 yilning 10-14 sentyabr kunlari Meksikaning Kankun shaxrida bo'lib o'tgan JST ning 5-vazirlar Konfrentsiyasida 148 mamlakat savdo vazirlari o'rtasida yuzaga kelgan har-xil kelishmovchiliklar sabab, jahon savdo tizimini yanada erkinlashtirish borasida hal qilinishi lozim bo'lgan ushbu masalalar o'z echimini topa olmadi. Biroq mazkur vaziyat JST ning xalqaro maydondagi nufuziga ta'sir ko'rsata olmadi, albatta. Chunki, bu tizim mamlakatlar uchun ma'lum bir ustunliklar va shart – sharoitlarni yuzaga keltirishi tabiiydir.

JST tizimining ustunliklari, unda yirik savdogar davlatlarning a'zo bo'lganliklari emas, balki uning erkin tovar almanishuvi jarayonida mamlakatlar uchun turfa xil iqtisodiy manfaatdorlikni ta'minlashi bilan izoxlanadi. Bu tizimga a'zo mamlakatlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvolga, shuningdek fuqarolar farovonligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. JST savdo tashkiloti tizimi mamlakatlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvolda, shuningdek alohida fuqarolar va umuman jahon hamjamiyati doirasida o'z ustunliklarini namoyon etadi.

Xususan JSTning iste'molchilar manfaati va aholii farovonligini yuksaltirishdagi roli shu bilan izohlanadiki, bunda erkin savdo tamoyillaridan kelib chiqqan holda, xalqaro savdodagi proteksiya to'siqlari minimal darajaga kamaytirilib boriladi. Tashkilotning 50 yillik faoliyati davomida savdodagi to'siqlar butun dunyo miqyosida bir necha barobarga kamaytirildi. Buning natijasida, nafaqat import qilinadigan tayyor mahsulotlar va xizmatlar baxolanishining pasayishi, balki import qilinadigan tayyor mahsulotlar va xom ashyolar va butlovchi qisimlar hisobiga ishlab chiqariladigan mahalliy tovarlar narxlarining ham arzonlashishi kuzatiladi.

Fikrimizcha, mahalliy bozorlarni himoya qilish maqsadida, davlat tomonidan import tariflari, miqdoriy cheklovlar va ishlab chiqarish sohalarini subsidiyalash singari ma'muriy– qisodiy dastaklarining me'yoridan ortiqcha qo'llanilishi, oxir-oqibatida kutilgan ijobiy natijalarga emas, balki kishilar farovonligi natijalarini pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Xususan, ayrim strategik ma'lumotlarga qaraganda, to'kimachilik mahsulotlari importiga qo'yilgan savdo cheklovlari oqibatida Buyuk Britaniya iste'molchilarining kiyim-kechaklar uchun yiliga qo'shimcha 500 mln. funt sterling miqdoridagi oshiqcha mablag'lar sarf qilinganligi qayd etildi. Ayni paytda, bu ko'rsatkich kundalik iste'molchilar uchun taxminan 780 mln. Kanada dollariga tengbo'lgan. Evropa Ittifoqida esa telekommunikatsiya soxasining erkinlashtirilishi natijasida baholarning o'rtacha 7-10 foizga kamayganligi kuzatilgan 2005 yilda JST doirasida to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechaklar savdosi bo'yicha amalga oshirilishi mo'ljallangan islohatlardan kuzlangan bosh maqsad ham, aynan shu xildagi mahsulotlar importiga qo'yilgan cheklovlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan.

Fikrimizcha, JST tamoyillariga asoslangan erkin savdo tizimining ustunliklari yana shu bilan izoxlanadiki, bunda iste'molchilar uchun tovar va xizmatlarga bo'lgan tanlov imkoniyatlari kengayadi. Chunki, tayyor xorijiy mahsulotlardan tashqari, import qilinadigan xom ashyolar, butlovchi qismlar va jixozlar baxolarining arzonlashishi hisobiga ishlab chiqariladigan mahalliy tovar va xizmatlar turlari ham ko'payib boradi. Import raqobati ta'sirida mahalliy ishlab chiqarish maksimal darajada rivojlanadi va ichki baholarning pasayishiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifatida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi. Tovarlar almashinuvi jarayonining faollashuvi esa innovatsiyaning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

9.3. O'zbekiston Respublikasini Butunjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishini afzalliklari

Mahalliy mahsulotlar eksporti tarkibida miqdor va sifat o'zgarishlarining kuzatilishi natijasida ishlab chiqaruvchilarning qat'iy valyutadagi daromadi ortadi. Buning natijasida, xazinaga kelib tushadigan soliqlar miqdori ham o'z-o'zidan ortadi va provard natijada, axolii farovonligi yuksalishi kuzatiladi.

Erkin savdo tizimining iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar va mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini aniq dalillarga tayanib asoslab berish qiyin, albatta. Xususan savdo to'siqlarini kamaytirish orqali tovarlar va xizmatlar xalqaro almashinuvini kengaytirib borish, nafaqat davlat daromadlarining, balki xususiy sektor daromadlarining ham o'shishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, xalqaro amaliyotda Urugvay raundiiga asoslangan holda xalqaro savdo shartnomalari yangicha tizimning amaliyotga joriy etilishi natijasida jahon daromadining 109 mlrd. dollardan 510 mlrd. dollarga ko'payganligi qayd etiladi.

Chunki, xar qanday mamlakatda saloxiyatli eksportchilar faoliyatining samarali tashkil etilishi, davlat daromadlarini bir necha barobarga yuksaltirib, ularning qayta taqsimlanishi, kuchli xorijiy raqobatga duch keladigan mahalliy kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash, sohalar raqobatbardoshligini oshirish, yangicha ishlab chiqarish quvvatlarini vujudga keltirish va ishlab chiqarish ko'lamini yanada kengaytirish imkonini beradi.

Savdoning rivojlanishi, uzoq muddatli istiqbollarda, asosan, iqtisodiyotning eksportga sohalarda bandlikni oshirib borishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, mamlakatga kapitalning, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning oqib kelishi natijasida qo'shimcha ish o'rinlari yaratildi. Shuningdek, qisqa muddatli istiqbollarda mahalliy korxonalarning amalda cheklab bo'lmaydigan xorijiy raqobat bilan to'qnash kelishi natijada mavjud ish o'rinlarining yo'qotilishiga ham sabab bo'lishi extimoldan xoli emas.

Fikrimizcha, jahon mamlakatlari tomonidan proteksionizim siyosatining faol qo'llanishi, bu muammoni yanada chigallashtirdi. Chunki, savdo to'siqlarining noo'rin qo'llanilishi oqibatida ishlab chiqarish samaradorligi va mahalliy mahsulotlar sifatida keskin pasayish alomatlari kuzatilishi mumkin. Importni cheklash jarayonida ishlab chiqariladigan mahsulotlar bahosining ortib borishi sotuv hajmiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida esa mavjud ish o'rinlari qisqaqib boradi. Aynan shunday holat o'tgan asrning 80-yillarida Yaponiya avtomobillari importiga qa'tiy cheklovlarining o'rnatilishi sababli, AQSH da kuzatilgan edi. Bugungi kunda AQSHning eksport tarmoqlarida kamida 12 millionga yaqin ishchi band bo'lib, bunga qarama-qarshi o'larok, Evropa Ittifoqi bozorlarining erkinlashtirilishi oqibatida, hamjamiyatga a'zo mamlakatlarda qo'shimcha 300 mingga yaqin ish o'rinlari yaratildi.

Bizningcha himoya choralarining aql-idrok bilan qo'llanilishi va qo'shimcha davlat daromadlarini shakillantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish xar qanday mamlakatda savdoni erkinlashtirish jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etishning muhim omili bo'lla oladi. JST tamoyillirining amalda qo'llanilishi, shunengdek amaldagi bojxona poshlinalari va boshqa savdo to'siqlari tizimini soddalashtirish ham davlat tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishda kutilgan natijalarga olib kelishi mumkin. Chunki, daxilsizlik va iqtisodiyotni Ochiqligi, ustuvor savdo sharoitlarini belgilab olinishi va ularning soddalashtirilishi hamkorlar e'tiborini tortadi. Shunengdek, mavjud korxonalar xarajatlarining kamayishi va savdo hamda investitsiyalar uchun qulay muxitning yaratilishi, mamlakat tovar aylanmasi hajmining oshishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston va Jahon Savdo Tashkiloti

O'zbekiston mustaqil rivojlanishning 19 yili mobaynida 30ga yaqin xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning teng xuquqli a'zosi bo'ldi. Bunday tashkilotlar jumlasiga xalqaro moliya tashkiloti, jahon banki guruhiga kiruvchi bir qancha tashkilotlar va Bretton vuds tizimidagi ko'plab institutlarni kiritish mumkin.

Ma'lumki, O'zbekiston 1994 yilning iyun oyida JSTda kuzatuvchilik makomini qulga kiritgan edi. 1994 yilning dekabrda esa O'zbekiston Respublikasi xukumi tomonidan O'zbekistonning JSTga teng xuquqli a'zosi bo'lib kirishi to'g'risida arizasi topshirildi 1995 yilning yanvarida esa O'zbekistonning JSTga qo'shilishi bo'yicha maxsus ishchi guruhi tuzildi O'zbekiston Respublikasining rasmiy delegatsiyalari JSTning Singapur (1996), Jeneva (1998) va Sietl (1999) da bo'lib o'tgan vazirlar darajasidagi konferentsiyalarda ishtirok etdilar. 1998 yilning sentyabr oyida O'zbekiston hukumati JST Kotibiyatiga respublikaning tashqi savdo rejimi to'g'risidagi Memorandumini taqdim etdi va uning rasmiy taqdimoti bo'lib o'tdi. Ushbu yuzasidan Avstraliya, Evropa Ittifoqi, Yangi zelendiya va AQSH hukumatlarining savolnomalari olindi va shunga muvofiq JST Kotibiyatiga javoblar tayinlandi.

2002 yilning 17 iyulida esa SHveytsariyaning Jeneva shahrida O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lib kirishi bo'yicha majlisi bo'lib o'tdi. Bunda O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo rejimi to'g'risidagi Memorandumining yangi taxririni ko'rib chiqildi. Mazkur majlis natijalari

bo'yicha bir qator mamlakatlar tomonidan Memorandum bo'yicha yozma sharx va savolnomalar taqdim etildi. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lib kirishi bo'yicha ishchi guruhining birinchi majlisi davomida kelib tushgan savolnomalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, respublikamizga kuyilgan asosiy talablar a'zolikka davogar mamlakatlar quyilgan umumiy talablarga to'liq mos keladi.

JST bilan samarali faoliyat tashkil qilish maqsadida, mamlakatda JST bilan ishlash bo'yicha idoralararo komissiya tuzildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 14 dekabrda 520-sonli Qaroriga muvofiq uning tarkibi tasdiklandi. Unga TIAA, Iqtisodiyot Vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat solik qo'mitasi va boshqa vazirlik hamda idoralardan vakillar kiritildilar. JST bilan ishlash bo'yicha idoralararo komissiya kotibiyati vazifasini bajarish TIAA zimmasiga yuklatildi. JSTga kirish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni tayyorlash maqsadida respublikaning vazirliklar va idoralarida ishchi guruhlar tashkil etilib, ularning maqsadida:

- Savdoda qo'llaniladigan sanitar va fitosanitar chora tadbirlar hamda texnik to'siqlar to'g'risidagi savolnomalar ruyxatini tayyorlash;
- Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash va eksport subsidiyalarini berish to'g'risidagi ma'lumotlarni tayyorlash;
- Xizmatlar savdosiga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni tayyorlash;
- Intelektual mulk huquqi savdosiga tegishli bo'lgan axborotlarni tayyorlash;
- Tovarlarga tarif chegirmalarini berish va xizmat majburiyatlari to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqish;
- JST bitimi doirasida ko'zda tutilgan tadbirlarga muvofiq milliy qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish;
- JSTga a'zo bo'lishining iqtisodiyot sohalariga bo'ladigan tasirini baxolash bo'yicha tadkikotlarni olib borishga qaratildi.

Shu paytga kadar O'zbekiston Respublikasi tomonidan JSTga Kotibiyatiga kuyidagi bir qator masalalarni o'z ichiga oluvchi materiallar tayyorlab topshirildi:

- AQSH, EI, Koreya tomonidan JSTga kirish bo'yicha ishchi guruhining birinchi majlisi yakunlari bo'yicha O'zbekiston tashqi savdo rejimi to'g'risidagi memorandumiga qo'yilgan yozma savollarga javoblar;

- JST bitimiga muvofiq savdodagi texnik to'siqlar, sanitar va fitosanitar chora tadbirlar bo'yicha qo'yilgan turli xildagi savollarga javoblar;
- Intelektual mulk huquqi savdosi masalalariga tegishli bo'lgan ma'lumotlar.

Shuningdek, hozirgi paytda 2002 yilning 24 sentyabrida O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lib kirishi bo'yicha tashkil qilingan Ishchi guruhining ikkinchi majlisiga tayyorgarlik bo'yicha tasdiqlangan chora tadbirlar rejasi amalga oshirilmoqda va Ishchi guruhi tomonidan O'zbekistonning JSTga kirishi bilan bog'liq bo'lgan kuyidagi kushimcha ma'lumotlar tayyorlanmoqda:

- Tovarlar mavqei Bo'yicha tariflarni tushirib borish yuzasidan boshlangich ma'lumotlar;
- Xizmatlar savdosi sohasidagi siyosatini olib borish bo'yicha ma'lumotlar;
- Xizmatlar savdosi sohasidagi maxsus majburiyatlarning boshlangich ruyxatini tuzish.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hukumati JSTga a'zo bo'lib kirishni jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvning asosiy shakllaridan biri sifatida qarab kelmoqda va mazkur tashkilotga teng huquqli a'zo bo'lib kirish borasida dadil qadamlar tashlanmoqda. JSTga a'zo bo'lib kirish mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatining eng ustivor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormokda. Xalqaro tajribaga muvofiq, JSTga a'zo bo'lish uzoq muddatli istiqbollarda har qanday milliy iqtisodiyot rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, biroq qisqa muddatli istiqbollarda u milliy xo'jalik taraqqiyoti uchun ayrim muammolarni ham yuzaga keltirish mumkin. Eksportni rag'batlantiruvchi siyosat olib boradigan mamlakatlar JSTga a'zo bo'lishdan nafaqat uzoq muddatli istiqbollarda, balki qisqa muddatli istiqbollarda ham katta foyda ko'radilar.

Bunga qarama qarshi o'laroq, import o'rnini bosuvchi siyosat olib boruvchi mamlakatlar JSTga a'zo bo'lishdan uzok muddatli istiqbollarda manfaat ko'rsalarda, qisqa muddatli istiqbollarda ular iqtisodiy jihatdan ma'lum darajada zarur ko'rishlari xam mumkindir. Shu sababli, xalq xo'jaligi miqyosida erishiladigan foyda va kutilishi mumkin bo'lgan zararlarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil etish va iqtisodiy jihatdan baxolash Jahon savdo tashkilotiga ishtirok etishning dastlabki bosqichlarda o'ta muhim hisoblanadi. Ayni paytda, JSTga a'zo bo'lishning milliy iqtisodiyotga,

shuningdek, alohida tarmoqlariga bo'ladigan ta'sirini baxolamasdan turib, xalqaro savdoni muvofiqlashtirib turuvchi mazkur tashkilotda a'zo bo'lishi uchun zarur bo'lgan qat'ii chora tadbirlarni ishlab chiqish qiyin, albatta.

Xususan, MDX doirasidagi JSTga a'zo bo'lib kirgan ayrim mamlakatlarda xalqaro savdo rivojlanishini mumkin bo'lgan tezkor iqtisodiy ush holatlarining aniq ko'zga tashlanmayotganligi kuzatilmoqda. shuningdek, o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar uchun JSTga a'zo bo'lish jarayonida Ochiqlik darajasining ortib borishi, amalga oshirilishi zarur bo'lgan iqtisodiy islohatlarni tezlashtiradi va uz navbatida, bozor tarkibiy uzgarishlarining istiqboli uchun zaruriy kafolat bo'lib hisoblanadi. boshqa bir tomondan esa, baxolar uzgarishga barxam berish va mamlakatdagi cheklangan resurslardan okilona foydalanishi va ularni samarali taksimlash imkoniyati yuzaga keladi.

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lib kirishi mamlakat xukumati va olib borilayotgan iqtisodiy siyosatga jaxon hamjamiyati va saloxiyatli investorlar ishonchini yanada oshiradi va savdoning rivojlanishi, investitsiyalar oqimining ko'payishi, shuningdek, tezkor iqtisodiy o'sishini ta'minlash imkonini beradi. Iqtisodiyotni imkoniyat darajasida qayta qurish, tarmoqlarning qo'shilgan qiymat yaratishi bilan bog'liq yuksak taraqqiyot darajasini ta'minlash, JSTga a'zo mamlakatlar bozorlariga kirib borishning muhim kafolati bo'lib hisoblanadi.

Qisqacha xulosa

Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish ancha uzoq va murakkab jarayon bo'lib, uch bosqichdan iborat. Uning birinchi bosqichida da'vogar mamlakatlar hukumatlari tomonidan JST ga kuzatish makomini qulga kiritish uchun ariza topshirsalar, ikkinchi bosqichda tashkilotga teng huquqli a'zo bo'lib kirish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etadilar. A'zo bo'lish jarayoning ushbu bosqichi xukumatlar tomonidan JST ga maxsus Memorandumning taqdim etilishini nazarda tutadi.

Memorandumda mamlakatlarning JST bitimi talablari doirasidagi savdo iqtisodiy siyosatiga tegishli asosiy jixatlar o'z aksini topadi. Aynan shu orqali mamlakatlarning a'zolikka da'vogarlik shartlari atroflicha urganilib chikiladi. Uchinchi bosqichda esa mamlakatlarning JST ga a'zo bo'lib kirish bo'yicha maxsus ishchi guruhi tashkil etiladi. Ishchi guruh majlislarida

da'vogar mamlakatlar ma'lum bir tovarlar va xizmatlar turlari bo'yicha berilishi mumkin bo'lgan imtiyozlar va majburiyatlar xususida JST ga a'zo mamlakatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama muzokaralar olib boradilar. Muzokaralar jarayonida urnatilgan tartiblarning amalda ijro etilishi mamlakatlar uchun majburiy hisoblanadi va ularning istagan vaqtda uzgartirilishi man etiladi. A'zolikka da'vogar mamlakatlarning savdo rejimlarini urganish va uni bozorga kirib borish to'g'risidagi muzokaralar o'z yakuniga etgandan sung, ishchi guruhi tomonidan a'zolikka qabul qilish to'g'risidagi asosiy shart sharoitlar ishlab chikiladi. Majlis natijalariga ko'ra, maxsus bayonnoma tayyorlanadi va u bosh yigin yoki vazirlar Konfrentsiyasida JST a'zolarining 3/2 qismi tomonidan qo'llab – quvvatlananilgan takdirdagina imzolangan va tasdiqlangan deb hisoblanadi. Mamlakatlar JSTga a'zo bo'lganlaridan so'ng, Urugvay raundi doirasida imzolangan bitimlarning barchasini qabul qilishlari va uni amalga oshirishlari shart hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Savdo va tariflar Bo'yicha bosh kelishuvning asosiy tamoyillari qanday masalalarni echishga qaratilgan?
2. Shu davrgacha GATTg'VTONi nechta raundlari o'tkazildi?
3. Bu raundlarda qanday asosiy masalalar kurilgan?
4. Butunjahon savdo tashkiloti kachon tashkil topdi?
5. Butunjahon savdo tashkilotining asosiy kelishuvlari.
6. O'zbekiston Respublikasi JSTning qaysi kelishuvlariga qo'shildi?
7. O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zo bo'lishi qanday ijobiy va salbiy okibatlariga olib kelishi mumkin?

Asosiy adabiyotlar

1. Бобохўжаев Ғ. «Божхона органлари фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2010. –230 бет.
2. Кучаров А., Тиллахўжаев Б. «Божхона таомиллари». Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ. 2009. –211 бет.
3. Кучаров А., Тоиров Ш. «Божхона иши». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2009. – 232 бет.

20. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.
21. Коник Н.В. Таможенное дело: Учеб. пособ. – М.: «Омега-Л», 2008. – 192 с. 2 экз

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Шомагдиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятида товар номенклатураси. Дарслик. Т:- ТДИУ. 2010. –196 бет.
- 2.Алиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятни давлат томонидан тартибга солиш. Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ, 2008. - 192 бет.
- 3.Драганов В.Г. Основы таможенного дела. Учебное пособие. – М.: 1998. 346-стр.
4. Шомагдиев А., Кучаров А., Нейматов И. Халқаро транспорт ташувлари.. Ўқув қўлланма. Т:- ТДИУ, 2010. –185бет
- 5.Свинухов В.Г. Таможенное дело. Учебник. М.: Экономист. 2008. – 298 стр.
6. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.
7. «Инкотермс»: Международные правила толкования торговых терминов. – М.: «Омега-Л», 2009. – 76 с.
8. Трошкина Т.Н. Таможенные платежи: Учебно–прак. пособ. М.: “Городец”», 2007. – 128 с. 2 экз
9. Удовенко С.П. Таможенный тариф современной России (1993-2005 гг.). – СПб.: ООО «Архей», 2006. – 402 с.

Internet saytlari

1. <http://www.asstra.ru/downloads/kvt.txt>
2. <http://www.abkhazeti.ru/pub/energyprojects>
3. <http://www.mcads.ru/default.asp>

X-bob. Ochiq iqtisodiy xududlar va ularda bojxona xizmatini tashkil etish

10.1. Ochiq iqtisodiy xududlarni siniflanishi

Izchil taraqqiyot yo'nalishidan borayotgan O'zbekiston Respublikasi uchun oldindan ochilayotgan barcha yo'nalishlaridan eng muhimi va eng ustivorlarini, hal qiluvchi yo'nalishni aniqlab olish katta ahamiyatga egadir.

Hozirgi kunda xayotimizni hal qiluvchi strategik vazifalaridan bari – jahon bozorida o'zimizga munosib o'rinni egallashdir.

Mamlakatimizning geografik jihatdan o'ziga xosligi, boy tarixiy xom ashyo, inson resurslari, demografik va intellektual salohiyatlarini inobatga olgan holda shunday maqsad kulishga asosimiz bor.

Bundan tashqari, iqtisodiyotimizning rivojlantirilishi lozim bo'lgan shunday an'anaviy tarmoq va sohalari borki, ular jahon bozori va xalqaro mexnat taqsimotida tarixan o'zining mustaxkam o'rnini egallagan.

Shu bilan birga, ustivor yo'nalishlar to'g'risida gapirilganda, birinchi galda, mamlakatimiz oldida turgan dolzarb va og'ir muammolarni echishda, shu jumladan ekologik, demografik va ijtimoiy masalalarni hal etishga boshqa imkoniyatlardan ko'ra ko'prok mos keladigan ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirishni tushunish lozim va nixoyat, ustivor yo'nalishlar to'g'risida gapirilganda, aholini ish bilan ta'minlash va halqimizning farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, o'ziga aloqador butun bir tarmoqlarning va butlovchi qismlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni barqaror rivojini ta'minlay oladigan, ta'bir joiz bo'lsa, ularga etakchilik qiladigan ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirishni nazarda to'tish kerak. Bunday misollardan ko'p keltirish mumkin. Birgina yurtimizning boy meneral xom ashyo imkoniyatlaridan oqilona va tejamkorlik bilan kompleks foydalanish masalasini keltirish mumkin.

Mamlakatimizning uzoq muddatli manfaatlarini hisobga olgan holda xorijiy sarmoyalarni mazkur soxaga jalb etish, er osti boyliklarini qazib olish va ularni kompleks qayta ishlashni yo'lga qo'yish taraqqiyotimizning eng muhim ustivor yo'nalishlaridan biridir.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etmay, ayniqsa etakchi tarmoqlarda chet el sarmoyasi ishtirokini kengaytirmoy turib, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarimizni

zamonaviy texnika bilan qayti jihozlash hamda raqobat bardoshli mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin emas. Biz kuchli raqobat sharoitida jahon bozoriga kirish va ulardan mustahkam o'rin eallash amrimahol.

Mamlakatimizda bugungi kunda xorijiy sarmoyadorlar uchun eng qulay unvestitsiya muhiti barpo etilgan. Shuni ochiq aytishimiz kerakki, bu qulaylik o'z samarasini bermoqda. Ko'plab chet el kompaniya va banklario'zi bilan sheriklikda ishlash, o'z mablag'larini iqtisodiyotimizga yotqizish istagini bildirmoqda, bizni o'zlari uchun istiqboli hamkor deb tan olmoqda.

O'zlashtirilayotgan chet el sarmoyasi hajmining yildan-yilga oshib borayotgani buning yaqqol tasdigidir. Xususan, 1999 yilning o'zidaiqtisodiyotningustuvor tarmoqlarida 1 milliard 324 million AQSH dollari miqdorida chet el sarmoyasio'zlashtirilganligi bor haqiqatni aytib turibdi. Mamlakatimizdagi barcha kapital qo'ilmalarining 24 foizini chet el sarmoyasi tashkil etayotgani ham diqqitga sazovordir.

Dunyo xo'jaligi tajribasishuni ko'rsatidiki chet el sarmoyalari, zamonaviy yangi texnologiyalar asosida qayta qurish, uni tashqi bozorlar talabiga tezkor moslashtirish, davlatning eksport-tranzit potentsialini yanada oshirish uchun moddiy va moliyaviy, intellektual resurslarni jalb etishning eng samarali usullaridan biri-mamlakat xududida, mamlakatlararo xududlarda ochiq iqtisodiy zonalar tashkil etishdir. Shuning uchun ham hozirgi kunda erkin iqtisodiy xududlar dunyoning ko'pgida davlatlarida tashkil etilgan. Ba'zi manbalarga ko'ra 90-yillarning o'rtalarida Dunyoda 4 mingdan ortiq erkin iqtisodiy xududlar faoliyat ko'rsatgan. (ya'ni erkin bojxonadan omborlaridan tortib texnoparklargacha, erkin savdo xududlarlardan tortib xududlargacha).

Erkin iqtisodiy xududlarni tashkil qilishni maqsad va vazifalari har xildir. Bular asosan milliy iqtisodiy rivojlanish darajasiga, ijtimoiy rivojlanish darajasiga, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatiga, davlatning geografik joylashishiga bog'liqdir.

Rivojlangan davlatlarda erkin iqtisodiy xududlarni tashkil etish samarali xalqaro savdoni ta'minlash va yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qilsa, mehnatga layoqatli aholi etarligidan ortiq qismi uchun ish joylarini tashkil etish bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun esa iqtisodiyotga yangi texnologiyalarni jalb etish orqali mahalliy xom ashyoni qayta ishlash, eksport tovarlarini, importni o'rnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni tashkil etish va ularni xududda

yaratilgan turli iqtisodiy-ma'muriy imtiyozlar bilan ta'minlab davlatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashdir.

Eksport tovarlarini ishlab chiqaruvchi xududlar jahon assotsiatsiyasini 1998 yil sentyabr oyida bo'lib o'tadigan konferentsiya ishtirokchilarini fikrlariga ko'ra rivojlanayotgan davlatlarda erkin iqtisodiy xududlarni tashkil etish eksport tovarlarini ishlab chiqarishni tez suratlar bilan rivojlantirish va yangi bozorni egallash imkoniyatini yaratadi. Xuddi shunday davlatlar qatoriga Markaziy Osiyo davlatlari, xususan Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va O'zbekiston davlatlari kiradi. Bu davlatlarda erkin iqtisodiy xududlarni tashkil etish ularni tashqi savdosini rivojlantirish, ishlab chiqarishni takomillashtirish imkonini beradi. Shuning uchun ham bu davlatlarda bunday xududlarni tashkil etishni xuquqiy bazasini yaratadi, lekin Qozog'iston va Qirg'izistondagina ular amaliyotda qo'llanilayapdi.

Eksportni aniqlashga erkin iqtisodiy xududlarni tashkil etish kutilayotgan samarani beradi, agarda ularni tashkil etish qat'iy rejalashtirilgan, erkin iqtisodiy xududlarga nisbatan davlat siyosati o'zgarmas bo'lishi lozim.

Ochiq iqtisodiy xududlarni tashkil etish bo'yicha dunyo tajribasi yuqorida qayd etib o'tilgandek, 90-yillarning o'rtalarida dunyoda hammasi bo'lib, ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra to'rt mingdan ortiq Ochiq iqtisodiy xududlar tashkil etilgan.

Bunday xududlar nafaqat rivojlangan davlatlarda, rivojlanayotgan davlatlarda, balki mustaqil hamdo'stlik davlatlarida ham tashkil etilgan. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki MDX davlatlarida Ochiq, iqtisodiy xududlarni tashkil etish jarayonlarini (Rossiyadan tashqari) ular mustaqillikka erishganlaridan so'ng boshlandi. Dunyodagi davlatlar ichida Ochiq iqtisodiy xududlarni tashkil etish bo'yicha Xitoy tajribasi e'tiborga loyiqdir.

1978-1996 yillarda yalpi ichiki mahsulotlarni yillik o'rtacha o'sishi Xitoyda 9,8% tashkil etadi, bu esa iqtisodiy islohatlar o'tkazilgan davrga (1953-1978 yillar) nisbatan 3,8% ko'pdir, 1991-1995 yillarda esa bu ko'rsatkich 11% tashkil etdi. Bu esa dunyo bo'yicha o'rtacha yillik o'sishdan ancha yuqoridir. Import va eksport hajmi 1979 yildagi 24 mld. dollardan, 1998 yil 300,8 mlrd dollargacha oshdi va o'rtacha yillik ushish 16,6 % (eksport – 17,4%, import 15,8%) tashkil etdi. Xitoy halqi respublikasini tashqi savdo hajmini milliy yalpi mahsulotni 65 % tengdir. Bunday iqtisodiy

yutuqlarga erishishni boisi Xitoyda 1979 yildan Ochiq eshiklar siyosatini olib borilishidir.

Xitoy xalq Respublikasida 1979 yildan, ya'ni «Ochiq eshiklar» siyosatini amalga oshirila boshlangandan beri o'tgan davr ichida Xitoy iqtisodiyoti misli ko'rilmagan yutuqlarga erishdi. Xitoy hozirgi kunda tsement ishlab chiqarishni, paxta tolasidan gazlamalar ishlab chiqarishni, bug'doy, paxta, go'sht, tuxum etishtirish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish bo'yicha 2-chi o'rinda, qand-shakar bo'yicha 3-o'rinda, elektro-energiya ishlab chiqarish bo'yicha 4-o'rinda, neft qazib chiqarish bo'yicha 5-o'rinda turadi. Hozirgi kunda Xitoy dunyo bo'yicha ishlab chiqarilayotgan umumiy mahsulotni 3,2% ishlab chiqaradi.

Xo'sh, Xitoy xalq respublikasini shunday yuksak iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishganini boisi nimada?

Bu birinchidan Xitoyni 1979 yildan boshlab «Ochiq eshiklar» siyosatini qo'llash boshlanganidir. Bu siyosatni tub mazmuni, davlat iqtisodiyotini dunyo iqtisodiyotiga integratsiyalashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyatini erkinlashtirish va chet el investitsiyalarini mamlakat iqtisodiyotiga jalb etishni yanada xar tomonlama ko'paytirishdan iborat edi.

Chet el investitsiyalarini Xitoy iqtisodiyotiga jalb etish tarixini bir necha bosqichlarga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich 1949-1978 yillar davomida yopiq tipdagi iqtisodiyotni rivojlantirish davrida chet el investitsiyalarini import o'rnini bosuvchi strategik tovarlarni ishlab chiqarishga qaratish va asosiy ideologik qarashlarga buysundirilgan edi.

Birinchi bosqichda chet el kapitalini jalb etishning asosiy shakli zayom ssudalari ko'rinishida edi, ularni umumiy yig'indisi 1950 yildan 1970 yilgacha 5,31mlrd dollarga teng bo'ldi, shu jumladan uni sobiq Ittifoqdan va sharqiy Evropa mamlakatlaridan olingan qiymati 2,71 mlrd. dollarga teng bo'lgan. Bu bosqichda chet el kapitalini asosan davlatni ichki xududlarida qurilayotgan sanoat va mudofaa ob'ektlarini mashina-uskunalar bilan ta'minlashga sarf etigan.

Mamlakat iqtisodiy usishida 1979 yil burilish yo'li bo'ldi, chunki shu yili iqtisodiyotni erkinlashtirish, uni dunyo xo'jaligi aloqalariga integratsiyalash yo'li tanlandi. 1979 yilni 1-iyunida «Xitoyda qo'shma korxonalar to'g'risida»gi qonun qabul qilindi va bu qonunga asosan to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalariga ruxsat berildi. Shu yilni o'zida birinchi qo'shma korxonalar paydo bo'ldi. 1980 yilni beshta alohida

iqtisodiy xududlar vujudga keldi. Bular Shenchjen, Chjuxay, Shantou, Syamo'n va Xaynan iqtisodiy xududlar. Bunday zonalarini tashkil etilishi chet el kompaniyalarini Xitoy iqtisodiyotiga qiziqishini ancha kuchaytirdi. Lekin xaqiqiy investitsiyalar hali yo'q edi. Bu davrda chet el investitsiyalarini asosiy qismini turizm, xizmat ko'rsatish va savdo soxasiga qo'yilgan edi.

1984 yili Xitoyda chet el investitsiyalari uchun 14 ta dengiz bo'yi shaxarlarini ochish bo'yicha qaror qabul qilindi. Shuning natijasida 80-yillarni o'rtalariga kelib Xitoy iqtisodiyotiga kirib kelayotgan chet el kapitalini miqdori ancha ko'paydi.

1978-89 yillarda jalb etilgan chet el kapitalini miqdori 57,8 mlrd dol. tashkil etdi. Bu esa shu davrgacha bo'lgan 30 yil ichida jalb etilgan chet el investitsiyalari miqdoridan 10 barobar ko'pdir. Shuning bilan birga chet el investitsiyalarini jalb etish manbalarini diversifikatsiyasi amalga oshirildi.

10.2. Ochiq iqtisodiy xududlarda bojxona xizmatini tashkil etishni o'ziga xos xususiyatlari

Davlat va eksport kreditlari bilan bir qatorda xalqaro moliya tashkilotlarini kreditlari ham keng ravishda jalb etila boshlandi.

1991 yilni oxiriga kelib kreditlar dunyoni 30 ortiq mamlakatlaridan jalb etildi. Asosiy kreditorlar-bular Gonkong va Oman (chet el kapitalidagi ularni ulushi 50% tashkil etdi), shuningdek Yaponiya, AQSH, Frantsiya davlatlari. Bulardan tashqari Xitoy iqtisodiyotiga yangi industrial hamda rivojlanayotgan davlatlardan Singapur, Kuvayt, Tailand, Argentina, Fillipinlar ham o'z kapitalini qo'ya boshladilar. Chet el kapitali ishtirokida 42027 ta korxona tashkil etildi, shulardan 90% Ochiq iqtisodiy zonalarda, ayniqsa dengiz bo'yi zonalarida joylashgan bo'lib, Guandun viloyatida qo'shma korxonalarini 50% joylashgan edi.

Ayrim olingan xududlarga chet el kapitalini jalb etish bo'yicha erishilgan yutuqlar chet el kapitalini iqtisodiyotni yanada rivojlantirishi bo'yicha jalb etilishi soxasini yanada kengaytirish, chuqurlashtirish, yangi usullarni yaratish imkoniyatini berdi.

1990 yili Shanxay viloyatida Pudun Ochiq iqtisodiy zonasi hamda Yantszo' daryosi xavzasidagi Shaxarlarda Ochiq zonalarini tashkil etilishi

bilan chet el investitsiyalarini jalb etish bo'yicha markaziy Pudun Shaxrida joylashgan katta xudud xosil qilindi.

1992 yilga kelib esa barcha chegaralar bo'ylab joylashgan shaxarlar, viloyatlar, markazlari, hamda avtonom rayonlar markazlari Ochiq iqtisodiy zonalar deb e'lon qilindi.

Ba'zi bir katta va o'rta shaxarlarda 13 tarifsiz zonalar, 32 ta texnika iqtisodiy o'zlashtirish rayonlari, 52 ta yuqori texnologiya va texnikani va texnikani o'zlashtirish zonalarini tashkil etildi. Bu amalga oshirilgan chora tadbirlar natijasida chet el investitsiyalarini jalb etish bo'yicha yangi yuqori sifatli bosqich boshlandi. 1992-1993 yillar davomida chet el investitsiyalarini miqdori 37 mlrd.doll. tashkil etdi. Bu 1979-1991 yillarda jalb etilgan investitsiyalar miqdoridan 1,5 barobar ko'pdir. 1993 yilni oxiriga kelib Xitoyda umumiy kapitali 61 mlrd.doll.ga teng, 50 ming chet el investitsiyalari qo'yilgan qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatgan. Bu korxonalarni davlat eksport hajmidagi ulushi 1990 yildagi 13 % dan 1993 yilda 37,5 % ga oshdi. Bu davrga kelib Xitoyda dunyoga tanilgan koorparatsiyalar «Minui», «Marubeni», «Metofola», «Simens», «Koka-kola», «Ay-bi-em», «Filij», «Ey-ti-ti», «Folksvain» faoliyat ko'rsata boshladilar.

Xitoy iqtisodiyoti Yaponiyani o'rnini quyidagi raqamlar bilan ifodalash mumkin, ya'ni mashina va uskunalar, eksporti bilan shugullanuvchi Yaponiya korxonalar asotsiatsiyasiga kiruvchi 314 ta kompaniyalardan 72 tasi Xitoy iqtisodiyotiga o'z kapitallarini qo'ygan edilar.

Bu davrga kelib chet el investitsiyalarini ishlab chiqarish tuzilishi ancha yaxshilandi. Sanoat ishlab chiqarish korxonalari qo'shma korxonalarni 65 % ni, ko'chmas mulk savdosi, kommunal xo'jalik, xizmat ko'rsatish korxonalari esa 16 % ni savda umumiy ovqatlanishi va broshqa korxonalar 19 % ni tashkil etdi. Bundan tashqari chet el investitsiyalari endilikda infrastruktura sohasiga noishlabchiqarish sohasiga ham jalb etila boshlandi.

Korxona va tashkilotlar chet el investitsiyalarini jalb etish sohasida ishlab chiqarishni texnik jihatdan rekonstruktsiya qilishga erishdilar. 1994 yili chet el investitsiyalari oqimi 30 mlrd. doll. yaqinlashib qoldi. Bunga asosan ko'chmas mulk bozori tashkil etish sabab bo'ldi.

Yaponiyalik, AQSHlik va Evropa firmalari mashinasozlik, elektron va kimyo sanoatiga alohida qiziqish bildirib boshladilar. Shuning bilan birga Xitoy ma'muriyati ko'chmas mulk ob'ektlari bilan olib sotarlikka qarshi

kurash olib bordi. Bulardan tashqari sifatsiz tovarlarni ishlab chiqarish, daromad miqdorlarini bekitishga qarshi qattiq kurash olib borildi. Shuning natijasida o'sha paytda mavjud bo'lgan 210 ming qo'shma korxona 7 mingga yaqini iqtisodiy faoliyat bilan shugillanishi bo'yicha berilgan ruxsatnomalaridan maxrum etildilar.

90-yillarni ikkinchi yarmidan boshlab qo'shni davlatlar bilan birgalikda davlatlararo Ochiq-iqtisodiy zonalarini tashkil etishga kirishildi. (Yuqorida aytib o'tilgan Rossiya KXDR bilan birgalikda tuzilishi rejalashtirilgan Tumangan xududi).

Ochiq siysat o'tkazish boshlagan paytdan boshlab 17 yil ichida Xitoy iqtisodiyotiga 181,4 mlrd.doll. miqdorida chet el investitsiyalari jalb etildi. 272 mingta chet el kapitali ishtirok etgan korxonalar tashkil etildi. Bu esa davlat valyuta zaxiralarini 1996 yilni oxiriga kelib 105 mlrd.doll. oshib ketishiga olib keldi.

Michigan universitetini ekspertlarini baxolashicha Xitoyni janubiy Sharqiy Ochiq xududlarini yuqori darajada rivojlanishiga sabab bo'lgan kapital qo'yilmalarini 80 % ni Tayvan, Gonkong, Singapur va Janubiy-Sharqiy osiyoni boshqa davlatlarida yashovchi xitoylik investorlar tomonidan amalga oshirilgan.

Chet el investitsiyalarini jalb etilishi natijasida davlat mulkini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash amalga oshirildi, chunki tashkil etilgan ko'pgina qo'shma korxonada davlat mulki ishtirok etgan Xitoy davlati iqtisodiyotini Ochiqligi va qo'shma korxonalar faoliyatini jadal rivojlantirib borishi Xitoy mahsulotlarini dunyo bozoridagi raqobatbardoshligi darajasini oshib borishini ta'minladi.

Xitoyning janubiy-Sharqiy qismida tashkil etilgan birinchi beshta Ochiq iqtisodiy xududlar sanoat ishlab chiqarishi va savdoni uyg'unlashuvini ta'minlab, tashqi savdoni rivojlantirishga, Importni o'rnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqarishni, davlatni xalqaro iqtisodiy texnologik kooreratsiyasida ishtirokini ta'minladi. Bu xududlarga mustaqil iqtisodiy boshqarish xuqudi berilgan. Chet el investitsiyalari uchun bu erlarda, Xitoyni ichki xududlaridan farqli o'laroq, yuqori darajadagi soliq imtiyozlari berilgan. Kirish va chiqish jarayonlarini maksimal ravishda soddalashtirilgan.

Xitoy xalq respublikasida tashkil etilgan Ochiq iqtisodiy xududlarni tahlili shuni ko'rsatdiki, ulur ichida «Pudun» iqtisodiy erkin xududi o'ziga

xos o'rin tutadi. Bu xudud uchun xukumat qarorlariga asosan boshqa xududlardan farq qiluvchi bojxona, soliq, moliya va boshqaruv imtiyozlari komplekslari yaratilgan. Rayon xokimiyatiga 30 mln.dollargacha bo'lgan chet el kapitalini jalb etish bo'yicha o'zi qaror qabul qilish xuquqiga ega. Bu erda rayon ma'muriyati tomonidan umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan forvard birjalari, qimmatli qog'ozlar birjalari tashkil etildi va bu erdagi savdo-sotiq hajmi 10 mlrd.doll. tashkil etgan. Bundan tashqari yillik operatsiyalar hajmi milliard dollarga teng bo'lgan valyuta almashuvi markazi tashkil etilgan. Bulardan tashqari valyuta sug'urtasi kompaniyasi, chet el biznesmenlari uchun Xitoy aktsiyalarini chiqaruvchi qo'shma bank faoliyat ko'rsatayapti.

Pudun shaxrida alohida iqtisodiy tartibni amal qilishi natijasida Shanxay xalqaro iqtisodiy, bank va savdo markaziga aylandi.

Shanxay o'zida 500 ta eng katta kompaniyalar tarkibiga kiruvchi 130 ta kompaniyalar faoliyat ko'rsatayapti. Bu erda 90-yillarda yalpi mahsulot hajmini o'sishi darajasi 15 % ga teng bo'lib, 1980 yillardagi o'sish darajasidan ikki barabar ko'p bo'ldi. Chet el investitsiyalari hajmit esa 3,5 mlrd. doll. oshib ketdi. 1995 yili Pudun iqtisodiy xududida yalpi ichki mahsulot hajmi 41,2 mlrd. yuanga teng bo'ldi. Bu erda 3,5 mingta qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatishi natijasida 14,25 mlrd. doll. mahsulot ishlab chiqarildi, 1994 yilda eksport hajmi 2, 48 mlrd.doll. teng bo'ldi.

Shunday qilib Ochiq iqtisodiy xududlarni tashkil etish bo'yicha Xitoy tajribasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, bunday xududlarni tashkil etish, shunday xududlar tashkil etilgan davlat iqtisodiyotini tez su'ratlar bilan rivojlantirishga, dunyo xo'jaligida etakchi o'rinlarni egallashga imkoniyat yaratarkan.

10.3. Hamdo'stlik davlatlarida Ochiq iqtisodiy xududlarni tashkil etilishi

Sobiq Ittifoqda Ochiq iqtisodiy xududlarni tashkil etish 80-yillarda boshlangan bo'lib 1980 yili Butova shaxrida erkin bojxona ombori ko'rinishidagi erkin savdo xududi tashkil etilgan edi. Shundan sung 1991-1992 yillari yana 12 ta Ochiq iqtisodiy xududlar tashkil etish bo'yicha harakatlar qilingan edi. Yaqin kunlarda Rossiyada Ochiq iqtisodiy xududlar to'g'risidagi qonun qabul qilish ko'zda tutilmoqda. Bu qonunga asosan uch

turdagi Ochiq xududlar: eksport ishlab chiqarish xududlari, ekin bojxona xududlari va erkin bojxona omborini tashkil etish mo'ljallanayapdi. Hozirgi kunda O'zbekiston, Belorusiya, Ukraina va Qirg'iziston davlatlarida erkin iqtisodiy xududlarni tashkil etish bo'yicha qonunlar qabul qilingan. Turkmanistonda 7 ta erkin tadbirkorlik iqtisodiy xududlari tashkil etilgan.

Sobiq Ittifoqda Ochiq iqtisodiy zonalarni tashkil etish yuqorida qayd etib o'tilganidek, 1980 yillarda boshlanib, bu jarayonni bir necha bosqichlarda amalga oshirish ko'zda tutilgan edi. Birinchi bosqich 80 yillarni oxiri va 90 yillarni boshi. Bu davrda Ochiq iqtisodiy zonalarni tashkil etishni xuquqiy asoslari shakllantirildi, qo'shma korxonalar, tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha qo'shma tadbirkorlik zonalarini tashkil etildi. Chet el investitsiyalarini jalb etish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Ikkinchi bosqich 1990-1991 yilning o'rtalari. Bu davrda Ochiq iqtisodiy zonalarda tashkil qilinadigan imtiyozlarni unifikatsiya qilish chora-tadbirlari belgilandi. Lekin chet el investitsiyalarini jalb etish asosiy maqsad emas, balki iqtisodiy zonalarni kengaytirish asosiy maqsad etib belgilandi. Xududlarni ixtisoslashuvi belgilanmadi. Eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyot asosiy maqsad emas balki importni o'rini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish va xududlarni milliy davlat xududiga integrallashtirish asosiy maqsad etib belgilandi. Ishlab chiqilayotgan va amalga qo'llanilishi lozim bo'lgan xukumat qarorlari bajarilmadi.

Xuddi shunday xolat Qozog'iston respublikasida ham qayd etilgan. Qozog'iston respublikasida 30-noyabr 1990 yilda «Qozog'iston SSRda Ochiq iqtisodiy xududlar to'g'risida»gi qonun qabul qilingan edi. Shu qonunga asosan Qozog'istonda 6 ta Ochiq iqtisodiy zonalar tashkil etish ko'zda tutilgan edi.

Xozirga kelib shu zonalardan faqat ikkitasi – Lisakovekiy, Atikent iqtisodiy xududlari saqlanib qolindi. Nima uchun qolgan iqtisodiy xududlar saqlanib qolmadilar degan savol tug'ilishi tabiiyidir. Bu savolga qisqacha qilib, shunday javob berish mumkin. Birinchidan Ochiq iqtisodiy xududlar tashkil etish bo'yicha qabul qilingan xukumat qarorlari o'zida mamlakatning iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy xolatlarni ijtimoiy tahlili natijalariga asoslangan bo'lishlari kerak. Ikkinchidan xukumat qarorlari barcha davlat idoralari tomonidan bajarilishi lozim.

1990 yilda qabul qilingan qonunni birinchi moddasiga asoslan Ochiq iqtisodiy zonalar «Chet el kapitallarini, chet el zamonaviy texnologiyalarini

va boshqaruv tajribasini jalb etish orqali zonalarini ijtimoyi iqtisodiy rivojlantirishga erishish» deb belgilangan.

1996 yildagi qonunning 3-moddasiga asosan esa, Ochiq iqtisodiy zonalar davlat xududlarini iqtisodiy rivojlantirish orqali respublika iqtisodiyotini dunyo iqtisodiyotiga qo'shilishini tezlatish, yuqori darajali eksport ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish, investitsiyalarni jalb etish, bozor munosabatlarini xuquqiy normalarini ishlab chiqarish va amaliyotdan o'tkazish, zamonaviy boshqarish va xo'jalik yuritish usullarini tadbqiq etish, hamda ijtimoyi masalalarni hal etish maqsadida tashkil etiladi deyilgan.

Kengaytirilgan matnlarni bir biri bilan qiyoslab shuni qayd etib o'tish mumkinki, ular Ochiq iqtisodiy zonalarini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmaydilar. Ularda keltirilgan maqsadlarni Qozog'iston respublikasining ixtiyoriy xududini iqtisodiy faoliyatiga qo'llash mumkin.

Ana shu qisqacha keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki Ochiq iqtisodiy zonalarini tashkil etishni iqtisodiy xuquqiy asoslari xar tomonlama puxta o'ylangan bo'lib, iqtisodiy zonalarini tashkil etish oldindan o'ylangan iqtisodiy stenariya asosida amalga oshirilishi lozim.

10.4. "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi va unda tovarlarni rasmiylashtirish bo'yich beriladigan imtiyozlar

NAVOIY ERKIN INDUSTRIAL IQTISODIY ZONASI

Huquqiy asosi. 1. 2006 yil 25 apreldagi "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonun. 2. 2008 yil 2 dekabrda "Navoiy viloyatida erkin industrial iqtisodiy zonani tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni (№ PF-4059).



Imtiyozlar va preferentsiyalar: EIIHda joylashgan sub'ektlar er solig'i, mulk solig'i, daromad solig'i va boshqa bir qator soliqlardan 7 yildan 15 yilgacha o'Zod etiladi. Masalan, investitsiya miqdoriga qarab:

- 3 mln evrodan 10 mln evrogacha 7 yilga;
- 10 mln evrodan 30 mln evrogacha

- 10 yilga;
- 30 mln evrodan ortiq bo'lsa 15 yilga.

Geografik joylashuvi. Navoiy aeroporti yaqinida xalqaro E-40 avtomagistral bo'yida Malikrabot shaharchasi yonida.



Maydoni va ko'lami: 556 ga, 21 ta klasterdan iborat, dastlab 220 ta korxona qurilishi rejalashtirilgan.

Hamkorlar: Janubiy Koreya, Singapur, Hindiston, Xitoy, Birlashgan Arab Amirliqi kabi qator xorijiy mamlakatlar.

Ishlab chiqariladigan mahsulotlar: LCD monitorlari, kompyuterlar, Har xil displeylar, energiyani tejaydigan yoritkichlar, avtomobillar uchun ehtiyoj qismlar,

tibbiyot buyumlari va dori-darmonlar.

Investitsiyalarni o'zlashtirishning joriy holati: 2009 yilda 20-40 ta investitsion loyiha doirasida 900 mln AQSH dollari o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan. 2010 yilda 120 ta loyiha bo'yicha 5.5 mlrd AQSH dollari miqdoridagi investitsiyani o'zlashtirish rejalashtirilgan.

NAVOIY AEROPORTI NEGIZIDAGI LOGISTIKA MARKAZI

Geoiqtisodiy ahamiyati: SHarqiy va Janubi-SHarqiy Osiyoni Evropa, YAqin SHarq va MDH davlatlari bilan bog'laydi.

O'ziashtirilgan investitsiyalar: Navoiy aeroporti bazasi transport xabini yaratishga 2009 yilda 18 mln AQSH dollari miqdoridagi investitsiyani o'ziashtirish ko'zda tutilgan. Transport xabini keyingi rivoji va "Navoiy" issiqlik elektr stantsiyasini modernizatsiya qilish uchun yaqin 3 yilda 450 mln AQSH dollari miqdorida investitsiyani o'zlashtirish rejalashtirilgan.



Yo'lga qo'yilgan reyslar: o'ndan ortiq mamlakatlarga xalqaro reyslar yo'lga qo'yilgan. 2008 yildan boshlab Janubiy Koreyaning "Korean Eyr" kompaniyasi Seul-Milan-Seul marshruti bo'yicha yuk

tashuvlarini yo'lga qo'ygan. Rossiyaning "Moskoviya" aviakompaniyasi Navoiy-Toshkent-Moskva yo'nalishi bo'yicha parvozlarni amalga oshirmoqda.

Yuk tashuvlari o'sish darajasi: 2010 yilda Navoiy shahrining xalqaro aeroporti orqali yuk va yo'lovchi tashish Hajmi 32 foizga o'sdi.

Yangi temir yo'l raz'bezdi qurib bitkazilgach, quyidagi imkonityalarga ega bo'lamiz:

- Shimoliy-g'arbiy yo'nalishda – Uchquduq-Nukus-Volgograd bo'yicha Rossiya orqali Evropaga;

- Sharqiy yo'nalishda – Samarqand-Toshkent-Do'stik yo'nalishi orqali Xitoy va Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlariga;

- Janubiy yo'nalishda – Buxoro-Turkmaniston-Bandar-Abbos yo'nalishi orqali YAqin SHarq va Fors ko'rfaziga chiqish mumkin bo'ladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BOJXONA
QO'MITASINING
QARORI

**«NAVOIY» ERKIN INDUSTRIAL-IQTISODIY ZONASIDA
TOVARLARNI RASMIYLASHTIRISHDA BOJXONA YUK
DEKLARATSIYASINI TO'LDIRISH QOIDALARI TO'G'RISIDA**
*(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 y., 46-son, 418-
modda)*

**[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 12
noyabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2154]**

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 27, 28, 89 va 90-moddalari (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 yil, 2-son, 36-modda), «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil, 9-son, 230-modda) 6-moddasiga va Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 23 apreldagi 120-sonli qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 yil, 17-son, 215-modda) bilan tasdiqlangan «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida alohida bojxona rejimi to'g'risidagi nizomga muvofiq Davlat bojxona qo'mitasi qaror qiladi:

1. «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasida tovarlarni rasmiylashtirishda bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish qoidalarini ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab o'n kundan keyin kuchga kiradi.

Rais S. NOSIROV

Toshkent sh.,
2010 yil 15 oktyabr,

01-02/12-24-son
O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2010 yil 15
oktyabrdagi 01-02/12-24-son qaroriga
ILOVA

**«Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasida tovarlarni
rasmiylashtirishda bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish
QOIDALARI**

Ushbu Qoidalar O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 2-son, 36-modda) 27, 28, 89 va 90-moddalari, O'zbekiston Respublikasining «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi Qonuni 6-moddasi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 230-modda) va O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 23 apreldagi 120-son qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 17-son, 215-modda) bilan tasdiqlangan «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududidagi alohida bojxona rejimi to'g'risidagi nizomga muvofiq «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasiga (bundan keyingi o'rinlarda «Navoiy» EIIZ deb yuritiladi) joylashtirilayotgan va undan chiqarilayotgan tovarlarga bojxona yuk deklaratsiyasini (bundan keyingi o'rinlarda BYUD deb yuritiladi) to'ldirish tartibini belgilaydi.

I. Umumiy qoidalar

1. «Navoiy» EIIZga joylashtirilayotgan va undan chiqarilayotgan tovarlarga BYUD «Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnoma (ro'yxat raqami 834, 1999 yil 3 noyabr) (bundan keyingi o'rinlarda yo'riqnoma deb yuritiladi) asosida to'ldiriladi.

2. Tovarlarni «Navoiy» EIIZga olib kirish va undan olib chiqish vaqtida bojxona rasmiylashtiruvi uchun bojxona organlariga yo'riqnomada nazarda tutilganlardan qo'shimcha ravishda mazkur nizomga keltirilgan ilovadagi hujjatlar taqdim etiladi.

3. Ilgari vaqtincha saqlash, erkin ombor va bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar to'g'ridan-to'g'ri erkin iqtisodiy zona bojxona rejimiga rasmiylashtirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida ilgari vaqtincha olib kirish va qayta ishlash bojxona rejimlariga joylashtirilgan chet el tovarlari hamda O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga ilgari vaqtincha olib chiqish va qayta ishlash bojxona rejimlariga joylashtirilgan tovarlar belgilangan tartibda boshqa bojxona rejimiga rasmiylashtirilgandan so'ng, erkin iqtisodiy zona bojxona rejimiga rasmiylashtirilishi mumkin.

II. O'zbekiston Respublikasi tovarlarini «Navoiy» EIIZga joylashtirishda BYUDni to'ldirish

4. Deklarant >> tomonidan BYUD asosiy varag'ining quyidagi ustunlari va qo'shimcha varaqlarning tegishli ustunlari to'ldiriladi: raqamli — 1, 2, 3, 4, 5, 6, 8, 9, 11, 12, 13, 14, 16, 17, 17a, 18, 19, 20, 22, 23, 24, 26, 28, 29, 31, 32, 33, 34, 35, 36, 37, 38, 39, 40, 41, 42, 43, 44, 45, 46, 47, 49, 50, 53, 54;

harfli — A (faqat BYUD asosiy varag'ida), V va S.

5. Ushbu Qoidaning 4-bandida ko'rsatib o'tilgan BYUD ustunlari (1, 17, 17a, 44-ustunlardan tashqari), Yo'riqnomaning 3-bo'limiga muvofiq to'ldiriladi.

6. BYUDning 1, 17, 17a, 44-ustunlarini to'ldirish quyidagi o'ziga xos jihatlarga ega:

1-ustun. «Deklaratsiya turi»:

ustunning birinchi bo'linmasida tovarlarni yo'nalishi eksport rejimi «EK» ko'rsatiladi;

ustunning ikkinchi bo'linmasida bojxona rejimi kodi erkin iqtisodiy zona «71» ko'rsatiladi;

ustunning uchinchi bo'linmasi quyidagicha to'ldiriladi:

«1» — agar «Navoiy» EIIZ qatnashchisining o'z ehtiyojlari uchun mo'ljallangan mahsulotni «Navoiy» EIIZga joylashtirsa;

«0» — agar «Navoiy» EIIZ qatnashchisining o'z ehtiyojlari uchun mo'ljallanmagan mahsulotni «Navoiy» EIIZga joylashtirsa.

17-ustun. «Tayin etilgan mamlakat»:

ustunda «O'zbekiston» ko'rsatiladi.

17a-ustun. «Tayin etilgan mamlakat kodi»:
ustunda jahon mamlakatlari tasnifnomasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining kodi ko'rsatiladi.

44-ustun. «Qo'shimcha axborot/taqdim etiladigan hujjatlar»:
8-bandida qo'shimcha taqdim etiladigan hujjatlarning raqami va sanasi ko'rsatiladi.

III. Chet el tovarlarini «Navoiy» EIIZga joylashtirishda BYUDni to'ldirish

7. << Deklarant tomonidan BYUD asosiy varag'ining quyidagi ustunlari va qo'shimcha varaqlarning tegishli ustunlari to'ldiriladi: raqamli — 1, 2, 3, 4, 5, 6, 8, 9, 11, 12, 13, 14, 15, 15a, 16, 18, 19, 20, 21, 22, 23, 24, 25, 26, 28, 29, 31, 32, 33, 34, 35, 36, 37, 38, 40, 41, 42, 44, 45, 46, 47, 48, 49, 50, 53, 54;

harfli — A (BYUDning asosiy varag'ida), V, S.

8. Ushbu Qoidaning 7-bandida ko'rsatib o'tilgan ustunlar (1 va 44-ustunlardan tashqari) Yo'riqnomaning 6-bo'limiga muvofiq to'ldiriladi.

9. BYUDning 1 va 44-ustunlari quyidagicha to'ldiriladi:

1-ustun. «Deklaratsiya turi»:

ustunning birinchi bo'linmasida tovarlarning yo'nalishi import «IM» ko'rsatiladi;

ustunning ikkinchi bo'linmasida bojxona rejimi kodi erkin iqtisodiy zona «71» ko'rsatiladi;

ustunning uchinchi bo'linmasi quyidagicha to'ldiriladi:

«1» — agar «Navoiy» EIIZ qatnashchisining o'z ehtiyojlari uchun mo'ljallangan mahsulotni «Navoiy» EIIZga joylashtirsa;

«0» — agar «Navoiy» EIIZ qatnashchisining o'z ehtiyojlari uchun mo'ljallanmagan mahsulotni «Navoiy» EIIZga joylashtirsa.

44-ustun. «Qo'shimcha axborot/taqdim etiladigan hujjatlar»:

8-bandida qo'shimcha taqdim etiladigan hujjatlarning raqami va sanasi ko'rsatiladi.

IV. «Navoiy» EIIZga joylashtirilgan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqishda BYUDni to'ldirish

10. «Navoiy» EIIZga joylashtirilgan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqishda BYUDning 37 va 44-ustunlari quyidagicha to'ldiriladi:

37 — ustun «protsedura»:

a) «Navoiy» EIIZga joylashtirilgan chet el tovarlarini o'zgartirilmagan holatda reeksport bojxona rejimiga rasmiylashtirishda «11 71 **» (3 — juftlik «49» raqamidan tashqari) ko'rsatiladi;

b) «Navoiy» EIIZga joylashtirilgan O'zbekiston Respublikasi tovarlarini o'zgartirilmagan holatda eksport bojxona rejimiga rasmiylashtirishda «10 71 **» (3 — juftlik «49» raqamidan tashqari) ko'rsatiladi;

v) «Navoiy» EIIZda ishlab chiqarilgan tovarlarni eksport bojxona rejimiga rasmiylashtirishda «10 71 49» ko'rsatiladi.

44-ustun. «Qo'shimcha axborot/taqdim etiladigan hujjatlar»:

8-bandida qo'shimcha taqdim etiladigan hujjatlarning raqami va sanasi ko'rsatiladi.

V. «Navoiy» EIIZga joylashtirilgan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirishda BYUDni to'ldirish

11. «Navoiy» EIIZdan O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarni rasmiylashtirishda BYUDning 15, 15a, 37 va 44-ustunning 8-bandi quyidagicha to'ldiriladi:

15-ustun. «O'zbekiston» ko'rsatiladi;

15a-ustun. Jahon mamlakatlari tasnifnomasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining kodi ko'rsatiladi.

37-ustun. «protsedura»:

a) «Navoiy» EIIZga olib kirilgan chet el tovarlarini o'zgartirilmagan holatda O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish uchun rasmiylashtirishda «** 71 **» (3 — juftlik «49» raqamidan tashqari) ko'rsatiladi;

b) «Navoiy» EIIZga olib kirilgan O'zbekiston Respublikasi tovarlarini o'zgartirilmagan holatda reimport bojxona rejimiga rasmiylashtirishda «41 71 **» (3 — juftlik «49» raqamidan tashqari) ko'rsatiladi;

v) «Navoiy» EIIZda ishlab chiqarilgan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish uchun rasmiylashtirishda «** 71 49» ko'rsatiladi.

44-ustun. «Qo'shimcha axborot/taqdim etiladigan hujjatlar»:

8-bandida qo'shimcha taqdim etiladigan hujjatlarning raqami va sanasi ko'rsatiladi.

«Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasida tovarlarni rasmiylashtirishda bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish qoidalariga ILOVA

«Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasida tovarlarni rasmiylashtirishda bojxona organlariga qo'shimcha taqdim etiladigan hujjatlar RO'YXATI

1. «Navoiy» EIIZ qatnashchisining mazkur ro'yxatga keltirilgan ilovaga muvofiq arizasi;

2. «Navoiy» EIIZda ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi;

3. Ishlab chiqarish uchun «Navoiy» EIIZ hududiga olib kirilishi mo'ljallanayotgan tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlar (tovarning nomi, miqdori, O'zbekiston Respublikasi TIF TN bo'yicha kodi, qiymati, kelib chiqish mamlakati);

4. Ishlab chiqarish uchun tovarlar (xorijiy tovarlar va O'zbekiston tovarlari) hamda mahsulotlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar va bunday operatsiyalarni amalga oshirish natijasida olinadigan mahsulotni ishlab chiqarishdagi ularning sarflash normalari to'g'risidagi ma'lumotlar;

5. O'zbekiston Respublikasi tashqarisiga olib chiqib ketishga, «Navoiy» EIIZning boshqa qatnashchisiga yoki «Navoiy» EIIZ qatnashchisi hisoblanmaydigan shaxsga O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanish uchun berish (begonalashtirish) mo'ljallanayotgan mahsulot to'g'risidagi (tovarning nomi, miqdori, O'zbekiston Respublikasi TIF TN bo'yicha kodi,

xorijiy tovarlar va O'zbekiston tovarlarining mahsulot birligidagi tarkibi, mahsulot birligining qiymati) maълumot.

**«Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasida tovarlarni
rasmiylashtirishda bojxona organlariga qo'shimcha taqdim etiladigan
hujjatlar ro'yxatiga
ILOVA**

**«Navoiy» EIIZda tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish
uchun
ARIZA**

1. Tovarlariga aloqador «Navoiy» EIIZ qatnashchisining nomi va manzili.
2. SHartnoma raqami va sanasi.
3. YUk kuzatuv hujjatlari raqami va sanasi (invoys, schyot-faktura, SMR, Karnet TIR, temir yo'l yuk xati, avianakladnoy)
4. Taqdim etilgan hujjatlar asosida tovarlar tasnifi:
 - a) tovarning savdo va/yoki texnik tafsiloti;
 - b) TIF TN bo'yicha kod raqami (tovarning 10 belgili kodi ko'rsatiladi);
 - v) tovarning o'lchov birligidagi miqdori (kg, litr, metr, dona va h. k.);
 - g) tovarning shartnoma bo'yicha qiymati.
5. «Navoiy» EIIZda tovarlardan foydalanadigan shaxsning nomi va manzili (agar tovarlar foydalanish uchun berishga (begonalashtirish) mo'ljallanayotgan bo'lsa).
6. «Navoiy» EIIZda tovarlardan foydalanish uchun «Navoiy» EIIZ boshqa qatnashchisiga beriladigan (begonalashtirish) taqdirda 15 kun oldin bojxona organiga xabar berish bo'yicha maълumot.

Sana, imzo, muhr

Izoh: ko'p turdagi tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish uchun ariza berilganda, taqdim etilgan hujjatlar asosida tovarlar tasnifi alohida varaqda ko'rsatilishi mumkin.

Qisqacha xulosa

Mamlakatimizda bugungi kunda xorijiy sarmoyadorlar uchun eng qulay unvestitsiya muhiti barpo etilgan. Shuni ochiq aytishimiz kerakki, bu qulaylik o'z samarasini bermoqda. Ko'plab chet el kompaniya va banklari o'zi bilan Sheriklikda ishlash, o'z mablaglarini iqtisodiyotimizga yotkizish istagini bildirmoqda, bizni o'zlari uchun istiqboli hamkor deb tan olmoqda.

O'zlashtirilayotgan chet el sarmoyasi hajmining yildan-yilga oshib borayotgani buning yaqqol tasdigidir. Xususan, 1999 yilning o'zidaiqtisodiyotningustuvor tarmoqlarida 1 milliard 324 million AQSH dollari miqdorida chet el sarmoyasi o'zlashtirilganligi bor haqiqatni aytib turibdi. Mamlakatimizdagi barcha kapital qo'ilmalarining 24 foizini chet el sarmoyasi tashkil etayotgani ham diqqatga sazovordir.

Dunyo xo'jaligi tajribasishuni ko'rsatidiki chet el sarmoyalari, zamonaviy yangi texnologiyalar asosida qayta kurish, uni tashqi bozorlar talabiga tezkor moslashtirish, davlatning eksport-tranzitpotentsialini yanada oshirish uchun moddiy moddiy va moliyaviy, intellektual resurslarni jalb etishning eng samarali usullaridan biri-mamlakat xududida, mamlakatlararoxududlarda Ochiq iqtisodiy zonalar tashkil etishdir.

Nazorat savollari:

- 1 . Xozirda integratsion tuzilmalarning integrallashuv darajasiga kura nechta asosiy ko'rinishi mavjud?
- 2 . Erkin savdo xudidi iborasiga izox bering.
- 3 . Bojxona Ittifoqi deganda nimani tushunasiz?
- 4 . Umumiy bozor xamda iqtisodiy Ittifoq iboralariga ta'rif bering.
- 5 . Evropa Ittifoqini Shakillanish tarixi xaqida gapirib bering.
- 6 . O'zbekiston Respublikasida tashqi savdoni boshqarish amaliyoti xaqida nimalarni bilasiz?
- 7 . O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo faoliyatini yanada rivojlantirish, import operatsiyalarini tartibgat solish uchun nimalar qilingan?
- 8 . Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi nechanch yilda tashkil etilgan?

Asosiy adabiyotlar

1. Бобохўжаев Ғ. «Божхона органлари фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2010. –230 бет.
2. Кучаров А., Тиллахўжаев Б. «Божхона таомиллари». Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ. 2009. –211 бет.
3. Кучаров А., Тоиров Ш. «Божхона иши». Дарслик. Т: – ТДИУ. 2009. – 232 бет.
22. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.
23. Коник Н.В. Таможенное дело: Учеб. пособ. – М.: «Омега-Л», 2008. – 192 с. 2 экз

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Шомагдиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятида товар номенклатураси. Дарслик. Т:- ТДИУ. 2010. –196 бет.
2. Алиев А. Ташқи иқтисодий фаолиятни давлат томонидан тартибга солиш. Ўқув қўлланма. Т: – ТДИУ, 2008. - 192 бет.
3. Драганов В.Г. Основы таможенного дела. Учебное пособие. – М.: 1998. 346-стр.
4. Шомагдиев А., Кучаров А., Ньматов И. Халқаро транспорт ташувлари.. Ўқув қўлланма. Т:- ТДИУ, 2010. –185бет
5. Свинухов В.Г. Таможенное дело. Учебник. М.: Экономист. 2008. – 298 стр.
6. Таможенное дело. Учебник. – М.: Юрайт, 2010. – 506 с.
7. «Инкотермс»: Международные правила толкования торговых терминов. – М.: «Омега-Л», 2009. – 76 с.
8. Трошкина Т.Н. Таможенные платежи: Учебно–прак. пособ. М.: “Городец”, 2007. – 128 с. 2 экз
9. Удовенко С.П. Таможенный тариф современной России (1993-2005 гг.). – СПб.: ООО «Архей», 2006. – 402 с.

Internet saytlari

1. <http://www.asstra.ru/downloads/kvt.txt>
2. <http://www.abkhazeti.ru/pub/energyprojects>
3. <http://www.mcids.ru/default.asp>

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi tarqqa-yotining o'ziga xos rivojlanishi modeli yurtboshimiz Islom Abduganievich Karimov tomonidan belgilab berilgan strategik yo'nalishlar asosida kun sayin taraqqiy etib mamlakatimizni xalqaro miqyosda obro'-e'tiborini ortib borishiga olib kelmoqda. Mamlakatimizning rivojlanish yo'nalishlarining eng muhimlaridan biri iqtisodiyotni erkinlashtirish masalasidir.

Prezidentimiz I.Karimov 2004 yil yakunlariga bagishlab Vazirlar Maxkamasida bo'lib o'tgan yig'ilishda qilgan ma'ruzasida mamlakatimizda amalga oshirila-etgan islohotlar jaraenini jiddiy tahlil qilib, soliq va bojxona tizimlari tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashi lozimligi, buning uchun soliqlar ham, boj to'lovlari ham ma'lum darajada soddalashtirilgan, keng aholi ommasiga qulay va tushunarli bo'lishi zarurligini ta'kidlagan edilar. Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 6 mayda qabul qilgan "Jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi xududiga tovarlar olib kelinishini tartibga solish to'g'risida" qarori qabul qilindi. Ushbu qaror orqali jismoniy shaxslar tomonidan olib kelinadigan tovarlarni qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona bojlari va yig'imglar o'rniga yagona bojxona to'lovi to'lashni joriy etishni nazarda tutuvchi bojxona to'lovlari undirishning soddalashtirilgan tartibi shu yil 1 iyundan amaliyetga kiritildi.

Mamlakatimizda bojxona tizimining qonuniy negizini yaratish borasida ma'lum ishlar amalga oshirilidi. Jumladan, Bojxona kodeksi, "Boj tarifi to'g'risida"gi qonun hamda yuzdan ortiq me'yoriy xujjatlar qabul qilinib amaliyotga tadbiiq qilindi. Natijada bojxona tizimining jahon andozalariga yaqinlashgan qonuniy asosi barpo etildi.

Xalqaro bojxona aloqalarimizni yuksaltirishga alohida ahamiyat berib, jahon bojxona tashkilotining bosh kotibi Mishel Dane janoblarini yurtimiga ikki bor tashrifi, Evropa bojxona tashkiloti bilan hamkorlik va ko'plab davlatlar bilan yaqin aloqalarning o'ratilishi buning dalilidir. Lekin erishilgan yutuklar bilan birga hali echilmagan talaygina muammolar mavjud.

Prezidentimiz I. A. Karimov tashabbusi bilan 1998 yilda bojxona va soliq kollejlari, 2001 yilda esa Soliq va bojxona organlari Akademiyasi tashkil etilganligi iqtisodiyotimizni tayanchli bo'lgan bu sohalarni fan yutuqlari asosida rivojlantirish davlat ahamiyatidagi masala ekanligini ko'rsatadi. Qariyb bir yil davomida esh navqiron Akademiyada ma'lum ishlar

amalga oshirildi. Ya'ni, bu yangi sohalar bo'yicha o'quv dasturlari ishlab chiqildi va o'nlab o'quv qo'llanmalari yaratildi. Lekin hali kerak bo'lgan qator vazifalar mavjud. Kelajakda yozilishi kerak bo'lgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari hamda ularga qo'yiladigan talablar ham nazoratdan chetda qolmasligi kerak.

Respublikamiz raxbariyati, shaxsan Prezidentimiz I. A. Karimov tomonidan mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, uni izchil va sobitqadamlik bilan xayotga joriy etish borasida ahamiyatga ega bo'lgan ishlar olib borilmoqda. Jumladan, sud-xuquq islohotlari, jinoiy jazolarni liberallashtirish bo'yicha qonun xujjatlariga yangidan kiritilgan o'zgartirishlar Respublikamiz bojxona tizimi shaxsiy tarkibi tomonidan chuqur o'rganib borilmoqda.

“...davlat idoralari avvalo uning ma'muriy organlari va tashkilotlari ustidan fuqarolar nazoratini o'rnatish butun dunyoda qonunbuzarlikka, berilgan vakolat vazifasini suiste'mol qilishga, korruptsiyaga qarshi ayni paytda barcha o'zboshimchalik va valyuntaristik qarorlarni qabul qilishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar, deb tan olinadi”. Asosiy va eng dolzarb masala sifatida yurtboshimiz iqtisodiyotni erkinlashtirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishda qat'iy choralar ko'rish xususiy mulkni iqtisodiyotdagi o'rni va ta'sirini kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlariga yanada erkinlik va imtiyozlar berish, ular uchun barcha zarur imkoniyatlarni yaratish va rag'batlantirish bir so'z bilan aytganda, bu tarmoqlarni ularni qo'l-oyog'ini bog'lab turgan zanjir va arqonlardan halos etish vazifasini qo'ymoqda. Biz bundan kelib chiqadigan bojxona organlari olodida turgan vazifalarni yanada aniqroq belgilab olishimiz zarur. Shu bilan bir qatorda bojxona organlarida korruptsiyaga va poraxo'rlikka, ta'magirlik va boshqa salbiy illatlarga qarshi kurashni kuchaytirish lozim. Yil boshida Stambulda Butunjahon bojxona tashkiloti (BBT) tashabbusi bilan bojxona tizimida korruptsiya-poraxurlikka qarshi kurash mavzusida xalqaro anjuman o'tkazildi. 2002 yil jinoyatchilik – korruptsiya va poraxurlikka qarshi kurash, deb elon qilindi. Shu anjumanda quyilgan vazifalar bugungi kunda dolzarb ekanligini ko'rsatib turibdi. Bojxona xodimlari xushmuomala, halol bo'lishi, o'z xizmat vazifalariga sidqidildan, faqat qonun doirasida yondashishi, har xil illatlardan saqlanishi talab qilinadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining XXI asr boshidagi strategik yo'nalishlari yurtboshimiz I. A. Karimov tomonidan belgilab berilgan. Bu yo'nalishlar asosida eng muhimi iqtisodiyotni erkinlashtirish masalasidir. Jahon tajribasidan ma'lumki, bozor munosabatlariga o'tishda soliq va bojxona tizimi juda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida bojxona tizimini takomillashtirish yo'llarini belgilab olish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Bojxona kodeksida xalqaro pochta jo'natmalarini yo'lga qo'yish tartibi xaqida alohida modda kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lur edi.

O'zbekistondan paxta tolasi, pilla, neft va boshqa chetga eksport qilinadigan xom ashyo hamda ularning mahsulotlarini xalqaro kod rakamlari bojxona xujjatlarida ataylab o'zgartirib ko'rsatilgan xolatlar uchun mamlakatimiz iqtisodiyotini muxofaza qilish maqsadida alohida jazo chorasi belgilangan modda kiritilishi o'rinli.

Import Shartnomalarini hisobga olishni takomillashtirish uchun konsaltinig xizmati faoliyatini tegishli me'yoriy xujjatlar asosida yo'lga qo'yish juda-juda zarurligi kun sayin ma'lum bo'lmoqda.

Bojxona surishtiruv ishlari bo'yicha DBKda bojxona tergov boshqarmasi hamda xududiy bojxona boshqarmalarida tergov bo'limlar tuzilsa, bojxona xuquqbuzarligiga tegishli jazolar belgilash hamda bunday xuquqbuzarliklarni oldini olish imkoniyati yaratilar edi.

Shuningdek, bojxona qonunlari buzilgan xolatlar bo'yicha ashyoviy dalil sifatida olingan tovar moddiy boyliklarni turidan qati'iy nazar davlat foydasiga musodara qilish vakolatini bojxona organlariga berilishi hamda mazkur tovarlarni bojxona organi tomonidan auktsion orqali sotilishini tashkil etish masalalarini bojxona qonunchiligida o'z aksini topishi zarur.

Moliya-iqtisod sohasida esa moliya va buxgalteriya hisob-kitob ishlarini to'liq avtomatlashtirish, bank bilan bog'liq bo'lgan barcha hisob kitob operatsiyalari kompyuterlar orqali, elektron pochta usuli bilan amalga oshirish tartibini joriy etish vaqti keldi.

Bojxona qiymatini aniqlash borasida keyingi 2-3 ichida juda ko'p ishlar qilindi. Lekin istiqbol reja ko'rsatkichlarini to'lik bajarish uchun bojxona qiymatini to'g'ri aniqlash borasida qator muammolar mavjud. Bojxona qiymatini pasaytirib va noto'g'ri rasmiylashtirish xolatlari tez-tez uchrab turibdi. Bunday xolatlarga chek qo'yish uchun betarf konsalting firmalar faoliyatini jonlantirish, kelayotgan tovarlar narxini belgilashda adolatli xolis

tashkilotlar tomonidan xulosalar tayyorlash tartibini ishlab chiqish va bunday tartib buzilgan xolatlarda ularga tegishli iqtisodiy jazo choralari qo'llash xaqida me'yoriy xujjatlar ishlab chiqish zarurligini xayot taqozo etmoqda.

GLOSSARIY

Ochiq savdo xududi – iqtisodiy birlashuvni eng sodda shakli bo'lib, unda qatnashuvchi tomonlar o'zaro tovar savdosining iqtisodiy to'siqlarini olib tashlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradilar.

ASEAN – a'zo mamlakatlar Ochiq savdo xududi tashkil etish bo'yicha 15 yilga, 1995 yilga kelib esa bu Ochiq savdo xududini muddati 10 yilga qisqartirildi.

Shimoliy Amerika erkin savdo bo'yicha kelishuv – 1994 yil 1 yanvarda kuchga kirgan va a'zo mamlakatlar AQSH, Meksika va Kanada mamlakatlari doirasida yagona tashqi savdo tarifi amalga oshiriladi.

Evropa Ittifoqi – 1951yilda Parij shartnomasining yani ko'mir va po'lat bo'yicha Evropa birlashmasi tashkil etish bilan boshlangan. Evropa birlashmasiga birinchi bo'lib 6 ta Evropa mamlakatlari kirgan, bular: GFR, Frantsiya, Italiya va Benilyuks mamlakatlari (Belgiya, Nederlandiya va Lyuksemburg) kirgan. Evropa birlashmasi to'g'risidagi shartnoma 1953-yildan boshlab kuchga kirgan va o'z faoliyatini boshlagan.

Amerika-O'zbekiston savdo palatasi (AUSP) – bu savdo palatasining asosiy maqsadi savdo-iqtisodiy aloqalarini kengaytirish va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga Amerika investitsiyalari oqimini ko'paytirishdan iborat.

Markaziy Osiyo xududiy hamdo'stligi (TSARS) – 1992 yanvar oyida O'rta Osiyo respublikalari birlashib, mamlaktlararo iqtisodiy birlashma sifatida tuzilgan.

«Erkin savdo bo'yicha Lotinamerikasi assotsiatsiyasi» (LAFTA) va «Markaziy-Amerika mamlakatlari umumiy bozori» (MAUB) – 1960 yilda Lotin Amerikasi mamlakatlarini ichki bozorini xududiy savdosi oldidagi ayrim iqtisodiy to'siq va boshqa iqtisodiy siyosat choralaridan ozod etish maqsadida tuzilgan.

Shimoliy Afrika rivojlanish kordinatsion konfrentsiyasi (SHAKK) – 1980 yilda tuzilgan bu kordinatsion konfrentsiya Shimoliy Afrika mamlakatlari o'rtasidaga o'zaro iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish maqsadida tashkil etilgan.

Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari Assotsiatsiyasi – 1964 yilda tashkil etilib, faqatgina ichki bozorda emas, balki, Janubiy va Sharqiy Osiyo

mamlakatlarining boshqa integratsion uyushmalar bilan iqtisodiy va xalqaro masalalarda hamkorlik qilish maqsadida tuzilgan.

Mag'rib bojxona Ittifoqi – tashqi savdoni tartibga solishni tarif va notarif usullari yuzasidan normativ qoidalarni bir xillashtirish, mamlakat xududiga olib kirilayotgan tashqi savdo tovarlariga nisbatan aktsiz solig'i stavkalari bir xillashtirish, a'zo mamlakatlarning uchinchi mamlakatlarga nisbatan savdo rejimlari to'g'risida bir xilligiga erishish, tashqi savdoga bojxona statistikasini birgalikda olib borish va uni rivojlantirish bo'yicha umumiy kelishuv .

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi bojxona Ittifoqi – bu Ittifoqqa a'zo mamlakatlar. Iqtisodiy va sotsial rivojlanishning zamonaviy integratsion jarayonlarni rivojlanishining o'ziga xos xususiyati bo'lib - xududiy savdo iqtisodiy Ittifoqlar va birlashmalar tashkil etish va rivojlantirish hisoblanadi.

GUAM – Gruziya Respublikasi, Ukraina Respublikasi, Azarbayjon Respublikasi va Maldova Respublikalarining iqtisodiy birlashmasi .

«Tarif va savdo erkinliklari bosh kelishuvi» (GATT) – 1947 yilda a'zo mamlakatlar o'rtasida savdoni ekinlashtirish hamda to'siqlarni olib tashlash maqsadida tuzilgan.

Butunjahon bojxona tashkiloti – 1994 yildan «Tarif va savdo erkinliklari bosh kelishuvi» (GATT)ning davomchisi sifatida yuqoridagicha atala boshladi. Bu tashkilotga 150 dan ortiq davlatlar a'zo bo'lgan. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi ham kuzatuvchi mamlakatlar qatoriga kiradi.

Bojxona Ittifoqi – Ittifoqqa a'zo mamlakatlar orasida bojxona bojarini bekor qilish, tashqi bojxona ta'rifini kiritish va Ittifoqqa a'zo bo'lmagan uchinchi mamlakatlarga yagona tashqi savdo siyosatini olib borish bilan shugullanuvchi va buni ustidan nazorat olib boradigan iqtisodiy birlashmadir.

Yagona yoki umumiy bozor – kapital va mexnatning erkin harakati ta'minlaydigan iqtisodiy birlashma hisoblanib, u xalqaro savdoda bojxona poshlinalarini qisqartirish, yagona tashqi savdo bojxona tarifni yaratish bilan shugullanuvchi birlashmadir.

Evropa birlashmasi – 1951yilda Parijda ko'mir va po'lat bo'yicha Evropa birlashmasi tashkil etish shartnomasining imzolanishi natijasida tashkil etilgan. Unda 6 ta Evropa mamlakatlari a'zo bo'lgan, bular: GFR, Frantsiya, Italiya va Benilyuks mamlakatlari (Belgiya, Niderlandiya va

Lyuksemburg) kirgan. Evropa birlashmasi to'g'risidagi shartnoma 1953-yildan boshlab kuchga kirgan va o'z faoliyatini boshlagan.

Evropa hamjamiyati – 1957 yilda Rim shartnomasini imzolanishi natijasida tashkil etilib, unga 6 ta Evropa mamlakatlari a'zo bo'lgan. 1973 yildan to 1995 yilgacha shartnoma imzolagan oltita Evropa mamlakatlariga yana to'qqizta Evropa mamlakatlari kelib qo'shilgan : (1973 yilda – Daniya, Irlandiya va Buyukbritaniya mamlakatlari, 1981 yilda – Ispaniya va Portugaliya mamlakatlari, 1995 yilda – Avstriya, Finlandiya va SHvetsiya mamlakatlari).

Lomey konventsiyasi – Togo mamlakatining Lomey shaxrida imzolangan bo'lib, Evropa Ittifoqi va Afrika mamlakatlarining tashqi savdo sohasida o'zaro hamkorlik konventsiyasi hisoblanadi.

Maastrixt Shartnomasi – 1991 yil dekabrda Frantsiyaning Masstrixt shaxrida imzolangan. Maastrixt shartnomasini imzolash natijasida Evropa Ittifoqi tuzilgan va yagona Evropa fuqaroligiga erishilgan.

EOUS (Evropeyskiy obedenenie uglya i stali) – Ko'mir va po'lat ishlab chiqarish bo'yicha Evropa birlashmasi.

Iqtisodiy integratsiya – mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, o'zoro iqtisodiy aloqalarning chuqur rivojlanishi va millatlar o'rtasidagi xo'jaliklarning mexnat taqsimoti tushuniladi.

Integratsion saloxiyat – xalqaro iqtisodiy integratsiya subektlarini, iqtisodiy manfaatdor tomonlarni xalqaro iqtisodiy ishlab-chiqarish, ilmiy texnika sohasidagi hamkorligi va o'zaro almashinuv predmeti hisoblangan tabiiy kompleksi, mexnat, ishlab chiqarish, moliya-kredit, tashqi va ichki savdo resurslari, ilmiy saloxiyatli kadrlar va insonlarning mulklari tushuniladi.

Amerika-O'zbekiston savdo palatasi – O'zbekiston Respublikasi va Amerika qo'shma shtatlari o'rtasida tashkil etilgan birlashma bo'lib, u xar yilda bir marta yig'ilib, hamkorlikning yangi ko'rinishlarini ishlab chiqadi.

F.E.XO'JAEV, I.S.XOTAMOV, S.AYTIYEVA

BOJXONA HAMKORLIGI

(O'QUV QO'LLANMA)